

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK

JUMANIYAZOVA IL'MIRA KOMILJANOVNA

**O'rta Maxsus Kasb-hunar kollejlarida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-
stadi texnologiyasidan foydalanishning ilmiy –pedagogik asoslari**

5A110901 – Pedagogika

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

Ilmiy rahbar:

p.f.n.dots.SH.Ismoilova

M U N D A R I J A

KIRISH	3
I BOB KEYS-STADI INNOVATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYASI SIFATIDA.....	10
1. Keys-stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi	10
2. Keys-stadi texnologiyasining turlari va manbalari.	17
I bob bo‘yicha xulosa	25
II BOB. KEYS-STADI TEXNOLOGIYASINING TA’LIMIIY IMKONIYATLARI.....	27
1. Keys-stadi texnologiyasining o‘quv didaktik vazifalari.	27
2. Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilish jarayoni va unda o‘qituvchi faoliyatining ahamiyati.....	33
II bob bo‘yicha xulosa.....	46
III BOB. PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISHDA KEYS-STADI TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH.	48
1. Pedagogik fanlarni o‘qitishda keys-stadi texnologiyasini qo‘llash xususiyatlari.	48
2. Kasb-hunar kollejlarda pedagogik fanlarni o‘qitishda keys- stadi texnologiyasini qo‘llash boyicha tajriba–sinov ishlari	57
III bob bo‘yicha xulosa.....	77
XULOSA	78

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....	82
ILOVALAR.....	

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet Pedagogika

Magistratura talabasi Jumaniyazova I.K

Kafedra Pedagogika va psixologiya

Ilmiy rahbar Ismoilova SH

O`quv yili 2011-2013

Mutaxassisligi Pedagogika

Urganch Davlat Universiteti Magistratura bo'limi Pedagogika mutaxassisligi magistranti Jumaniyazova Ilmiraning "O'rta Maxsus Kasb-hunar kollejlarda Pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari"

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: O'rta Maxsus Kasb-hunar kollejlarda pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llagan holda dars samaradorligini oshirish, talabalarni kasbiy amaliy faoliyatga tayyorlash muhim masala sanaladi.

Ishning maqsadi: Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida keys-stadi texnologiyasidan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ishning vazifalari: Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni, DTS, o'quv reja va dasturlarini tahlil qilish va texnologiyaning ta'limiy imkoniyatlarini ochib berish, mavzular asosida keyslar ishlab chiqish, tajriba-sinov natijalarini ko'rsatib berish.

Tadqiqot ob'yekti: Ishning mavzusi bevosita ta'lim jarayoni nazariyasi va amaliyoti bilan bo'g'liq va tadqiqot ob'ekti didaktik jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: Pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni, shakllari, metodlari va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqot uslubiyoti va uslublari: Adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, ilmiy-uslubiy manbalar bilan ishlash, eksperiment, ilg'or pedagoglar ish tajribalarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni faoliyatga keys-stadi texnologiyasini zamon talablari darajasida amalga oshirilsa, yetuk mutaxassislar yetishib chiqadi. Shuningdek pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida keys-stadi texnologiyasini pedagogik jarayonga tadbiq qilinishi bo'yicha metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqi: Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida ta'lim jarayonini tashkil qilishda, shuningdek, bitiruv malakaviy dissertasiyasini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ish tuzilishi va tarkibi: Kirish, III bob, 6 fasl, har bir bobga xulosa, umumiy xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovadan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Mavzuga oid 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Xulosa va takliflarning qisqa umumlashtirilgan ifodasi: Pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish mumkin.

Ilmiy rahbar

(imzo)

Magistratura talabasi

Urgench State University Master's department the master of speciality of pedagogic Jumaniyazova Ilmira the annotation of the dissertation on the theme

“The scientific - pedagogical basis of usage of case – study technology in teaching pedagogical subjects at vocational colleges”

A N N O T A T S I Y A S I

The intensity of the dissertation: To develop efficiency of lessons using the technology of case – study in teaching of pedagogical themes at vocational colleges, it's an important task to prepare students to the professional practical activity.

The aim of the dissertation: To develop scientific - methodical recommendations about effective usage of case - study technology in the process of teaching pedagogical themes.

The tasks of the dissertation: To analyse scientific - methodical literatures, the standards of state education, curriculum and programmes, to open educational opportunities of technology, to work out cases about themes, to demonstrate the results of experiment.

The object of the dissertation: The theme of dissertation is related with the theory and practice of educational process and the object of dissertation is considered as a didactic process.

The subject of the dissertation: The processes, forms, methods and instruments of teaching pedagogical subjects.

The methodology and the methods of the dissertation: Analysing literatures, supervise, interview, work with scientific - methodical sources, experiment, analyse the work experiences of progressive pedagogues.

The scientific innovational degree of the dissertation: In this research work has been grounded that innovational approaching to the realization of

case – study in teaching pedagogical subjects. By this new approach to the activity there will be advanced, progressive specialists. At this process there is good opportunity to demonstrate developed methodical recommendations about inculcating the technology of case – study to the pedagogical process.

Practical significance and usage of the dissertation: The gained scientific results of the dissertation can use in organizing educational process, also for preparing graduating improving work at vocational colleges.

The organization and compiling of the dissertation: Introduction, 3 chapters, 6 paragraphs, conclusion to each chapter, general conclusion, recommendations, the list of used literature and appendix.

The main results of the dissertation : Two scientific articles were published pertaining to the theme.

The explanation of the short and summarized conclusions and recommendations: We can increase the efficiency of lessons by using the technology of case – study in teaching pedagogical subjects.

Kirish

“Eng yangi zamonaviy o‘quv vositalari bilan ta’minlaydigan ta’lim muassalarida eskidan qolgan o‘qitish usullarining davom etishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.” I.A. Karimov.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilib berildi. “Unda uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi”, deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda: “Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” ta’lim mazmunining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. [1,20 b]

“Ta’lim O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi yuksak darajada anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi ”. [7, 78 b]

Prezidentimiz I.A. Karimovning ushbu ta’kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda. Ushbu ilmiy- amaliy isbotlash, o‘quv jarayonlarini yuksak darajada texnologiyalashtirish bilan chambarchas bog‘langandir. Fikrimizning dalili sifatida muhtaram Prezidentimizning 2012 yil 28 maydagi “Malakali pedagogik kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini

shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini keltirishimiz mumkin.[2, 34 b]

Ushbu Qarorda ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi zudlik bilan ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni, hamkorlikda o'qitish, shuningdek, "amaliy o'yin"lar, interfaol ta'lim uslublari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va mul'timedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet-el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqishligi ko'rsatilgan. [34,36 b]

Bizga yaxshi ma'lumki, Respublikamizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko'ra kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarlar uchun yuqori malakali oliy ma'lumotli o'qituvchi mutaxassislar tayyorlashning o'ziga xos "o'zbek modeli"- yaxshi tizim ko'rinishida amalga oshirib kelinmoqda. Qarorda ta'kidlanishicha bu borada hali bajarilishi, o'rganilishi, ta'lim jarayoniga tadbiq qilinishi zarur bo'lgan ishlarimiz anchagina.

Demak, ilmiy-texnik taraqqiyot sanoat sohasida, tibbiyotda va boshqa xalq xo'jaligi sohaslarida keng joriy qilinayotgan ekan, buni fan-madaniyat, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar tizimlar sohasiga ham, zamonaviy yangi-innovatsion texnologiyalarini ta'lim-tarbiya sohasiga ham joriy etishni hayotning o'zi talab etmoqda.

Hozirgi kunda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya jarayonlariga tadbiq etish zaruriyati shuning uchun dolzarb masalalardan biriga aylanmoqdaki, amaldaki an'anaviy o'qitish tizimi o'z faolligini ancha yo'qotdi, ya'ni quruq og'zaki so'zlar yordamida o'qitish samara bermayapti.

Buning o'rniga esa "Axborotli-amaliy o'qitish" tizimi ta'lim tarbiya jarayoniga ko'proq samara berishligi Prezident Qarorlarida ham ko'rsatib o'tilgan.

Pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.[34,4 b]

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanadi.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoning unumdorligini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishlarni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Shu sabab ham bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar faol qo'llanilib kelinmoqda, ayni vaqtda bu o'quv jarayoning yangicha ruhda shakllanishiga imkoniyat yaratmoqda. O'quv jarayonlarini kuzatadigan bo'lsak har bir dars jarayoni o'z navbatida ma'lum bir texnologiyalarga asoslangan holda o'tkazilmoqda. Bu o'z navbatida o'qituvchi va talaba faolliyatini yanada jadallashtirmoqda va mustaqil faoliyatga undamoqda. Aynan bu jarayonlarni amalga oshirishda amaliy vaziyatlarni hal qilishda keys-stadi texnologiyasi ham muhim ahamiyatga egadir. Keys-stadi texnologiyasi muammoli vaziyatlarning yechimini topishga asoslangan texnologiya hisoblanadi. Keys-stadi texnologiyasi asosan iqtisod fanlarini o'qitishda qo'llanilgan. So'ngra bu texnologiya boshqa fanlarni o'qitishda ham foydalanilgan. Keys-stadi texnologiyasi asosan amaliy darslarni o'qitishda qo'llanilib boriladi va talabalarni shaxsiy va kasbiy faoliyatda yuzaga keluvchi vaziyatlarga oldindan tayyorlaydi, bilim, ko'nima, malakalar hosil qilishga o'rgatadi.

Mazkur magistirlilik dissertatsiya ishi mavzusidan kelib chiqqan holda biz pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasining ilmiy pedagogik asoslarini tahlil qildik.

Olib borgan kuzatish ishlarimiz shuni ko'rsatadiki, keys-stadi texnologiyasi ta'lim jarayoniga nisbatan yaqinda kirib keldi va pedagoglar tomonidan faoliyatga keng joriy qiliniyapti. Keys-stadi texnologiyasi asosini ta'lim jarayoniga joriy etishda, o'quvchilarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq vaziyatlar va ularning tahlili tashkil qiladi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyat bilan bog'liq vaziyatlarni chuqur o'rganish natijasida nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlaydi. O'quvchilar muayyan vaziyatlarni har tomonlama o'rganadilar. O'z navbatida ular faol fikrlaydilar, nazariy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil o'rganish davomida to'plangan ma'lumotlari bilan taqqoslaydilar, shaxsiy tajribalariga murojaat qiladilar. Turli vaziyatlarni hamkorlikda yoki mustaqil ravishda tahlil qilish va qayta ishlashlari davomida qo'shimcha ma'lumotlarga nisbatan zarurat sezadilar.

Mazkur mavzuning yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi magistrlik dissertatsiya ishini muammosining muayyan darajadagi dolzarbligi va yangiligini belgilaydi.

Mummoning o'rganilganlik darajasi. Keys - stadi uslubi birinchi marotaba ijtimoiy fanda Frederik Le Play tomonidan 1929 yil oila byudjeti statistikasini hisoblashda qo'llangan.[30,116 b] Keyinchalik keys stadilar ijtimoiy fanlarda yangi nazariyalarni yaratishda sotsiologlar Barney Glaser va Anselm Strauss tomonidan 1967 yil, "asoslangan nazariyada" tadqiqot metodi sifatida qo'llanilgan. XX asrning 70-80 yillariga kelib ushbu texnologiya dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Ko'pgina mamlakatlarda bu texnologiyadan faqat iqtisod fanlarini o'qitishda qo'llanilib kelingan edi. O'sha paytda bu texnologiya ustida rossiyalik olimlardan G.A Bryanskiy, Yu.Yu Ekaterinoslavskiy, O.V Kozlova, Yu.D.Krasovskiy, V.Ya. Platonov, D.A Pospelov, O.A.Ovsiyannikov, V.S. Rapoportniklar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqotning maqsadi: O'rta-maxsus kasb-hunar kollejlarida ta'lim jarayonini tashkil qilishda faoliyat sifat-samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy-pedagogik jihatdan asoblab berish, shuningdek, pedagogik fanlarni

o'qitish jarayonida keys-stadi texnologiyasidan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalar:

1. Keys-stadi texnologiyasining vujudga kelish tarixi, rivojlanish bosqichlarini j o'rganish va tahlil qilish. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha yaratilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni, o'quv-metodik qo'llamanlarni tahlil qilish, mavzuning yoritilish darajasini aniqlash.
2. Keys-stadi texnologiyasining ta'limiy imkoniyatlarini to'liq ochib berish, o'quv jarayonida o'qituvchining o'rnini va vazifalarini tahlil qilish.
3. O'rta-maxsus kasb –hunar kollejlarida pedagogik fanlar mazmunini o'rganish maqsadida DTS, o'quv reja va dasturlarini tahlilini o'rganish.
4. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida pedagogik fanlarni o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish holatini o'rganish maqsadida bevosita ta'lim jarayonini kuzatish, xulosalarni shakllantirish va umumlashtirish.
5. Dars jarayonini samarasini oshirish uchun pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan dars jarayonida kengroq foydalanish va ularni qo'llash metodikasini yaratish.
6. Pedagogik tajriba sinov o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish asosida uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Magistirlilik dissertatsiya ishning mavzusi bevosita ta'lim jarayoni nazariyasi va amaliyoti bilan bo'g'liq va tadqiqot ob'ekti didaktik jarayon hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: Magistirlilik dissertatsiya ishining predmenti o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlarida pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni, shakllari, metodlari va vositalari hisoblanadi.

Magistirlilik dissertatsiya ishining metodologik asosini qomusiy allomalarning ilmiy-falsafiy qarashlari, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha

qabul qilingan davlat hujjatlari, Prezident I.A. Karimovning asarlari tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari: Adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, statistik ma'lumotlar bilan ishlash, ilmiy, ilmiy-uslubiy manbalar bilan ishlash, eksperiment, ilg'or pedagoglar tajribalarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy farazi: pedagogika kollejlari pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanilsa dars samaradorligi oshishi, va talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanishi, kelgusi amaliy faoliyatda yuzaga keluvchi vaziyatlarga oldindan tayyorlash imkoniyatlariga ega bo'lishlari mumkin

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

1. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali ularda ijodiy fikrlash sifatlarni shakllantirish mumkin.
2. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llagan holda samarali natijalarga erishish mumkin.
3. Keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilar kasbiy-amaliy faoliyatga oldindan tayyorlanishlari mumkin.
4. Keys-stadi texnologiyasini qo'llash jarayonida o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoa a'zolari bilan jipslashgan holda faoliyot olib borish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin.
5. Keys-stadi texnologiyasini samarali tashkil qilinsa o'qituvchi faoliyat mazmuni yangicha uslublarga o'zgarishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangiligi: Tadqiqotning ishining yangilik elementlari sifatida o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida keys-stadi texnologiyasini pedagogik jarayonga tadbiq qilinishi bo'yicha metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot natijalarining nazariy amaliy ahamiyati va tadbiqu: Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonini tashkil qilishda, shuningdek, bitiruv malakaviy dissertatsiyasini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Respublika, viloyat jurnal va maqola to'plamlarida mavzuga oid 4 ta ilmiy maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy mazmun 81 betda yoritilgan.

I BOB. Keys-stadi innovatsion o'qitish texnologiya sifatida

1. Keys-stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi

Bugungi kunda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilish, o'quv faoliyatida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Biz shaxsiy-kasbiy faoliyatimizda turli xil muammoli vaziyatlarga duch kelamiz, aynan shu vaziyatlarning muqobil yechimini izlash, yuzaga kelgan har qanday muammoli jarayoning yechimini topa olish, istiqboli rejalarini tadbiq qila olish bizning bilim, mahoratimizga bog'liqdir. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-stadi texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir.

Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv guruh o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek texnologiya talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarini hamkorlikda qo'llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o'rgatuvchi ta'lim texnologiyasidir.[21, 1b]

Amaliy vaziyatlarni hal etish uslublari va vositalari, ya'ni keys-stadi (ingilizcha "case"-yig'ma, aniq amaliy, holat, stadi-o'quv) texnologiyasi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat deganidir.[25, 17 b] Gary Thomas quyidagi keys-stadiga oid tarifni keltirib o'tadi: Keys stadilar bu shaxslarni, voqealarni, qarorlarni, davrlarni, loyihalarni, qonunlarni, tashkilotlarni va boshqa tizimlarni bir yoki undan ortiq usullar orqali avvaldan o'rganib kelinayotgan tahlili hisoblanadi. Keysning subyekti tahliliy vaziyatlardir, ob'ekti esa uni tahlil qilish jarayonidir.[25, 6-7 b]

Cheklangan miqdordagi elementlarni o'rganish uchun namunalardan va jiddiy bayonnomalardan(qoidalar to'plamini) foydalanish o'rniga, keys stadi usuli o'z ichiga yagona bir vaziyat yoki voqeani uzoq muddat davomida chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Ular voqealarga, ma'lumot yig'ishga, ma'lumotni tahlil qilishga va natijalarni e'lon qilishga tizimlashtirilgan qarashlarni ta'minlaydi. Natijada o'rganuvchi sodir bo'lgan voqeani qanday sodir bo'lganligi haqidagi tushunchasini yanada rivojlantirishi mumkin va kelajakdagi izlanishlar uchun nimalar muhim hisoblanishini bilib olishi mumkin. Keys-stadilar, farazlarni dunyoga keltirishda hamda ularni sinovdan o'tkazishda muhim rolni o'ynaydi. [25,511 b]

Keys-stadi bo'yicha yana bir ta'rif bu uni tadqiqot strategiyasi deb belgilanishidan iborat. Keys-stadi bu bir yoki bir nechta keyslarni, ko'p miqdordagi dalillarni o'z ichiga olishi mumkin, turli-xil dalil manbalariga bog'liq va nazariy vaziyatlarning oldingi rivojlanishidan manfaat olishini anglatadi. Keys- stadilar statistik izlanishlar va ko'p ma'lumot to'plagan holda tadqiqot qilish bilan farqlay olish lozim. Bir mavzudagi tadqiqot keys- stadi ma'lumotlaridan foydalanib, xulosalar qabul qilish uchun asos keltirib beriladi. Bu yana Lamnek fikrlarida o'z tasdiqini topadi va shakllanad. Keys-stadi – bu tadqiqotli yondashish, aniq ma'lumotlar olish texnikalari va metodologik paradigmalor orasida joylashgan. Ba'zida keys-stadi, keys-buk bilan adashtiriladi, deb hisoblaydilar.[52]

Keys-buk metodi, yoki boshqacha qilib aytganda keys metodi asosan Ameriak Qo'shma Shtatlarining huquqshunoslik maktablarida huquqni o'qitishni asosiy uslubi hisoblanadi. U Garvard huquqshunoslik maktabida Kristofer Kolumbus Langdell tomonidan kashf qilingan.[53] Bunda huquqiy hujjatlarni mavhum rezyumesini o'rganish o'rniga Amerika qonunlarini yaqindan tanishishni yaxshi yo'li bu sud fikri va qarorining o'zini o'rganib chiqishdir, degan tamoyil asos qilib olingan. [14,118] Shu maqsadda amerikalik huquqshunos professorlar huquqning aniq sohalariga tegishli mashhur sudlarda

amalga oshirilgan ishlarni yig'ishadi, bular maxsus o'quv-qo'llanmalar "keysbuklar" deb ataladi. Ba'zi professorlar ishlarga o'zgartirishlar kiritib, ularning mag'zinigina ayrim ma'lumotlarni olib tashlagan holda qoldiradi, ba'zilari esa ishni bus-butunligicha qoldiradi. Umumiy usullardan biri bu yangi qonun yaratishga turtki bo'lgan ishga aloqador barcha ma'lumotlarni qisqacha xulosa bilan keltirib berishdan iboratdir. Odatda amerika huquqshunoslik maktablarida keysbuk uslubi Suqrot metodi bilan uyg'unlashgan. Mazkur sinf uchun o'qituvchi bir nechta vaziyatlarni o'qishga beradi va yana unga qo'shimcha bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqishni talab qilishi mumkin. Sinfda o'qituvchi o'rganish tayinlangan ish bo'yicha o'quvchilarga savollar beradi, ularning qonularni, vaziyatni tushungan, tushunmaganligini aniqlab oladi va bu jarayon bahs munozara tarzida kechadi. Agarda ma'lum bir qonun jiddiy bahsga sabab bo'lsa, unda bu qoida shubha ostiga tushadi. Bu o'qitish metodi boshqa o'quv dasturlaridagi o'qitish metodidan 2 ta xususiyati bilan farq qiladi:

1) O'quvchilardan birlamchi manbalardan, ya'ni qonun tilida yozilgan ishlardir.

2) Amerika huquqshunoslik maktablarida asosan sinfda keysni anglash uchun diologlardan foydalaniladi, to'g'ridan- to'g'ri ma'ruza o'qib berish orqali emas. Ba'zi huquqshunoslik maktablarida esa keysbuk metodi ma'ruzalar bilan uyg'unlashtirilgan bo'ladi. Bular asosan soliq qonunlarini va savdo-sotiqqa oid qonunlarni o'rganadigan sinflarda uchraydi. Bu usul yana Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarning umumiy qonunlarida qo'llaniladi. Keysbuk uslubi, keys -stadi uslubiga juda o'xshaydi, lekin ular bir xil emas.[25,317 b]

Keys- stadi texnologiyasi aniq o'quv materiallar asosida maxsus ishlab chiqilgan vaziyatlarni aniqlash, yechishga yo'naltirilgan bo'lib oldindan o'quv soat mavzusi asosida tuziladi va talabalar bilan birgalikda tahlil qilish maqsadini ko'zlaydi.

Keysda bayon qilingan muammoli vaziyat ma'lum bir institusional tizimda ko'rib chiqiladi, bunda hayotdagi tipik muammolar qayta yaratadigan holda real yoki sun'iy qurilgan hodisalar sifatida aks etiriladi.

Keys- stadi texnologiyasi kelib chiqishi va ta'lim tizimida qo'llanilishi o'tgan asrning yigirmanchi yillariga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga qaraganda bu texnologiya undan ham oldinroq mavjud bo'lib o'quv jarayonlarida qo'llanilib borilgan. Keys-stadi texnologiyasining kirib kelishida yunon faylasufi Suqrotning maktabi alohida ahamiyatga egadir. Chunki Suqrotning shogirdlari bilan olib borgan bahs-munozarali suhbatlari, aynan keys-stadi texnologiyasini eslatadi. Shuningdek turli kashfiyotlarning o'z tasdig'ini topishi, isbotlanishida ham keys-stadi texnologiyasi o'ziga xos o'ringa ega. Masalan tanqidiy keyslar ko'pchilik nazariyalarni isbotini topishda qo'llanilgan.

Tanqidiy keysni umumiy muammoga bog'liq bo'lgan strategik ahamiyatga ega keys deb aytish mumkin. Tanqidiy keys quyidagi umumlashtirish turiga ijozat beradi, "agar bu ushbu keys uchun haqiqiy bo'lsa, bu hamma(ko'pchilik) keyslar uchun haqiqiy hisoblanadi". Keys-stadi yana mashhur faylasuf Karl Poppening falsifikatsiya (sohtalashtirish) deb nomlangan test turini umumlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Buning inkor shakli "agar bu ushbu keys uchun to'g'ri hisoblanmasa, unda bu har qanday keys uchun haqiqiy hisoblanmaydi" degan ko'rinishda bo'ladi. Falsifikatsiya bu ilmiy takliflarni rad qila oladigan jiddiy testlardan biridir: agar faqat bitta kuzatuv ilmiy farazga mos kelmasa, u holda bu faraz rad qilinishi yoki qaytadan o'rganilishi kerak.

Poppening o'zi mashhur "qora oq qushlar" misolidan foydalanib, kuzatuv jarayonida faqat bitta qora qushning aniqlanishi bu farazni rad qilinishini yoki soxta ekanligini aniqlab beradi va shu yo'l orqali bu umumiy ahamiyatga ega bo'lib, kelajakdagi izlanishlarga va nazariya yaratishlarda turtki bo'ladi.[25,119b]

Galileo Galiley tomonidan Aristotelning Butun dunyo tortishish qonuni rad qilinishi o'z-o'zidan emas bu keys-stadiga asoslangan va bu keys

ma'lumotlarga tayangan holda tanlangan. Raddiya asosan farazdan boshlangan, keyinchalik u tajriba orqali o'z isbotini topgan. Shunga qaramasdan, Aristotelning tortishish qonuni rad qilinmasdan oldin 2000 yilgacha ilmiy fakt deb qabul qilinib kelgan. O'zining tajribasida, Galileo quyidagi sababni keltirgan: agarda ikkita jism bir vazndagi bir xil tepalikdan tashlab yuborilsa bir xil paytda, ular yerga bir xil tezlikda birdaniga tushishadi. Agar bu ikkita jism bir-biriga birlashtirilsa, bu jism ikki marta ko'p vaznda bo'ladi va Aristotel qonuniga ko'ra yerga ikkita ayrim jismga qaraganda tezroq qulaydi. Bu natija Galileoni qoniqtirmaydi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf qilishni yagona yo'li bu qulash omili hisoblangan vaznni olib tashlashdan iborat edi. Galileoning tajribalari har xil vazndagi jismlarni har xil tepalikdan va har xil shamol tezligida tashlab ko'rishdan iborat emas edi. Aksincha bu yagona tajriba, ya'ni keys -stadi edi. [14, 221 b]

Galileoning qarashi ikkilanishlarga sabab bo'ldi, Aristotelning qarashi esa darrov rad qilinmadi va havo nasosi kashf qilinmaguncha yarim asr hukm surdi.

Havo nasosi kashf qilinishi o'quvchilarga ma'lum tajribalarni o'tkazishga yordam berdi, bunda tanga yoki qo'rg'oshin parchasi vakum trubalari ichida pardek bir xil tezlikda tushishadi. Bu ilmiy tajribadan keyin Aristotelning qarashi butunlay rad qilindi. Lekin, metallarning va parni oqilona tarzda tanlanganini ta'kidlab o'tish lozim. Shular yordamida Galileo o'z fikrini isbotlab berish uddasidan chiqdi. Keysni strategik tarzda tanlash keysning umulashtirishga olib kelishini kuzatish mumkin.[14, 224 b]

Keys-stadi texnologiyasi ilk marotaba 1870 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanila boshlangan. "Muammo" (situatsiya) atamasiga keladigan bo'lsak, ushbu so'z ko'proq tibbiyot va huquqshunoslik sohalarida qo'llanilib kelingan, ta'lim tizimida bu so'z yangicha talqin qilinadi. [30, 117 b]

1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish

va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi. [43,5 b]

Turli-xil vaziyatli mashqlar to'plangan ilk kitob 1921 yilda Kouplend va Garvard biznes maktabining rahbari Volas Donam homiyligida chop qilingan.

Keys- stadi texnologiyasining rivojlanishida Garvard va Manchestr maktablari alohida ahamiyatga egadir, ular bir-biridan qo'llanish usullari orqali farq qiladi.

Keys- stadi uslubi birinchi marotaba ijtimoiy fanda Frederik Le Play tomonidan 1929 yil oila byudjeti statistikasini hisoblashda qo'llangan.[38,120 b] Keyinchalik keys stadilar ijtimoiy fanlarda yangi nazariyalarni yaratishda sotsiologlar Barney Glaser va Anselm Strauss tomonidan 1967 yil, "asoslangan nazariyada" tadqiqot metodi sifatida qo'llanilgan. [30,110 b]

XX asarning boshlarida Garvard maktabining o'qituvchilari darslarida ma'ruza o'qish jarayonida fikrlashga undovchi masalalarni to'liq tushuntirmaganlar, bu masalarga javoblarni talabalarning o'zlari toptirishga harakat qilganlar va talabalarning bildirgan yechimlarini qayd qilib borganlar. Bu jarayon davomida turli hil muammolarni ham kiritib, talabalarni yechimlarni topishga undaganlar.[36,116 b]

XX asrning 70-80 yillariga kelib ushbu texnologiya dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Ko'pgina mamlakatlarda bu texnologiyadan faqat iqtisod fanlarini o'qitishda qo'llanilib kelingan edi. O'sha paytda bu texnologiya ustida rossiyalik olimlardan G.A Bryanskiy, Yu.Yu Ekaterinoslavskiy, O.V Kozlova, Yu.D.Krasovskiy, V.Ya. Platonov, D.A Pospelov, O.A.Ovsiyannikov, V.S. Rapoportniklar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ammo bu davrda texnologiyaga yetarlicha darajada e'tibor qaratilmagan, turli ijtimoiy qatlamlar tomonidan taziqiqga uchraganligi sabab bu texnologiya dars jarayonlarida qo'llanilmay qo'yilgan.

Keys-stadi texnologiyasi 1990-yillarning ikkinchi yarimda Rossiyalik mutaxassislar tomonidan yana qayta o'rganila boshlandi. Iqtisodiyot sohasida

olib borilayotgan keng ko‘lamdagi islohatlar natijasida, zarur paytda mustaqil va to‘g‘ri qarorni qabul qilib, qiyin bir holatdan chiqaradigan, to‘g‘ri tavakkal qila biladigan iqtisodchilarga talab keskin oshdi. Buning natijasida ko‘plab oliy ta‘lim muassalarida o‘qitilayotgan fanlarda keys texnologiyasi qo‘llanila boshlandi va shuningdek iqtisodiyot sohasiga yangi yo‘nalishlar qo‘shildi: menejment, marketing, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqalar. Ushbu yo‘nalishlar orqali ta‘lim sohasiga interaktiv o‘qitish uslublari kirib keldi.

Keys stadi o‘zining uzoq shakllanish bosqichlariga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi. Keys-stadilar farazlarni sinovdan o‘tkazish uchun qo‘llanilishi yaqin o‘n yilliklarda paydo bo‘lib, mashhur uslubga aylanishga ulgirdi. Keys-stadilardan foydalanish ta‘limda, xususan ta‘lim evolyutsiyasida mashhurlikka ega bo‘ldi.[36,21b] Hozirda tajriba olamida ma‘lum bo‘lganlarning ko‘pchiligi keys- stadilar yordamida erishilgan va ko‘p sohalarda qo‘llaniladi, shular ichiga psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, tarix, ta‘lim, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, menejment, geografiya, biologiya va tibbiyot kiradi. Masalan, barcha yuqori saviyadagi siyosatshunoslikka oid jurnallardagi maqolalarning yarimi keys-stadilardan foydalanadi. Lekin bu yerda, Oksford professori Bent Flyvbjerg ta‘kidlaganidek aqlga zid fikr bor. Keys-stadilar keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan bir paytda, ularga bo‘lgan e‘tibor pastligi va umuman e‘tibordan chetda qolayotgani tushunarsiz holat. Oliygozlarda taklif qilinayotgan kurslar buning isbotidir. Ma‘lumki keys - stadi paradoksi mavjudligi uning tadqiqot uslubi deb qabul qilinganligi sabablidir. Bu keys stadi tushunmovchilikni hal qilish orqali paradox yechimini topishi mumkin.[25,16 b]

Flyvbjerg(2006) keys stadining tadqiqot sifatidagi cheklanishlarga oid 5 ta tasdiqlovchi gaplarni ko‘rsatib beradi: [14, 310 b]

1. Umumiy, nazariy bilim aniq, amaliy bilimdan qadrliroqdir.
2. Ayrim bir keysga asoslangan holda ilmiy rivojlanishga erishib bo‘lmaydi.
3. Keys-stadi farazlarni dunyoga keltirishda juda foydali uslublar va farazlarni tekshirib ko‘rishda va nazariya yaratishda qulay hisoblanadi.

4. Keys-stadi verifikatsiyaga moyil bo'ladi, ya'ni tadqiqotchi fikrini isbotlashga moyillik.

5. Ko'p hollarda aniq misollar yordamida umumlashtirish va nazariyani rivojlantirish qiyin kechadi.

Keys-stadi texnologiyasi faqat ta'lim sohasiga hos uslubiy yangilik emas, bu uslub talabaning bilim faoliyatga yo'naltirishdan tashqari, uning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishga ham qaratilgandir.

Hozirgi kunda keyslarni yozadigan va ularni nashr qiladigan Michigan Universitetidagi Glabolens kabi markazlar mavjud. Dunyo bo'yicha yuridik maktablarda keys stadilarni o'qitish va ularni yozish faoliyatning markaziy vazifasi hisoblanadi. Yevropa Keys Kliring Uyi va Globalensga o'xshagan ba'zi tashkilotlarda eng yahshi o'qitish keyslarini aniqlash uchun musobaqalar olib boriladi. Ayrim muassasalar o'qitish keyslarini yozishda juda faol qatnashadilar (taqdirlangan mukofotlar soni bilan aniqlangan), bularga: Garvard biznes maktabi, Virjiniya universitetining Darden maktabi, Michigan universitetidagi Ross biznes maktabi, Richard Ivey biznes maktabi, Osiyo menejment instituti, Hindiston menejment instituti, Ahmedobod va Kong universitetidagi Osiyo keys tadqiqot markazi kabilar kiradi. [14,313b]

2.Keys-stadi texnologiyasining turlari va manbalari.

Keys-stadi muammoli o'qitish texnologiyalaridan hisoblanadi. Ushbu innovasion texnologiya asosini talabalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq vaziyatlar va ularning tahlili tashkil qiladi.[27, 24b.] Bo'lg'usi kasbiy faoliyat bilan bo'g'liq vaziyatlarni chuqur o'rganish natijasida nazariyaning amaliyot bilan bo'g'liqligi ta'minlanadi. O'quvchilar muayyan vaziyatlarni har tomonlama o'rganadilar. O'z navbatida ular faol fikrlaydilar, nazariy mashg'ulotlarda eshitgan bilimlarini mustaqil o'rganish davomida to'plagan ma'lumotlar bilan taqqoslaydilar, shaxsiy tajribalarga murojaat qiladilar. Turli vaziyatlarni hamkorlikda yoki mustaqil ravishda tahlil qilish va qayta ishlash davomida qo'shimcha ma'lumotlarga nisbatan zarurat sezadilar, statistik

ma'lumotlarni o'rganadilar. Natijada talabalarning bilimlari amaliy jarayon bilan bog'likda mustahkamlanib boriladi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, nutq mahorati, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Masalaning muammolilik jihatlarini aniqlashtiriladi, maqsad va vazifalari, tadqiqot yo'nalishlari belgilaniladi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishning turli variyatlarni ilgari suradilar, mulohaza yuritadilar, eng ma'qul hisoblangan g'oyalarni muhokamaga qo'yadilar, qarorlarni qabul qiladilar

O'quvchilar kelgusi mehnat faoliyatini aniq rejalashtirilishini o'rganadilar, favqulotda holatlar sodir bo'lsa, eng to'g'ri yechim va qarorlarni qabul qilishga, ta'lim jarayonida to'plangan nazariy ma'lumotlarni rivojlantirgan holda amaliyotga ijodiy tadbiriq qilishga tayyor bo'ladilar.

Keys-stadi texnologiyasi talabaning kelajakda yetuk mutaxassis sifatida shakllanishida ijtimoiy- psixologik ahamiyati katta. Chunki kasbiy faoliyat bilan bog'liq turli amaliyotlarini, lavozimiy majburiyatlarini bajaruvchi shaxs o'rniga qo'yib ko'radi, voqea-hodisalarni o'rganadi, qanday xulosa yoki qaror qabul qilish mumkinligini va bunda mehnat jamoasi bilan ijodiy hamkorlikni qanday yo'lga qo'yish ma'qulligini o'ylab ko'radi, yakuniy natijalarni oldindan ko'ra bilish, muammolarni oldini olish, ularni hal qilish davomida turli ruhiy zo'riqish holatlariga yo'l qo'ymaslik kerakligini, kasbiy sohada hamkorlik, hamfirlilik, faoliyatini to'g'ri rejalashtirish va amalga oshirish lozimligini, na moddiy va na ma'naviy, ruhiy isrofgarchilikka yo'l qo'yish mumkin emasligini bilib oladilar.

Ushbu texnologiyaning yana bir afzaligi shundaki, o'quvchilarda kasbiy axloq me'yorlari haqida tushunchalar shakllanadi va rivojlanadi. Olar o'zlarini bo'lg'usi kasbiy faoliyati qay darajada tayyor ekanliklarini sinab ko'radilar.

Ular o'z qobiliyatlarini aniq baholagan holda rivojlanish imkoniyatlari to'g'risida o'ylab ko'radilar.

Keys-stadi texnologiyasi ham barcha texnologiyalar kabi tur va manbalarga o'z ichiga oladi. Bular orqali keys-stadi texnologiyasi haqida talabalar to'liq

ma'lumotlar oladilar va o'quv mashg'ulotlarida qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Keyslarni guruhlashtirishda, ularining mazmun mohiyatiga e'tibor beriladi, ularni guruhlashtirishda asosan maqsad vazifalar inobatga olinadi. Shuning uchun ham keyslarni guruhlashtirish bir muncha qiyin kechadi.

Keyslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin

- baholash, tahlilga o'rgatuvchi;
- muammoni yechish, qaror qabul qilishga o'rgatuvchi;
- umumiy tarzda muammoni yechishga o'rgatuvchi keyslar;

Shuningdek ko'pgina adabiyotlarda keyslarni quyidagi turlarga ajratadilar:

- 1) Kalit keyslar(Key cases);
- 2) Notanish keyslar(Outlier cases);
- 3) Tanish keyslar(Local knowledge cases).

Keyslarni turlarga ajratishda N. Fedyaninm, V.Davidenkolarning ham o'z nazariyalari mavjud.

- tizimlashtirilgan (highly structured) keysda kichik hajmdagi qo'chimcha axborotlar beriladi, bunda muammoni vaziyatni yechayotgan talabalar oldindan tuzilgan rejalar asosida vaziyat yechimini izlashlari lozim. Bu turdagi keyslar yuqori darajadagi vaziyat yechimini talab qiladi.
- kichik tasvirlar (short vignettes) keysida muammoli vaziyat hajmi bitta matndan, bir yoki ikkita ilovadan iborat bo'lib, talabalar faqat yechimga xos tushunchalar bilan tanishtiriladi, tahlil davomida talaba bilim zahirasi kengligi alohida o'ringa egadir.
- katta hajmdagi tizimlashmagan keyslar (long unstructured cases) hajmi chegaralanmagandir. Shuningdek ta'lim jarayoning barcha turlarida foydalanish mumkin, ma'lumotlar aniq va to'liq hajmda talabalarga taqdim qilinadi.
- boshlang'inch keyslar (ground breaking cases) qo'llashdan maqsad talabalarni oldin o'zlashtirgan bilimlarini sinovdan o'tkazishdir va mavjud bilimlarni

amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdir. Bu jarayonda talaba va o'qituvchilar ilmiy izlanuvchilar talab qilinadi. [21,10b]

Keyslar qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'rtasida keysning subkeyti va obykti bo'ladi. Subyekt izlanishning nazariy qarashi ko'rsatilgan amaliy, tarixiy birligi hisoblanadi. Obykti esa o'sha nazariy qarashning analitik suyagidir.

Keys tadqiqotchilari keyslarni ikki qismga ajaratadilar, ya'ni muammoli vaziyat va yechim. Muammoli vaziyat keysning dastlabki holatidir, bunda tegishli umumiy axborotlar kiritiladi. [21,12b]

Muammoli vaziyatning yechimini izlashda talabalarni axborotlarni topishga yo'naltirish lozim. Bunday yondashish keys jarayonini rivojlantiradi va jarayonga nisbatan talabalarni faolligini taminlaydi.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan keyslarning hajmi bir-ikki varaq yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. Shuningdek hajm jihatdan katta keyslar, kichik hajmdagi keyslarga qaraganda talabalarda ba'zibir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatlarda muammoli vaziyatni bosqichlarga bo'lib o'rganish tavsiya qilinadi. Keyslardagi muammolar bir yoki bir necha qismlarga bo'g'lanib ketishi jarayoning uzluksiz davom qilinishini ta'minlaydi.

Keyslarni taqdim qilishda qo'lyozmadan yoki elektron variyatsdagi matnlardan foydalanish mumkin. Matndagi su'ratlar, diaograma chizmalar, jadvallar talabalar uchun ko'rgazmali qurol bo'lib hizmat qiladi.

Elektron axborotlar orqali tasvirlangan keyslarni tahlil qilish talabalarga engililik tug'diradi. Keyingi davrlarda keyslardan foydalanishda multimediyalar ommalashib ketmoqda.

Syujet mazmuniga qarab keyslar syujetli (manbalarni ifodalovchi, mazmunli) syujetsiz turlarga ajratiladi. Syujetli keyslar asosan o'tgan voqealar haqida hikoya qiladi, syujetsiz keyslar qoidagi asosan mazmunni yashiradi. Chunki mazmuni to'liq ifodalangan keyslar talabani kengroq fikrlashiga halaqit beradi. Keysdagi muammoli vaziyatlarni tuzishda vaqt tushunchasini ahamiyat

berish lozim. Shuningdek muammolar tabiiy holda aks etilgan, sabab-oqibatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Keyslarni tahlil qilishda talabalarda bashorat qilish ko'nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyat ega. Bashorat qilish muammoli vaziyatda aks etgan hodisalarni yechimini oldindan ko'ra bilishga o'rgatadi va qahromonlarning kelgusidagi xati-harakatlariga nisbatan ijobiy yechimlarni topishga yordam beradi.

Muammoli vaziyat mazmunida ma'lum bir shaxslarning, tashkilotlarning faoliyat jarayoni aks etadi. Shunga qarab vaziyatning sub'ektlari quyidagi turlarga ajratiladi.

1. Shaxslarning faoliyat jarayoni aks etgan keyslarda, ma'lum bir shaxsni xarakatlari ifodalanadi, ular menejer, fan arbobi, rahbar, pedagog, talaba yoki boshqa kasb vakillari bo'lishi mumkin.

2. Tashkiliy-institutsional keyslarda tashkilotlar, ta'lim muassalari, ularning bo'limlari ifodalaniladi.

3. Sub'ektlari ko'p keyslar, o'zida turli ob'ektlarni jamlaydi.

Keysning hajmi, uning o'tkazish vaqtini belgilab beradi. Hajmi jihatdan kichik keyslar bir betdan, bir necha betgacha ifodalanib, u ikki soatlik amaliy mashg'ulotlarni bir qismini ajratishga mo'ljallangan bo'ladi. O'rtacha hajmdagi keyslar ikki soatlik mashg'ulotlarga mo'ljallangandir. Hajmi katta keyslar o'n betdan iborat bo'lib, undan bir qancha amaliy mashg'ulotlar davomida foydalanish mumkin. Shuningdek keyslar ilovali keyslar hamda ilovasiz bo'lishi mumkin. Ilovali keyslar maqsadi: statistik axborotlarni hisoblash, tahlil qilish, malakalarni shakllantirishdir. Shuningdek keyslarning tarkibida muammoli vaziyat yechimini topishga yo'naltiruvchi savollar ham mavjud bo'ladi, bu orqali talabalar vaziyat yechimi sari yo'naltiriladi.

Tajribalarni ko'rsatishicha keys-stadi texnologiyasi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishi va samarali texnologiyaga aylanishi uchun uning

tarkibiy tuzilishida ilmiy-uslubiy ma'lumotlar bo'lishi lozim. Shundagina keys-stadi texnologiyasi samarali o'quv texnologiyasiga aylana oladi.

Ma'lum bir jarayoni tashkil qilishda biz bevosita shu jarayonga tegishli manbalarni izlab topishga va faoliyatimizda qo'llashga harakat qilamiz. Keys-stadi texnologiyasidan, o'quv jarayonida foydalanishda biz turli-xil manbalarga murojaat qilamiz, aynan muammoli vaziyatlarni tashkil qilishda, ko'pgina manbalardan foydalanamiz. Keys-stadi texnologiyasi orqali dars o'tishda, o'qituvchining tajribasi, ilmiy-uslubiy faoliyatining o'rni kattadir.

Barcha texnologiyalar kabi keys-stadi texnologiyasi o'z manbalariga ega. Ba'zi fikrlarga ko'ra keysning asosiy manbasi hayotiy vaziyatlar hisoblanadi. Hayotiy hodisalar baxslarga sabab bo'ladi, muammoni yechish jarayonini jadallashtiradi. Ijtimoiy hayotning barcha ko'rinishlari keysning faktologik va muammoviy bazasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek keys tarkibining asosini tashkil qiladi.

Keyslarning yana bir muhim manbasi ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Uning yordamida keys texnologiyasining maqsadi, vazifasilari, ta'lim tizimida tutgan o'rni belgilanadi.

Keysning uchinchi manbasi - bu fandir. U o'zida keys-stadi texnologiyasining ikkita metodologiyasini ifodalaydi va boshqa uslublar qatorida keys uslubini tahliliy sur'atini belgilaydi.

Amaliy jarayonlarda keys -stadi texnologiyasi qo'llashda yuqorida keltirib o'tilgan manbalardan bittasi asosiy o'rini egalaydi. Bitta vaziyatda uchta manbadan foydalanilsa ham bittasi baribir asosiy o'ringa chiqib oladi. Bu holatda keysning asosiy manbalaridan foydalanilishida, ularning ahamiyatini esdan chiqarmaslik kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda keys-stadi texnologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi: Amaliy keyslar (real xayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi); ta'lim -tarbiyaga yo'naltiruvchi keyslar (asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish

hisoblanadi); ilmiy-izlanish keyslari (ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan). [21,14b]

Amaliy keysni asosiy maqsadi: hayotiy muammoli vaziyatlarni to'liq, izchillikda, navbatma-navbat ifodalashdir. Bu kabi keyslar eng yuqori darajada tuzilgan va ko'rgazmali vositalarga boy bo'lishi kerak. Amaliy keysning asosiy vazifasi hayotni bilishga, shaxs hayotida uchraydigan muammolarga nisbatan oldindan yechim topishga o'rgatishdir. Amaliy keys vaziyatning asosiy harakatlantiruvchi modelidir. Ushbu keysning ta'lim sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat: bilimlarni mustahkamlash, vaziyatlarning yechimlarni ishlab chiqish va boshqalar

Ta'lim-tarbiya beruvchi keyslar: Har bir key ta'lim-tarbiya beruvchi vazifasiga egadir. Ta'lim-tarbiya beruvchi keyslar quyidagi asosiy vazifalarni ifodalaydi.

Birinchidan, bunday keyslar ta'lim-tarbiya jarayonidagi turli-xil muammolarni o'zida jamlaydi, ya'ni ya'ni mutaxassislarning o'z faoliyatida duch kelgan muammolar aks etadi;

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya beruvchi keyslarda birinchi o'rinda o'quv jarayoni turadi. Bu kabi keyslardagi vaziyatlar o'quv jarayonlarda yuzaga keladigan muammolar, munosabatlar asosida tuziladi. Vaziyatlarni tuzishda aynan shu muammo emas, balki ularga o'xshash maketlaridan foydalaniladi.

Ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanuvchanlik keyslar: asosiy mazmuni, ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanuvchanlik ishlarida namoyon bo'ladi. Tahlil qilayotgan vaziyatlar asosida yangi ilmiy-ijodiy g'oyalarni ishlab chiqish keys oldida turgan asosiy maqsadlardan biridir. Bu turdagi keyslarni barcha o'quv guruhlarida qo'llab bo'lmaydi va ular ilmiy-tadqiqot tamoyili moduli asosida tizimlashtiriladi. Shuning uchun ham bu kabi keyslarni o'quv uslubi sifatida emas, oliy va kasbiy ta'lim mutaxassislari ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida qo'llash to'g'ri keladi. [21,15 b]

Keysning yuqorida belgilab o'tilgan manbalari boshlang'ich yoki fundamental manbalar hisoblanadi. Keyslarni shakllantirishda ikkinchi darajali manbalar ham mavjuddir. [21,17 b]

Keys-stadi texnologiyasida muammoli vaziyatlarni yaratishda qo'shimcha manbalar bu adabiyotlardir, ya'ni barcha keyslarning zahiraviy manbasi u foydalangan adabiyotlari hisoblanadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Badiiy, ommaviy (publistik) adabiyotlar. Turli hil muammoli vaziyatlarni ifodalashda, ijtimoiy-gummanitar fanlarga tegishli ma'lumotlarni keltirish, ommaviy (publistik) adabiyotlardan foydalanish, jarayoni ma'lum darajada dolzarblashtiradi va keyslarga nisbatan qiziqishni talabalarda kuchaytiradi. Badiiy adabiyotlardan foydalanishning o'ziga xosliklaridan biri bu muallifning iqtidori va asarlarining go'zalligi yordamida keyslarni yanada mazmundor bo'lishi ta'minlashdir. Publistik maqola xos aniqlik keysni tizimlashtirishda yordam beradi. Badiiy, ommaviy (publistik) adabiyotlardan foydalanish keys tarkibini estetik jihatdan bezaydi, talaba faoliyati ijtimoriy hayot bilan bog'laydi va ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiradi.

2. Hayotiy voqealarni keyslarda shakllantirish tahlil qilish jarayoning qiziqarli bo'lib o'tishiga olib keladi. P. Sherement va G. Kanishenkolarning ta'kidlashicha turli kompaniyalar faoliyati to'g'risida tuzilgan keyslar talabalarda katta qiziqish uyg'otadi. Agarda talabalar ichida o'qishni tamomlagandan keyin ma'lum korxona, tashkilotlarda ishlashni rejalashtirgan talabalar bo'lsa, o'sha kompaniya, tashkilotlar faoliyati haqida keys tuzish maqsadga muvofiqdir. Yoki masalan "SAMSUNG" firmasi faoliyati to'g'risida tuzilgan keys o'z uyida ushbu kompaniyada ishlab chiqarilgan maxsulot (texnika) mavjud bo'lgan talabalarning qiziqishiga sabab bo'ladi. [21,18b] Yana bir misol, mamlakatimizda futbolni rivojlantirish haqida tuzilgan keys futbolga qiziquvchilar orasida iliq kutib olinadi. Agarda keyslar talabalarning qiziqishlaridan kelib chiqmagan holda tuzilsa uning mazmuni tushunarsiz

bo‘ladi, talabani fikrlashga undamaydi. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki keyslarda real voqealik aks etsagina talabalar ongiga tez va oson yetib boradi.

Bir so‘z bilan aytganda keysdagi vaziyatlar mavjud holatlar asosida tuziladi, ya’ni keysdagi holatlar imkon qadar atrofda sodir bo‘layotgan muammolar asosida vujudga keladi. Qanchalik kundalik turmushdan uzoqlashilsa keys samaradorligi shuncha kamayadi. Real voqealik va kundalik turmushdagi vaziyatlarni o‘z ichiga olgan, ya’ni asos qilib olgan keyslardan foydalanish o‘qituvchiga ham engilik tug‘diradi. Shuningdek bunday keyslarda vaziyatda ko‘rsatilgan kompaniya, tashkilot, ta’lim muasasalari, ijodiyot markazlari a’zolari yoki keys qahramonlari bevosita ishtirok qilishi mumkin.

3. Keysni ilmiylik va ko‘rgazmali vositalar bezaydi. Keysni tuzishda uning har bir qismiga e’tibor berish kerak. Keysning tarkibida ko‘rgazmali vositalar, ilovalar, statistik ma’lumotlar kabi manbalarning aks etishi uning mukammaligini belgilab beradi.

4. Keysni tuzishda ilmiy manbalar, ilmiy maqolalar, ilmiy risollar foydalanish lozim, bu o‘z-o‘zidan keysda ilmiy manbalarning bo‘lishini talab qiladi. Keyslarni ishlab chiqish davomida ilmiy adabiyotlardan foydalanish unga katta talabchanlik va aniqlikni kiritadi, keysning ilmiyligini belgilab beradi.

5. Keyslar uchun to‘ldiruvchi manba sifatida internet va uning resuslari kiritilgan. Internet o‘zining keng doiradaligi, o‘zgaruvchanligiva tezkorligi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham keys tarkibida internet asosiy o‘rida turadi.

Xulosa

Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o‘quv guruh o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy–ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek texnologiya talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalarini hamkorlikda qo‘llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o‘rgatuvchi ta’lim texnologiyasidir.

Birinchi bobda keys-stadi texnologiyasining vujudga kelish tarixi to'laqlonli ochib berilgan. Shuningdek keys-stadi texnologiyasining vujudga kelishida Suqrot maktabining ahamiyati kattaligi ko'rsatilib o'tilgan.

Umuman olganda keys-stadi texnologiyasi texnologiyasi ilk marotaba 1870 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanila boshlangan. "Muammo" (situatsiya) atamasiga keladigan bo'lsak, ushbu so'z ko'proq tibbiyot va huquqshunoslik sohalarida qo'llanilib kelingan, ta'lim tizimida bu so'z yangicha talqin qilinadi.

Keys-stadi texnologiyasi asosan iqtisod fanlarini o'qitishda qo'llanilib kelingan. Amaliy iqtisodiy masalalarni yechishda qo'llaniluvchi bu texnologiya keyinchalik barcha sohalarida foydalanilib borilgan. Shuningdek hozirda dunyo bo'yicha maxsus keyslar ishlab chiquvchi Garvard biznes maktabi, Virjiniya universitetining Darden maktabi, Michigan universitetidagi Ross biznes maktabi, Richard Ivey biznes maktabi, Osiyo menejment instituti, Hindiston menejment instituti, Ahmedobod va Kong universitetidagi Osiyo keys tadqiqot markazlari mavjud.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida shuningdek keyslarning o'rganilish manbalari, turlari ham tahlil qilingan. Keys-stadi texnologiyasining tarixi va nazariy ahamiyati to'liq ochib berilgan.

Keys-stadi texnologiyasi hozirgi kunda o'zining innovatsion texnologiya sifatida ta'lim tizimida samarali qo'llanilib kelinmoqda. Aynan birinchi bobning ikkinchi rejasida texnologiyani qo'llashning maqsad va vazifalari tahlil qilingan.

II BOB. Keys-stadi texnologiyasining ta'limiy imkoniyatlari

1. Keys-stadi texnologiyasining o'quv didaktik vazifalari

Keys-stadi texnologiyasi nazariy bilimlarni amaliy vazifalarda hal qilishga yo'naltirilgan tizimdir. Bu texnologiya talabalarni mustaqil fiklash, tinglay bilish ko'nikmasi va fikriga mos nuqtai nazarlarni hisobga olish hamda o'z fikrini aniq manbalarga asoslagan holda ifodalab bilishga o'rgatadi. Bu uslub asosida talabalar bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ko'rsatmalar asosida ishlashga, qo'yilgan masalani hal qilishda foydali jihatlarini topishga o'rganadilar. [27,24b]

Keys –stadi texnologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Muayyan fanlar yuzasidan bilimlarni egallash davomida muammoli vaziyatning yechimi bir javobga ega emasligi bilan ajralib turadi. Muammoning yechimini topishda bir qator muqobil variantlarni topishni talab qilinadi.

Bunda o'quv jarayonining vazifasi ma'lum bo'lib qolgan an'anaviy tizimdan chetga chiqish va bitta aniq qarorni qabul qilmasdan mantiqiy fikrlagan holda turli-xil javoblar variatini topish bilan ifodalanadi.

2. Ta'limning maqsadi tayyor bilimlarni egallashga emas, balki mustaqil o'rganishga, talaba bilan o'qituvchini hamkorligini ta'minlashga qaratilgan.

3. Keys -stadi texnologiyasi orqali nafaqat bilim olinadi, balki kasbiy ko'nikma va malakalar ham egalaniladi.

4. Ushbu jarayonda hayotda sodir bo'ladigna voqealar asosida modul ishlab chiqiladi. Muammoni hal qilish davomida o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

5. Texnologiyasining mohiyati nafaqat bilim egallash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, hayotiy vaziyatlarni o'rganish, olingan bilimlarni tadbiq qilishdan iboratdir.

6. Keys- stadi texnologiyasida an'anaviy ta'limdagi kamchiliklar bartaraf qilinadi, yani quruq izohlashlar o'rnini, ijodiy tortishuvlar egalaydi, dars jarayonini xuddi teatr tomashasini eslatadi.

Keys-stadi texnologiyasi ta'limda interfaol uslub bo'lib talabalarda darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, nazariy materiallarni amaliy tadbiq qilishni ko'zlaydi, ta'lim jarayoniga nisbatan ijodiy motivlarni shakllantiradi. Shu bilan birgalikda bu uslub o'qituvchi siymosini yangicha talqin qiladi, uni ijodiy izlanishga, fikrlashga yangilik yaratishga undaydi.

Har bir o'quv jarayonida qo'laniladigan keys quyidagi talablarga javob berishi zarur.

- ijro qilishda maqsadning aniqligi;
- vaziyatning yechimlari mantiqiy o'ziga xos murakkab bo'lishi;
- vaziyatda hayotning bir qancha qirralarini tasvirlash;
- bugungi kunga nisbatan dolzarb bo'lishi;
- tipik vaziyatlarni tasvirlash;
- analitik (analiz-sintez...) hayolni rivojlantirish;
- munozarani tashkil qilish;
- bir qancha yechimlarning mavjudligi;

Ta'limda keys-stadi texnologiyasi mohiyati: mutaxassis o'z tajribasidan kelib chiqib o'z varianlarini yaratishida, o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni, amaliy, ijodiy, munozarali faoliyatga aylantira olishida ifodalaniladi.

Keys-stadi texnologiyasining o'ziga xos texnologik xususiyatlari mavjud bo'lib ular orqali texnologiya boshqa uslublardan farq qiladi.

Keys-stadi texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning mavjudligi moduli, ularda aks etgan holat ma'lum bir vaqt jarayonida ifodalanishi;
2. Jamoa asosida qarorlarni ishlab chiqishi;

3. Muammo yechimida ko'p o'xshashliklar bo'lib, aniq qa'tiy yechimini mavjud emasligi;

4. Bilim faoliyatini baholashda guruh tizimida yondashishni mavjudligi;

5. Ta'lim oluvchilarning emotsional holatlarini e'tiborga olinishi;

Keys-stadi texnologiyasi quyidagi vazifalarni o'zida jamlaydi.

1. Uslub izlanuvchanlik, analitik texnologiyalarga ega bo'lib, jarayon ichida izlanuvchanlik va analitik (o'xshashlik) operatsiyalar yo'nalishini boshqaradi.

2. Keys –stadi ta'limda jamoa texnologiyasi sifatida qo'llanilib, asosiy vazifasi guruhda axborotlarning almashuvini amalga oshiradi.

3. Keys-stadi texnologiyasining mazmuni guruhni o'zora birlashtirish, bilimlarni ijodiy fikrlash orqali yuzaga chiqarish kabi vazifalarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

4. Keys-stadi texnologiyasi o'zida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasini birlashtirib, yakka tartibda, guruh va jamoa rivojlanishlarini inobatga olib ta'lim oluvchilarni ilmiy –ijodiy, shahsiy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

5. Keys-stadi uslubini qo'llashda uni loyhalashtirish muhimdir, har qanday texnologiyani dars jarayonida qo'llashdan oldin, uning texnologik xaritasi tuziladi. Oldindan rejalashtirilgan texnologik xaritada faoliyat maqsadlari, bosqichlari ko'rsatiladi. Loyhalashtirish jarayoni texnologiyani qo'llashda muhim bosqichdir, negaki oldindan rejalashtirilmagan jarayon o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni to'liq ifodalay olmaydi. Aynan bugungi kunda ta'lim jarayonini oldindan loyhalashtirish mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Loyhalashtirish orqali biz jarayoni oldindan bashorat qilish ko'nikmasini o'zimizda shakllantiramiz.

6. Keys –stadi texnologiyasi o'zida oldindan samarali faoliyatga erish yo'llarini rejalashtiradi, ma'lum bir yutuqlarga ega bo'lish jarayonini oldindan faraz qiladi. Bu jarayonda talabalar faoliyatini faollashtirish, ularni rag'batlantirish ham nazarda tutiladi.

Keys-stadi texnologiyasi asosiy vazifasi talabalarni analitik faoliyat bilan yechib bo'lmaydigan muammolarni tizimlashgan murakkab uslub bilan yechishga o'rgatishdir. Keys-stadi talabalarning analitik va kommunikativ imkoniyatlarini faollashtiradi va rivojlantiradi.

Keys-stadilarga 2 ta turli xil yondashuv mavjud:

1. Analitik yondashuv: keys-stadi nima sodir bo'lgan va nima sababdan sodir bo'lgan degan savollarga javob topish uchun ham o'rganiladi. Bunda muammolarni aniqlab, ularga yechim topish shart emas.

2. Muammoga qaratilgan uslub: keys-stadi mavjud bo'lgan asosiy muammolarni aniqlash va ularga yechim taklif qilish uchun tahlil qilinadi.

Keys –stadi muammoga nisbatan yechim talab qiladigan texnologiyadir. Keys- stadi yozishda birinchi esda tutish lozim bo'lgan narsa bu unining muammoga ega bo'lishidir. Keys- stadi texnologiyasini qo'llashda yetarlicha ma'lumotlar keltirilish o'rinlidir, bu uni o'rganuvchilar uchun juda muhimdir. Ma'lumotlarning ko'pligi vaziyatni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Qiziqarli keys-stadi yozish detektiv hikoya yozishga o'xshab ketadi, bu orqali talabalarni vaziyatga qiziqtirib, fikrlashga undash mumkin. [36, 35 b]

Mukammal tuzilgan keys- stadi bu faqatgina tavsiflashdan iborat bo'lmaydi. Keys-stadi bilan tanishayotganda talaba o'zini huddi keysning yozuvchisidek his qilib, sodir bo'layotgan voqealarni o'z boshidan o'takazayotgandek harakat qilishi kerak. Shundagina keys samarali faoliyatga aylana oladi. Keys tavsifida hamma ma'lumotlar yig'iladi, xulosalar qilinadi, o'quvchilarga vaziyat bilan tanishtiriladi va o'qituvchi bu jarayonda boshqaruvchi vazifasini boshqaradi.

Keysni tuzayayotgan paytdagi qanday qilib talabalarni qiziqishini ortirish mumkin, u qanday yozilsa talaba o'zini uning qahromonidek his qiladi, izlanadi va jarayonga bo'lgan munosabati oshadi.

Keys yozishda uchta asosiy bosqich mavjud: ma'lumot yig'ish, tahlil va yozish. Jarayon ma'lumot yig'ishdan boshlanadi, yakunlash bosqichiga yetib borganda ham yana orqaga qaytib ko'proq ma'lumot yig'iladi.

Tadqiqot bosqichi:

1. Kutubxona va internet ma'lumotlari. Mavzu borasida oldin yozilgan ma'lumotlarni toping va keysingiz to'grisidagi muhim maqolalarni o'qing. Shu jarayonni amalga oshirsangiz, yechim talab qiladigan muammoning javobiga duch kelishingiz yoki siz shunaqa qiziqarli g'oyalarni o'zingizni keys tuzilmangizda qo'llashingiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak, sizning keysingiz innovatsion pedagogik texnologiyalarni dars jarayonlarida qo'llash mavzusida bo'lsa, siz shu mavzu asosida ma'lumotlar yig'asiz, afzaliklari, kamchiliklarni tahlil qilasiz. Birinchi navbatda dars jarayonlarini kuzatasiz, mavjud iqlimni o'rganasiz, anketa, so'rovnoma metodlaridan foydalanib talabalarning darsga bo'lgan munosabatini tahlil qilasiz. Shundagina sizning keysingiz mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni yig'iladi. Ma'lumotlarni o'rganish jarayonida shu soha vakillari bilan ham suhbatlar olib boriladi, ularning mulohazalarini ham keysda aks etadi, shuningdek siz tuzayotgan keys o'zining aniqligi dolzarbligi bilan ajralib turishi kerak, shundagina uning o'quvchisida keskin, bahslashishga sabab bo'luvchi fikrlar paydo bo'ladi.

2. Yana bir misol ta'lim sohasida doimo yuzaga keluvchi bir muammo mavjud. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchiliklar, buni yo'qotish yoki oldini olish har bir davrda ta'lim oldida turgan muammo bo'lgan, bo'lip keliyapti. Hamisha ikki savol tug'iladi, yomon o'qituvchilar bo'ladimi yoki yomon o'quvchilarmi? Bu kabi muammolarni yechishda o'qituvchi faoliyatini, uning shaxsiy-kasbiy kasb malakalarini o'rganishdan boshlash kerak, shuningdek o'quvchining shaxs sifatida shakllanish bosqichlarini tahlil qilish lozim. Bu holatlarning yakuni keysning mukammal tuzilmasiga olib boradi

3. Keys vaziyatidagi holatlarga duch kelgan o'qituvchi, o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish.

Keysdagi vaziyat holatlaridan kelib chiqib, jarayoni o'rganish maqsadida biror bir ta'lim muassasi tanlab olinadi va shu yerdagi o'qituvchi, o'quvchi o'rtasidagi pedagogik munosabatlar o'rganiladi. O'rganish uchun asosiy vosita sifatida so'rovnomalardan foydalanish mumkin. So'rovnomalalar o'qituvchi va o'quvchilarga alohida tayyorlanadi. (1-ilova)

So'rovnomalarning javoblari keys uchun asosiy ma'lumot bazasi bo'ladi, bu orqali o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining sabablarini tahlil qilish mumkin. [20, 40 b]

Tahlil bosqichi.

1. Hamma ma'lumotlarni bitta joyga yig'ish. Tahlilning bu bosqichida barcha ma'lumotlar yig'iladi, ya'ni so'rovnoma javoblari, mavzuga tegishli maqolalar, kitoblar va h.k Ularda keltirilgan ma'lumotlarning vaziyatga tegishlilari tanlab olinadi. Ma'lumotlar asosida keysdagi vaziyat tuziladi, uning talabalar uchun tushunarli, qiziqarli bo'lishi undagi ma'lumotlarning aniqligiga bog'liq bo'ladi.

2. Materialni har hil odamlarga bo'lib berish. Har bir talaba yoki guruh nima haqiqatdan ham muhimligini, nima bo'layotganini va keysni o'rganuvchi uni tushunish uchun nimalarni bilishlari shartligini aniqlab olishi kerak. Masalan, o'qituvchi va o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni bitta jadvalga kirgizish mumkin.

3. Keys muammosining xulosasini shakllantirish. Bu jarayon amalga oshirishda, ko'proq ma'lumot talab qilinadi. Muammoni shakllantirib bo'lganingizdan so'ng, siz talabalarni muammo tog'risida fikrlashlarini, uni qismlarga bo'lib o'rganishlarini rejalashtirasiz. Har bir qism jumboqning bir bo'lagi bo'lib, ularni har biri muhokamani talab qiladi.

Keys–stadi uslubi talabalarda quyidagi ko'nikma, malakalarni rivojlantiradi:

- muammoli ta'lim tamoyillaridan foydalanishni, vaziyatni yechish malakasini egallashni, muammoni yechish jarayonida guruh bilan hamkorlikda ishlashni, o'z fikrini asoslab berishni;
- jamoada ishlash malakasini egallashni;
- taqdimot tayyorlash malakasini egallashni;
- jamiyatda sodir bo'layotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklaridan xabardor bo'lishni;

Keysni tahlil qilishga o'rgatishda talabalarga sabab va oqibat aks etgan tayyor keyslar umumiy tarzda beriladi. Bu orqali talabalar keys bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Talabalar tajribasida tahlil qilingan keyslarning ko'payib borishi, yangi vaziyatlarni hal qilinishida katta yordam beradi [19,28b].

Kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimida keys-stadi texnologiyasidan foydalanish o'quv jarayoni faollashtiradi, talabalarning bilim olish imkoniyatlari kengaytiradi.

Keys-stadi texnologiyasini qo'llashdan oldin, texnologiya metodik jihatdan tasdiqlangan bo'lishi, ta'lim dasturiga nisbatan umumlashgan, o'qituvchining ish rejasiga kiritilgan bo'lishi lozim. O'qituvchi ish rejasida o'quv fanlarining qaysi bo'lim, mavzularida keys-stadi uslubidan foydalanishi ko'rsatilib o'tilishi kerak. Bu masalalarni tahlil qilish metod birlashmalarning zimmasiga yuklanadi.

2. Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilish jarayoni va o'qituvchi faoliyatining ahamiyati.

Keys-stadi bu shaxslarni, guruhlarini, voqealarni qayta-qayta tahlil qilish, muhokama qilinayotgan muammoga bog'liq holda rivojlantiruvchi omillarni ta'kidlab berishdir. Keys-stadi ko'proq ijtimoiy fanlar tizimida ko'proq qo'llaniladi. Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltirilgan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan ma'lum bir vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir. Keys-stadi tasvirlash va

tushuntirish ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ikkinchi turi sabablarni o‘rganish orqali asos bo‘la oladigan prinsiplarni izlab topish uchun qo‘llaniladi.

Keys-stadi texnologiyasi talaba faoliyatini faollashtiruvchi, o‘quv jarayonini bahs-munozaralarga aylantiruvchi, bir so‘z bilan aytganda muammoli vaziyatlarga nisbatan yangi ijobiy yechimlarni tug‘ilishiga ko‘maklashuvchi ta‘lim texnologiyasidir. Bu texnologiya uzoq davrlar davomida shakllanib, bugungi ta‘lim tizimiga kirib keldi. Keys-stadi texnologiyasi ham boshqa ta‘lim texnologiyalari kabi bugungi ta‘lim tizimida o‘z o‘rniga egadir. Keys–stadi texnologiyasini qo‘llashda uni tashkil qilish bosqichlariga katta e‘tibor qaratish lozim. Negaki har qanday nazariy jihatdan puxta qurilgan texnologiyani, amaliy faoliyatda to‘g‘ri tashkil qilinmasa u o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

Keys-stadi texnologiyasini qo‘llashda ta‘lim maqsadlarni to‘g‘ri qo‘ya olish ustuvor masalardan biridir. Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilishda navbatdagi asosiy bosqichlarni ajratib berish maqsadga muvofiqdir.

1. Keysning didaktik maqsadini shakllantirish. Bu bosqichning tarkibida o‘quv fani ish rejasiga keys-stadi metodini kiritish, shu fanning bo‘limlarini, mavzularini aniqlash, texnologiyaga mos vaziyatlarni tashkil qilish, maqsad va vazifalarni shakllantirish kabilar kiradi.

2. Muommali vaziyatlarni aniqlash. O‘quv amaliy soat mavzularidadan kelib chiqib vaziyatlarni tanlab olish.

3. Keysning dastur xaritasini tuzish.(keys matn asosida ifodalanishi, yoki boshqa manbalarda aks etishi mumkin)Ya’ni tanlab olingan muammoli vaziyat asosida keysning qo‘llanish bosqichlarini texnologik xaritada aks etirish.

4. Muammoli vaziyatga tegishli manbalarni izlash, dasturlashgan xaritaning qisqacha mazmuni keltirish. Bu jarayonda tuzilgan keysning kelib chiqish manbalari, o‘rganilgan adabiyotlari, uning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilib o‘tiladi.

5. Keys modulini tanlash yoki tuzish. Bu jarayonda keys uchun ma’lum bir modul tanlab olinadi va shu asosda uning tuzilmasi tuziladi.

6. Keys turini tanlash. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib keysning qo'llanish turi aniqlanadi va shu orqali amaliy faoliyatda tadbiq qilinadi.

7. Keysda qo'llaniladigan matnini yozish. Keys matni yozishda o'rganilgan manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Matn qisqa yoki keng hajmda bo'lishi mumkin.

8. Keysning maqsadlarini to'g'riligini, ishlash samarasini eksperimentlar guruhi bilan birgalikda ko'rib chiqish. O'quv amaliy soatda qo'llash mumkin bo'lgan tayyor keysni oldindan sinovdan o'tkazish va samaradorligini oldindan bashorat qilish.

9. Keysni yakunlovchi xulosasini tayyorlash. Keysning yakuniy xulosasini tuzish, qo'llanilgan vaziyatning ma'qbul yechimlarini oldindan tuzib chiqish.

10. Keys uchun zarur qo'llanmalar tayyorlash, ularni o'quv mashg'ulotlarda qo'llash va nashr qildirish.

11. Keysdan foydalanish uchun uslubiy tavsiyalar tayyorlash, talabalar uchun o'quv vazifalarni oldindan ishlab chiqish, texnologiyani qo'llash uchun qulay sharoit yaratish.

Keys-stadi texnologiyasida qo'llaniladigan muammoli vaziyatlar talabada qiziqish uyg'otishi uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- qiziqarli, o'quvchilar uchun aniq va oddiy tilda yozilishi;
- ijobiy, namunaviy misollar bilan birgalikda salbiy ko'rsatkichlarning ifodalanishi;
- tanlangan talabalar kontingentini mavjud talabalar soniga mosligi, yechim uchun zarur bo'lgan axborotlar keltirilganligi;

Muammoli vaziyatlar modulini tuzish jarayonida muammoni aniqlash va guruhlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda keltirilgan vaziyat yechimi, murakkab va dolzarb mavzular asosida qurilgan bo'lishi zarurdir. [36, 54 b]

Keys-stadi texnologiyasidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda talabalarning quyidagilarga e'tiborli bo'lish, yechimni sari yo'l topishda yordam beradi.

- muammoli vaziyat talabidan kelib chiqib uni shakllanish bosqichlarini aniqlash;
- vaziyat aks etgan vaqt va zamon chegarasini aniqlash;
- muammoli vaziyat tasnifi, turini aniqlash;
- vaziyat yechimlarini orasidan ma'qbul variyatini tanlay olish;
- ma'lumotlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash;
- muammoni yechish texnologiyalarini tashkiliy bosqichlarini ishlab chiqish;
- muammoli vaziyatni yechimini guruh bilan birgalikda hal qilish;

Keys-stadi texnologiyasining asosiy tarkibi sabab va oqibatdir. Sabab texnologiyaning dastlabki qismi bo'lsa, oqibat uning yakunlovchi qismidir. Keysni tahlil qilish jarayonida sabab va oqibatni to'g'ri shakllantira olish asosiy o'rini egallaydi. Sabab va oqibat tahlili muammolarning kelib chiqish manbalarini o'rganishdan boshlanadi, ular hodisalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlaydi. Sabab va oqibat tahlili quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- muammoli vaziyatning ob'ektini va predmentini shakllantirish;
- vaziyatlarning sabab va oqibatlarini aniqlashda tayanch ilmiy-tadqiqot manbalarni bo'lishi;
- sabab va oqibat orasidagi bog'lanishlarni aniqlash;
- o'rganilayotgan muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish;

Muammoli vaziyatni yechimini topishda turli-xil tahlil qilish usullaridan foydalaniladi.

1. Pragmatik tahlil u yoki bu manbalarni, jarayonlarni, hodisalarni tahlil qilishda ko'proq ijobiy nuqtai-nazarlarda hisobga olishni nazarda tutadi. Pragmatik tahlilning asosiy tushunchasi ijobiy yechimlarni topish bilan baholanadi. Bu tahlil bir qancha boshqichlarda amalga oshiriladi.

- keysda keltirilgan manbalar, jarayonlar vazifalaridan kelib chiqqan holda fikrash;
- keyslarning mazmundorligini aniqlash;
- muammoli vaziyatni tahlil qilish, muvofaqqiyatsizliklarning sabablarini o'rganish;
- keyslarning ilmiy darajalarini, foydalanilayotgan adabiyotlar zahiralarini aniqlash;
- keyslarning ijobiy yechimlar bilan boyitish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

2. Aksiologik tahlil u yoki bu manba hodisalarini oldindan rejalashtirilgan maqsadlar asosida tahlil qilishni nazarda tutadi. Bunday tahlilning asosiy maqsadi jamiyatdagi hodisalarni tafovutlarni o'rganishdir. Aksiologik tahlil uslubi amaliy faoliyatda hozirgacha qo'llanilmagan.

3. Prognostik tahlil kelgusida sodir bo'luvchi muammoli vaziyatga xos yechimlarni bashorat qiladi. O'zining mazmuniga ko'ra bu tahlil oldindan bashorat qilish tahlili deyiladi. Bu tahlil qilinayotgan muammoli vaziyatlarning bo'g'usi jarayonini bilishga undaydi.

4. Keys–stadi uslubidan foydalanishda vaziyatga xos tahlil asosiy ahamiyatga egadir. Bu tahlilda muammoli vaziyatdan kelib chiqqan holda maqsad va vazifalar, yechimga olib boruvchi usullar belgilab olinadi.

5. Tavsiyalar beruvchi tahlil, bunda muammoli vaziyatga nisbat yechim emas tavsiyalar ishlab chiqiladi. Keltirilgan tavsiyalar orqali vaziyatdagi muammolar hal qilinadi.

Keys-stadi texnologiyasi bilan ishlash jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar:

- muammoli vaziyatni tizimlashtirishni amalga oshirish, ular tipologiyasi, tasnifi, natijasi, yechim yo'llarini aniqlash;
- texnologiyaning vazifasini, muammoli vaziyatni qurshab olgan tashqi va ichki muhit bilan hamkorlikdagi harakatlarini aniqlash;
- muammoli vaziyatning kelib chiqish, sabab-oqibatlarni o'rganish;

- muammoli vaziyatning faoliyat mazmunini oldindan tashxis qilish, ijobiy yechimlarni ishlab chiqish;
- muammoli vaziyatga xos prognostik tahlilni amalga oshirish ;
- muammoli vaziyatlarda keltirilgan shaxslarga nisbatan tavsiyalar ishlab chiqish;
- muammoli vaziyat faoliyatini aks etiruvchi dastur ishlab chiqish;

Keyslardagi muammoli vaziyatlarning yechimini topishda quyidagi bosqichlar tavsiya qilinadi:

Birinchi bosqich, vaziyat va uning tarkibiy qismi bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich, muammoni yuzaga keltiruvchi sabablar, manbalarni va muammoli vaziyat tarkibida qatnashgan shaxslarni ajratish;

Uchinchi bosqich, aqliy hujum metodini qo'llash uchun fiklarni yoki kichik mavzularni ajratish;

Tortinchi bosqich, u yoki bu qarorni qabul qilishda kelib chiquvchi natijalar tahlil qilib ko'rish;

Beshinchi bosqich, keysni yechimini yoki unga mos keluvchi bir qancha variyatlarni tahlil qilish;

Keys–stadi texnologiyasini ta'lim jarayonlarda qo'llash bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Keys-stadi texnologiyasi quyidagi bosqichlar orqali tashkil qilinadi;

- muammoli vaziyat bilan talabalarni tanishtirish;
- keysni tahlil qilish;
- keysda munozara jarayonini uyushtirish, taqdimot qilish;
- munozarada qatnashuvchilarni baholash;
- munozara yakunini tashkil qilish;

Talabalarni keys matni bilan tanishishi keysni tashkil qilishdan bir necha kun oldin amalga oshiriladi, bu talabalarning mustaqil ishi sifatida baholanadi. Bu jarayonda keysga tayyorlanish vaqti keysning hajmi, mukammaligiga qarab belgilanadi.

I. Kozinaning fikricha keys bilan ishlash jarayonida birinchi navbatda keysdagi bog'lovchi (kalit) muammoni topish kerak va keltirilgan muammolardan yechish uchun zarur bo'lganlari qaysi ekanligini bilish zarur, keysda vaziyatni yuzaga keltiruvchi sababni topish, uni asosiy harakatlantiruvchi kim va nima ekanligini aniqlash, fakt va tushunchalarni tanlab olish, vazifalarni yechishda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishini oldindan anglash keysni yechimi tomon harakatlantiradi. [30,46 b]

Keysni tashkil qilishdan oldin talabalarni texnologiya mohiyati bilan tanishtirish, keys bilan ishlashda nimalarga e'tibor berish kerakligini eslatib o'tish, faolliyatni to'g'ri tashkil qilishda yordam beradi. Quyidagi eslatmalarni talabalarga havola qilinadi.

1. O'quv fanning ma'lum bo'limiga tegishli ma'lumotlarni qayd qilib oling, bilimlar zahirasi yig'ilgan xotira blokini oching. Ular siz uchun keysni tahlilida zarur bo'ladi.

2. Keysni tezlik bilan o'qib chiqing, bu keys haqida umumiy tasavvurlarni beradi.

3. Keysga talluqli savollarni diqqat bilan o'qib chiqing va siz keysni yaxshi tushunganingiz haqida o'zingizda ishonch hosil qiling, hamda sizdan nima so'ralsa bajaring.

4. Keys mantini yana bitta boshidan o'qing, diqqat bilan taklif qilingan savollarga tegishli ma'lumotlarni yoki muammolarni yozib boring.

5. Muammoli vaziyatga qaysi g'oyava konsepsiyalar mos kelishini tahlil qilib ko'ring. Muammoga mos keluvchi g'oyalar blokini hosil qilib, o'zingiz uchun zarurlarini tanlang.

Keysni tashkil qilishda talabalarda muammoga nisbat qiziqishni oshirish, munozarali bahslarni tashkil qilish asosiy o'rini egallaydi. Keys tarkibidagi savollar oldindan tayyorlanadi va talabalarga keys bilan birgalikda taqdim qilinadi.

Rossiyalik pedagog A.Dolgurukovning fikricha keyslarni tahlilini tashkil qilish ikkita usulga asoslanadi. Ulardan birinchisi an'anaviy Garvard usulbi bo'lib ochiq munozaradan iboratdir. Alterpatiya o'xshash uslub esa yakka yoki guruh asosida savol-javob bilan bog'liq bo'lib, uni davomida talabalar vaziyat haqida yuzaki ravishda og'zaki tanishadilar, keltirilgan keysga o'z tahlillarini, qarorlarini taqdim qiladilar, ya'ni taqdimot tashkil qiladilar. [21,20b] Bu uslub o'qituvchi nazoratini engillashtiradi, talabalarning harakatlarini susaytiradi, ya'ni talaba mashg'ulot davomida bir ikki marta savol-javobga jalb qilinadi. Bu uslub talabalarning kommunikativ imkoniyatlarini oshiradi, o'z fikrlarini aniq izohlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ammo bu uslub Garvard uslubiga nisbatan kengroqligi va rivojlantiruvchi bo'lishiga qaramasdan, munozarani tashkil qilish va qatnashuvchilarni nazorat qilishda qiyinchilik tug'diradi.

Keys-stadi uslubida munozara jarayoni asosiy o'rini egallaydi. Uning maqsadi talabani biror bir mavzuga yo'naltirish, rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, o'z fikrlarini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Munozarani tashkil qilishda o'qituvchi faoliyati asosiy o'rini egallaydi.

Keysni tahlili davomida munozara jarayoniga alohida o'rin ajratiladi, bu vaziyatda "aqliy hujum" metodidan foydalaniladi.

"Aqliy hujum" metodi o'tgan asrning 30–yillarida A.Osborn tomonidan muammoni yechishda jamoa bo'lib harakat qilish metodi deb taklif qilingan edi. XX asrning oxirida bu uslub boshqararish amaliyotida ommalashib katta muvofaqiyatga ega bo'ldi va ta'limda nafaqat mustaqil metod sifatida balki muvofaqiyatga erishish yo'li sifatida o'quv faoliyatiga kiritildi. [34,83 b]

"Aqliy hujum" metodini qo'llashda quyidagilar talab qilinadi:

- o'quvchilarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
- g'oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish;
- muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

- qo'g'oz varaqlari g'oya (yoki fikr) lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish;
- boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarni bildirishga yo'l qo'ymaslik;
- yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammolarning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik;

Dars jarayonida "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda O'.Q. Tolipov, M.U.Usmonboevalar tomonidan keltirilgan qoidalarga amal qilish o'quv samaradorligini oshiradi.

1. O'quvchilarni muammo doirasidan keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarini bildirishga erishish.

2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi, fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. G'oyalarning rag'batlantirilib borishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib kelinadi.

3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zlashtirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zlashtirish ilmiy asoslangan g'oyalarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faoliyatini qa'tiy talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, o'quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir. [41,156b]

Keys-stadi usulida vaziyatlarni hal qilishda qiyinchiliklar paydo bo'lganida "aqliy hujum" uslubidan foydalanib talabalar faolligini ta'minlash mumkin. Bu vaziyatda aqliy hujum yangi yechimlarni topish vositasi sifatida emas, balki yangi fikrlarni tug'ilishini yuzaga keltiruvchi manba sifatida foydalaniladi.

Keys-stadi texnologiyasida “Aqliy hujum” metodini qo‘llash jarayoni yanada jadallashtiradi.

Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilishda, uning taqdimot qoidalariga amal qilish ham maqsadga muvofiqdir. Keysni tashkil qilishda uni qanday usullarda taqdim qilish kerak degan savol tug‘iladi. Qaysi usullar orqali talabalarga keys taqdim qilinsa talabada qiziqish paydo bo‘ladi?

Intellectual (aqliy) manbani ommaviy taqdim qilish ko‘nikmasini egallash, tavsiya qilish, muvofaqqiyatini ko‘rsatish yoki ijobiy foydalanishga yo‘naltirish mumkinligi asoslab berish bugungi kun mutaxassisi eng zarur bo‘lgan sifatlardan hisoblanadi. [41,158b]

Taqdimot shaxsni ko‘pgina ijobiy sifatlarni charxlaydi: iroda, ishonch, muloqatchanlik, muvofaqqiyatga erisha olish ko‘nikmasini va boshqalar.

Ommaviy (og‘zaki) taqdimot keysni guruhda muammmoni yechish imkoniyatini tug‘diradi, u umumiy faoliyatni yuqori darajada ishlab chiqish ko‘nikmasini va munozarada qatnashish imkoniyatini yaratadi. O‘g‘zaki taqdimot talabalarda qisqa muddatli ta’sir qilish xususiyatiga ega, shuni uchun ham idrok qilish va esda saqlash qiyin kechadi. So‘zga chiquvchini tayyorgarligi munozarani tashkil qilishda gavdalaniladi.

O‘g‘zaki taqdimot davrida so‘zga chiquvchini emotsional holatini hisobga olish zarur; so‘zga chuquvchini munosabat va emotsiyasi uning nutqida alohida ahamiyat kasb etadi.

Keys-stadini tashkil qilishda yuqoridagilarda keltirilganlardan tashqari, talaba faoliyatini baholash alohida ahamiyat ega. Chunki tashkil qilingan har bir faoliyat o‘zida fasilitatsiya metodini, ya’ni o‘quvchi bilimi va harakatini baholashni ko‘zda tutishi lozim. Rag‘batlantirish to‘g‘ri olib borilmasa faoliyat ijobiy natija bermaydi. Keys-stadi uslubida talabalarni baholash didaktik tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladi.[36, 28b]

Keys-stadi uslubini baholashda an’anaviy tizimga xos 5 ballik tizim unchalik samara bermaydi, bu jarayonda, jahon miqyosida tan olingan 100 ballik

tizimdan foydalanish ko'proq samara beradi. Ya'ni bu tizim orqali talabaning barcha faoliyatlarini to'liq baholash mumkin.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda talabalarni baholashda turlicha yondashish, uslublardan foydalanish mumkin. Bu jarayonda talabaning nazariy bilimlaridan ko'ra amaliy bilimlari baholanadi, ya'ni bildirayotgan fikrlarning yangiligi, mantiqiyligi asosiy o'rini tashkil qiladi. Talabalarning vaziyatga nisbatan o'zgacha yondasha olishi, o'z fikrini himoya qilaolishi, jamoa birdamligini saqlay olishi baholash jarayonida alohida e'tiborga olinadi.

Talabalarni baholashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- baholashda talabaning munozaraga tayyorligini, uning o'ziga bo'lgan ishonchi, dadiligini ham e'tiborga olish kerak;
- vaziyatga chuqur kirisha olishi, savollarga diqqatini qarata olishi qobiliyatlarini shakllanganligiga;
- vaziyatni yechishda aniq nuqtani topishi, to'g'ri qarorni qabul qilishi mazmunan yondasha olishi;
- mantiqan fikrlay olishini ko'rsata olishi, fikrlarini bayon qila olishi, to'g'ri xulosalarga kela olishi;
- zarur qismlarni ajrata olishi, ularni keys tahlilida qo'llay olishi;
- tahlilni xulosalay olishi;

Keys-stadi texnologiyasida talabani baholashda quyidagi shakllardan foydalaniladi.

Birinchi variantda, talaba bilimi fanlarni o'zlashtirishiga qarab qo'yiladi, keys-stadi texnologiyasini qo'llash jarayonida olingan bahosi, fanni o'zlashtirish bahosiga qo'shib qo'yiladi, ya'ni umumiy holda baho qo'yiladi.

Ikkinchi variantda talabalarning bilimlarni baholashda keys-stadi texnologiyasi boshqa usullardan foydalanadi, ya'ni baholash jarayoniga og'zaki yoki yozma imtixon, test kabi baholash usularini kiritadi.

Uchinchi variantda texnologiya baholash jarayonida barcha usullardan keng foydalanadi.

Keys-stadi uslubidan barcha baho turlaridan foydalanish mumkin bo'lib ular joriy, oraliq, yakuniy baholardan baholardan iboratdir.

Joriy baho keys tahlili jarayonida boshqarishga yordam beradi, oraliq baho talabani keysni to'g'ri yo'lidan borishini belgilab beradi, yakuniy baholash talabalarni fanlar yuzasidan olingan bilimning mustahkamligini, xulosaning to'g'riligini belgilaydi.

Guruh faoliyatini baholashda ularning o'zaro birdamligi, munozarani to'g'ri tashkil qilaolishi e'tiborga olinadi.

Baholashda jarayonida talabaning ijodiy yondashishida: talabaning nafaqat keysni tahlil qiliolishi, qoidani tushunishi, balkim uning tizimini tushuna olishi, keys bilan ishlaganida uni har tomonlama tushunchalarga ega bo'lishi ham inobatga olish kerak. O'qituvchi talabani baholashda, uning tarbiyaviy jihatlariga e'tibor berishi kerak, chunki ta'lim-tarbiya bir-biriga juda yaqin uzluksiz jarayondir. Baholashda talabaning tarbiyaviy jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. [34,45 b]

Keys-stadi texnologiyasida o'qituvchi roli an'anaviy uslubga nisbatan biroz kattadir. Keys-stadi texnologiyasida o'qituvchi fikriy tortishuvni, munozarani tashkil qiladi, talabalarni fikrlarini tasdiqlash orqali ularni jarayonga moslashtiradi. [36,56 b]

O'quv jarayonini samarali o'tishida o'qituvchi yetarli darajada emotsional his-tuyg'uga boy bo'lishi, guruhdagi kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymasligi, hamkorlik uslublarini qo'llashi, talaba shaxsini hurmat qilishi kerak. [38,36 b]

O'qituvchi faoliyatining samarasi, o'zining mashg'ulotida ya'ni, keys-stadi texnologiyasidan qo'llashda birqator tamoyillardan foydalanishda ko'rinadi.

1. Didaktik manbalarining rang-barangligi va ilmiylik tamoyili, bu tamoyil o'qituvchining didaktik jarayonlardan xabardor bo'lishni, uning uslub-vositalarni bilishni, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni nazarda tutadi.

2. Hamkorlik tamoyili, ta'limni egallash jarayonida talabalar bilan birgalikda faoliyat qilish, vaziyatni jamoa bilan tahlil qilish orqali belgilanadi.

3. O'qituvchining pedagogik yangiliklardan xabardor bo'lishi, ham-kasblari bilan tajribalar almashishi, talabalarni maqsadlar sari yo'naltira olishida katta ahamiyatga ega.

4. Ijodiyot tamoyili, keys-stadi texnologiyasi ijodiy, yangicha fikrlashni talab qiladi. Keys tuzishdagi eng zarur faoliyat ta'lim jarayonini loyhalashtirish, uni o'qitish texnologiyalarda mustahkamlash, talabalarni ijodiy fikrlashga yo'naltirishdan iborat.

5. Pragmatik tamoyil, u yoki bu keysni imkoniyatlarini aniq ifodalashga qaratib mo'jallantiruvchi tamoyil hisoblanib talabalarda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Keys-stadi uslubidan foydalanishda o'qituvchini faoliyati ikkita fazani (davrni) o'z ichiga oladi.

Birinchi faza (davr) keysni tahlili uchun kerak bo'lgan savollarini tuzish o'qituvchining auditoriyadan tashqari ijodiy faoliyatni ifodalaydi, u jarayonda o'qituvchi jarayoni loyhalovchisi rollini bajaradi. [21,21b] U oldindan jarayoni tashkil qilish uchun tayyorlanadi, mashg'ulotni o'tkazish uchun kerak bo'lgan ko'rgazmali, texnik vositalar bilan o'quv xonasini qurollantiradi. Jarayoni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni oldindan tayyorlash bilan shug'ullanadi.

Ikkinchi faza (davr) o'zida keysni tahlil qilish davomida o'qituvchini auditoriyadagi faoliyatni nazarda tutadi, bu yerda o'qituvchi kirish va yakunlash so'zlari bilan chiqadi, munozara yoki taqdimotni tashkil qiladi, auditoriyada ishchanlik kayfiyatini uyg'otadi va bu holatni jarayon oxirigacha saqlashga harakat qiladi, talabalarning bilim va qobiliyatlardan kelib chiqib ularni baholaydi. [21,22b]

Keysni tahlilida samarali yo'llarini axtarishda ko'proq aniq ma'lumotlarga e'tibor berish kerak. Mashg'ulotlarni boshlanishi (munozara yoki taqdimot namoyishi) bu aniq bir jarayon bo'lib, bunda vaziyatni to'liq holda o'qituvchi

qo‘llida bo‘ladi. Keys tahlilida talabaning umumiy vaziyatga, qiziqishi, ko‘tarinkilik bilan yondashishi, jarayonga yo‘nalishi asosiy o‘rini egallaydi.

O‘quv maqsadlari samarali bajarilishi uchun tahlil jarayonida har tomonlama tayyorlangan bo‘lishi kerak, bu jarayon tizimlashgan, vaqt bo‘yicha reglametlashgan va nazorat qilingan bo‘lishi kerak.

Munozara asosan o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiruvchi savollarni qo‘yishdan boshlanadi. Savollar oldidan tayyorlangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi qo‘yilgan savollarga auditoriyani reaksiyasini seza bilishga harakat qilishi kerak, bu jarayonda ta‘lim maqsadlariga erishishga yo‘naltirishni nazarda tutiladi.

Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilishda o‘qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Mashg‘ulot boshlanishida talabalarga “Keys-stadi” texnologiyasining mohiyati, ta‘limiy imkoniyatlari va kutilayotgan natijalari haqida batafsil tushuntiradi. Buning natijasida talabalar mashg‘ulotda ongli va faol qatnashadilar, o‘zlarining kasbiy rivojlanishlariga befarq qolmaydilar.

2. Kichik jamoalarga o‘rgatish uchun turlicha yoki bir xil mazmunga ega bo‘lgan vaziyatlarning yozma matnlari tarqatiladi. Lekin ushbu vaziyatlarni bitta umumiy mavzu birlashtiradi.

3. Vaziyatlar bayon qilingan matnlar turli grammatik xatoliklardan, mantiqiy chalkashliklardan holi bo‘lishiga va voqea-hodisalar rivoji aniq ifodalanishiga e‘tibor qaratadi. Aks holda talabalar xato xulosalar chiqarishlari mumkin.

4. Tahlil qilinishi kutilayotgan vaziyatlar bevosita talabalarning bo‘lg‘usi mehnat faoliyati mazmuni bilan bo‘g‘liq bo‘lishi kerak.

5. Talabalarga vaziyatlar tahlili bo‘yicha topshiriqlar aniq beriladi. Shuningdek, vaziyat tahlilida nimalarga e‘tibor qaratilishi lozimligi aytiladi. Bu esa vaziyatdagi asosiy muammoni aniqlash imkonini beradi.

6. Talabalar tahliliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish uchun ularga yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat qilinadi.

7. Har bir talabaning mashg'ulotda faol qatnashishi e'tiborga olinadi, ular faoliyati kuzatib boriladi.

8. Zarur paytlarda talabalar o'qituvchidan maslahat olishlari mumkin. Lekin oxirgi xulosalarni talabalarning o'zlari chiqarishlari shart. [23, 28 b]

Xulosa

Keys-stadi texnologiyasi dars jarayonini, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangicha ruh bag'ishlovchi ta'lim texnologiyalardandir. O'quv jarayonida qo'llaniluvchi barcha texnologiyalar kabi keys –stadi texnologiyasi ham o'ziga xos ta'limiy imkoniyatlariga ega. Shuningdek keys-stadi texnologiyasini qo'llashda o'qituvchining o'rni va ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiya ishining II bobida yuqorida muhim vazifalar keng ochib berilgan.

Keys-stadi texnologiyasini qo'llashda ta'lim maqsadlarni to'g'ri qo'ya olish ustuvor masalardan biridir. Keys-stadi texnologiyasini tashkil qilishda yuqorida keltirilgan o'n birta bosqich asosiy o'rini egalaydi.

Asosan texnologiyani tashkil qilishda vaziyatlarni to'g'ri qo'yish, muammoning sabab –oqibatlarini to'liq ochib berish lozim. Keysni to'g'ri tanlay olish, talabalarning qiziqishi va ularning tayyorgarligini e'tiborga olish, vaziyatni tahlil qilish usullari bilan tanishtirish muhimdir.

Dissertatsiya ishining II-bobning birinchi rejasida texnologiyani tashkil qilishda “Aqliy xujum”, “Munozara” metodlarining ahamiyati zarurligi ochib berilgan. Shuningdek vaziyatni tahlil qilish turlari, bosqichlari, tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish zarurligi va talabalarga eslatlarmalar keltirib o'tilgan.

II-bobning, ikkinchi rejasida texnologiyani qo'llashda o'qituvchining ahamiyati, jarayonni tashkil qilishda uning vazifalari, talabalarni bahollash jarayoni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Keys-stadi texnologiyasini qo'llashda o'qituvchi vazifasi uning jarayoni odilona to'g'ri boshqara bilishi bilan baholanadi. Ya'ni o'qituvchi jarayoni tashkil qilishi, mavzuga xos va mos vaziyatni tuza olishi va talabalar faoliyati boshqara olishi lozim.

Keys-stadi texnologiyasida bahollash jarayonida barcha baholash tizimlaridan foydalanish mumkin. Bahollash jarayoniga talabalarning jamoa bilan birlasha olishi, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, vaziyatga mos yechimlarni topishlari alohida e'tiborga olinadi.

III BOB. Pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash

1. Pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadini qo'llash xususiyatlari

Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan isloh, zamon talablarga mos dars jarayonlarini tshkil qilish ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor masalardan biridir. Jamiyatimizning ravnaqini va kelajagini belgilab beruvchi bu ta'lim tizimidir.

Mamlakatimizda voyaga yetib kelayotgan har bir yosh avlodni ham ma'nan ham jismonan sog'lom barkamol qilib kamol toptirish bizning asosiy ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Respublika Oliy Majlisining 9-sesiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim sohasini tubdan yangilashga, zamon talablariga mos rivojlantirishga qaratilgandir. Bu dasturni tarkibiy qismi sifatida ta'limning yangicha modeli yaratildi. [1, 20-21b]

Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lim-tarbiya modelini amaliyotga tadbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu dastur mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga etkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Chunonchi, mazkur jarayonning birinchi bosqichi (1997-2001 yillar)da “...o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish”, ikkinchi bosqich(2001-2005 yillar)da “...ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlarni va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” hamda uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da “...ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlash” kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog‘i lozim.[2, 31-32 b]

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko‘p marotaba ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganib, ularni o‘quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan, shu sababli ham hozirda ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quv jarayonlarda tashkil qilish yuzasidan amaliy harakatlar olib borilmoqda .

Bu yerda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni ilmiy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zaruriyati tug‘ildi degan savol paydo bo‘lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni yetishtirib kelgan o‘qitish uslublari mavjudku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarni o‘zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo‘lmaydimi?- degan mulohazalar ham yo‘q emas. O‘zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan mana shu yo‘ldan bormoqda. Bu yo‘l ilojsizlikdan izlab topilgan bo‘lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo‘lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki:

Birinchidan: ma’lum sabablarga ko‘ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin

olishi uchun, aholi ta'lim olishini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi:

Ikkinchidan: an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

Uchinchidan: Fan-texnika taraqqiyotininig o'rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

To'rtinchidan: kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

Beshinchidan: yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiya fani yuqorida sanab o'tilgan 5 ta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbiridir.

Bugungi kunda Kasb –hunar kollejlarida, xususan Pedagogika kollejlarida pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi bir qator fanlar o'quv dasturiga kiritilgan. Biz bilamizki pedagogika kollejlarida "Boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi" yo'nalishi asosida mutaxassislar tayyorlanadi, ularning o'quv rejasining asosiy qismini pedagogik fanlar tashkil qiladi. Ular kelgusida ta'lim jarayonining eng asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'inch ta'lim jarayonida faoliyat olib boradilar, aynan shu bosqich yosh avlodning kamol topishida muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'inch ta'limni tashkil qilishda pedagogik kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Boshlang'inch sinf o'qituvchisi oldiga qo'yilgan vazifalardan ham buni yaqol ko'rishimiz

mumkin. Boshlang'inch sinf o'qituvchisi har tomonlama barkamol, chuqur bilimli, dunyoqarashi keng, oldindan kelajak avlod istiqbolini ko'ra oladigan, o'quv jarayoniga yangiliklar yaratadigan, o'z kasbining fidoyisi bo'lishi kerak. Shundagina u kasbi oldidagi burchini ado qilgan hisoblanadi. Pedagogik kollejlarda ta'lim olayotgan mutaxassislarni kasb burchlarini qalban his qiladigan kadr sifatida tarbiyalash tezkorlik bilan yangiliklar kirib kelayotgan ta'lim sohamiz uchun muhimdir.

Masalan Pedagogika kollejlarda aynan yuqoridagi xislatlarni tarkib toptirish maqsadida, "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi" kabi fanlar talabalarga o'qitilib boriladi. Barcha fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi markazi tomonidan o'quv dasturlari, o'quv rejalari ishlab chiqilgan, dastur talablari keltirilgan. Har bir fanni tashkil qilishda dastur talablari va me'yorlariga bo'ysuniladi

O'rta Maxsus kasb-hunar kollejlarining o'quv dasturiga kiritilgan fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim mazmuni yanada boyitadi va bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyat bilan tanishtiradi, o'rgatadi. Ayniqsa O'rta Maxsus kasb-hunar kollejlarda o'qitilayotgan pedagogik fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar tarkibiga kiruvchi keys-stadi texnologiyasidan foydalanib o'quv jarayoni tashkil qilish, bo'lajak mutaxassisga amaliy faoliyatni oldindan tahlil qilish imkoniyatini beradi, uni shu faoliyat ishtirokchisiga aylantiradi, xulosalarni o'zining nuqtai-nazarlari asosida qabul qilishga o'rgatadi. Ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashiga ko'maklashuvchi bu texnologiya ta'lim samaradorligini oshiradi.

Keys-stadi texnologiyani qo'llashdan oldin pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular

bilan ishlash metodikasi” kabi fanlarni oldiga qo‘yilgan maqsad vazifalarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish lozim. Har bir fanga texnologiyani joriy qilishdan oldin fanning dastur talablarini, ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan malaka, va ko‘nikmalarni chuqur tahlil qilgan holda amaliy jarayonda qo‘llash o‘rinlidir. Har bir fan o‘z oldiga ma’lum bir maqsad va vazifalarni qo‘ygan holda o‘quv rejasidan o‘rin oladi. Shundagina keys-stadi texnologiyasi oldindan ko‘zlagan maqsad va vazifalarinilarini to‘liq bajara oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida biz pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi “Pedagogika”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta’lim-tarbiya nazariyasi metodikasi”, “Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi” kabi o‘quv fanlarining o‘quv rejasi, fan dasturi maqsad vazifalarini, ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni quyidagi tahlillar asosida keltirib o‘tamiz.

Pedagogika fanni barcha fanlar tarkibining asosi, bir so‘z bilan aytganda fanlar otasi hisoblanadi, bu fan orqali har bir bo‘lajak pedagog mutaxassis nazariy, amaliy bilimlar bilan qurollanadi, kasbiy mahoratga ega bo‘lib yetuk kadr sifatida shakllanadi. Jamiyatimizda yashayotgan har bir shaxsning har tomonlama kamol topishida bu fanning o‘rni benihoya kattadir.

Pedagogika fanni asosan pedagogika kollejlarida o‘qitilib borildi, o‘quv rejasi boyicha umumiy o‘quv soati 244 soatni tashkil qildi. Shulardan 12 soat nazariy, 34 soat amaliy, 12 soat seminar, 6 soat kurs ishi, 72 soat mustaqil ishi soatlariga bo‘linadi. Pedagogika fani 4 bo‘lim, 26 mavzu asosida dars jarayonlarida o‘qitiladi.

Pedagogika fanni o‘rganish natijasida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik tushuncha va hodisalarning muhim belgilarini ajratib olish;
- o‘qituvchining mashg‘ulotlari, bolalar faoliyatini kuzatish, yozib borish va tahlil qilish;

- ta'limning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini aniqlay olish va amalga oshirish;
- o'qituvchilar ilg'or ish tajribalarini o'rganish va umumlashtirish;
- o'quvchilar bilimini nazorat qilish, baholayotganda ichki va tashqi jihatdan izohlash;
- sinfda ayrim guruhda o'quvchilarning o'zaro ijobiy aloqalarini shakllantirish;
- maktab ish hujjatlarini yuritish.

Shuningdek Pedagogika fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilimlarga ham ega bo'lishlari kerak:

- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi;
- barkamol shaxsni tarbiyalash yo'llari;
- ta'lim jarayoni mohiyati va mazmuni;
- ta'limni tashkil etish metod va yo'llari;
- dastur mazmunidan mashg'ulot uchun zarur bo'lgan qismni ajrata bilish va mashg'ulot uchun ishlanma tuzish.

Yuqorida keltirib o'tilgan bilim ko'nikma, malakalarni talabalarda rivojlantirish pedagogika fanni oldida turgan muhim maqsad va vazifalardandir. Bu jarayoni tashkil qilishda o'qituvchi va talaba faoliyatidagi hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson barkamolligi ko'proq uning ma'naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fani tarbiyaviy ishlarning davr talabiga javob bera oladigan eng ilg'or usullarini izlab topish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy professional

xususiyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham bu fan pedagogik fanlar tarkibida o‘quv jarayonlariga kiritilgan.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘quv fanni o‘quv reja bo‘yicha umumiy 51 soatni tashkil qiladi, shulardan 24 soat nazariy, 12 soat amaliy, 15 soat mustaqil ta’limni soatlariga ajratiladi. Fanni o‘zida 7 bob, 7- mavzuni mujassamlantiradi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘quv fanni o‘rganish natijasida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- ma’naviy – ma’rifiy yo‘nalishdagi adabiyotlarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda asosiy omillarni ajratish;
- o‘qituvchilar ilg‘or tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish;
- o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash;

Fanni o‘rganish natijasida o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- maktabda tarbiyaviy ishlarning asosiy mazmuni va vazifalari;
- tarbiyaviy ishlarning milliy va nazariy asoslari;
- ota – onalar va jamoatchilik bilan ishlash shakllari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanni talabani bevosita amaliy faoliyatga undaydi, ularga tadbiq qilib ko‘rish, bajarish imkonini beradi. Bir so‘z bilan aytganda talabani ta’lim- tarbiya jarayoning tashkilotchisiga aylantiradi.

Pedagogik fanlari tarkibiga kiruvchi “Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta’lim- tarbiya nazariyasi metodikasi” fani yuqorida keltirilgan fanlarning uzviy davomidir. Bu o‘quv fan asosan ta’lim-tarbiyada jarayonida yordamchi fan sifatida qo‘llaniladi, shu bilan birga bu o‘quv fanni orqali biz mustahkamlash tushunchasini to‘liq mohiyatini his qilamiz, aynan ushbu fanni o‘qitishda pedagog kadrlarimiz bor kuch mahoratini saraflashlari talab qilinadi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash, dasturlar, darsliklar, o‘quv- metodik qo‘llanmalarni milliy ta’lim-tarbiya asosida qurish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan [1, 22b].

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida o'z kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda, o'z manfaatlarini, mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda quradigan, erkin, har jihatdan barkamol sog'lom avlodning tarbiyalanishi asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekistonning taraqqiyot yo'li maktablardan boshlanadi. Kadrlar tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs-fuqaroni kamol toptirish, sinf xonalari va auditoriyalarda kimlar dars berishiga bog'liq. Shunday ekan, xalq ta'limi uchun yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Bu fanni o'qitishning maqsadi boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda, kuni uzaytirilgan guruhlarda o'quvchining imkoniyati, qobiliyati, bilimini hisobga olish va shakllantirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri va samarali o'tkazish yo'llarini o'rgatishdan, turli tadbirlar va mashg'ulotlar tashkil qilish hamda o'tkazishni o'rgatishdan iborat.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi fani pedagogik kollejlarning o'quv rejasida umumiy 131 soatni tashkil qiladi, shulardan 48 soati nazariy, 44 soati amaliy, 6 soat kurs ishi loyihasiga, 39 soat mustaqil ish dars soatlariga ajratilgan. Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi fani tarkibi 16 mavzu iborat.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- bo'lajak mutaxassislar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunini bilish;
- yoshlarni har jihatdan yetuk, barkamol qilib tarbiyalash, ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- o'quvchilarning qobiliyati, bilim darajasini hisobga olish, bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish kabilarni bilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi o'quv fanini o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarga ham ega bo'lishlari kerak:

- barkamol shaxs modulini tasavvur etish, uning ma'naviyatidagi zaruriy sifatlarni shakllantirish shakl va yo'llarini izlashlari;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslarini egallashlari;
- tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish san'atiga ega bo'lishlari.

Ta'lim oluvchilar yuqorida ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zida shakllantira olsa fanni chuqur egalagan hisoblanadilar. "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi" o'quv fanning oldida turgan asosiy maqsad va vazifalar ham asosan shundan iboratdir.

Biz yuqorida pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi bir necha fanlar haqida zarur ma'lumotlarni keltirdik, bu o'quv fanlari talabalarni maxsus bilimlar bilan qurollantiradi, ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Shu o'rinda aytish keraki, talaba ijtimoiy hayotning teng a'zosi, jamiyatda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning ishtirokchisidir, demak unga o'quv fanlardan tashqari ijtimoiy muhit ham ta'lim-tarbiya beradi, bu vazifalarni bajarishda "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi" o'quv fanning ahamiyati kattadir.

Bugun jamiyatimizga ko'proq tashabbuskor, innovatsion faoliyat bilan shug'ullana oladigan yoshlar kerak, ular jamiyat hayotidagi voqea-hodisalarning kuzatuvchisi emas ishtirokchisiga aylana olishlari shart va zarurdir.

Bu fanni o'qitishdan maqsad "Kamolot" yoshlar ijtimoiy Harakati va "Kamalak" bolalar tashkilotining maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'llarini o'rgatish, yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasini o'rgatishdir.

Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi o'quv fanni o'quv rejasida 51 soatni tashkil qiladi. Shulardan 24 soat nazariy, 12 soat amaliy, 15 soat mustaqil soatlarga ajratiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy Harakati, "Kamalak" bolalar tashkilotlari yoshlar hayotiga tobora chuqurroq kirib bormoqda.

Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari kerak:

- O'zbekiston Respublikasidagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati dasturi va Nizomini bilishlari;
- "Kamalak" bolalar tashkiloti yo'nalishlarini bilishlari;
- Boshlang'ich tashkilot yetakchisi va uning faoliyati ish mazmunini;
- Boshlang'ich tashkilot kengashining faoliyati, ish mazmunini;

Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

- O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati dasturi va Nizomini bilishlari;
- "Kamalak" bolalar tashkiloti yo'nalishlarini bilishlari;
- Boshlang'ich tashkilot yetakchisi va uning faoliyati ish mazmunini;
- "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkilotining ish hujjatlarini yuritish tartibini;
- Boshlang'ich tashkilot kengashi yig'ilishini o'tkazish tartibini.

Yuqorida keltirilgan o'quv fanlari "Boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi" mutaxassislarini kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini oshirishda, mustahkam bir binoning bunyod bo'lishida poydevor vazifasini o'taydi. Chuqur egallangan bilim, mustahkam ishonch, tinimsiz qilingan harakat, yuksak salohiyat bo'lajak mutaxassisning samarali faoliyatga undaydi.

2. Kasb-hunar kollejlarda pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlari

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda Xiva Pedagogika kasb-hunar kolleji xamda Yangibozor Pedagogika va Sport kollejida tajriba-sinov ishlari amalga oshrildi. Pedagogik eksperiment o'tkazish tartibi

aniqlandi. Eksperimentni o'tkazish bo'yicha reja tuzildi, tadqiqot izchilligi, vaqti, joyi belgilandi, tushunchalar tizimi ishlab chiqildi. Pedagogik eksperiment o'tkazishdan maqsad tadqiqot ishida ilgari surilgan ilmiy farazning amaliy asosli ekanligini tekshirib ko'rishdan iborat edi.

Eksperiment davomida quyidagi vazifalar amalga oshirildi. Eksperimentni ilmiy va amaliy asosli o'tkazish maqsadida tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy, uslubiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar o'rganib chiqildi.

Xiva Pedagogika kasb-hunar kolleji va Yangibozor Pedagogika va Sport kollejida "Pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi" kabi fanlarning o'qitilishi va didaktik jarayonda qo'llaniladigan uslub va vositalari, ta'limning tashkiliy shakllari, faoliyatga pedagogik texnologiyalarning tadbiq qilinish xususiyatlari o'rganildi va shu fanlar yuzasidan keys-stadi texnologiyasi qo'llanilgan holda dars ishlamanlari tuzildi. Yuqoridagi fanlar o'quv dasturi, ishi dasturlardan kelib chiqqan holda, fan o'qituvchilar bilan birgalikda o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Keys-stadi texnologiyasini qo'llashdan oldin talabalarning boshlang'inch bilimlari fanlar yuzasidan tuzilgan savollar va test sinovlari orqali tekshirildi. To'plangan material umumlashtirildi, kamchiliklar qayd qilindi. Xiva Pedagogika kasb-hunar kolleji hamda Yangibozor Pedagogika va Sport kollejlarida kollejlarida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini samarali joriy qilish bo'yicha muayan nazariy va amaliy ishlar, ushbu texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalari va uslubiy ko'rsatmalar tayyorlandi.

Eksperimentning ob'ektlari sifatida Xiva Pedagogika kasb-hunar kollejining "Boshlang'inch ta'lim yo'nalishi"ning II-kurs "E" guruhi belgilandi. Sinaluvchilar ikki guruhga ajratildi shu yo'nalishning "G" guruhi nazorat guruhi maqomini va eksperimental guruh maqomini oldi. Yangibozor Pedagogika va Sport kollejining "Boshlang'inch ta'lim yo'nalishining " II bosqich 71-72

guruhlarda o'tkazildi. 71-guruh nazorat guruhi maqomini va 72- guruh eksperimental guruh maqomini oldi.

Eksperiment jarayonida sinaluvchilar soni va tajribalar miqdori aniq belgilab olindi. Har ikki guruhda o'quvchilar soni teng miqdorni tashkil qildi. Eksperiment guruhlarida respondentlar soni 35 kishini va nazorat guruhlarida sinaluvchilar soni 32 kishini tashkil qildi. Jami eksperimentda qatnashuvchilar soni 67 kishini tashkil qildi. Eksperiment o'tkazish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Tajriba ishlari olib borildi. Eksperimentning borishi va natijalarini qayd qilish uchun usullar ishlab chiqildi. Eksperimental guruhda biz taklif qilgan dars ishlanmalari, dars rejalari va uslubiy tavsiyalar asosida ish olib borildi. Nazorat guruhlarida esa ta'lim-tarbiya an'anaviy pedagogik jarayonlarda oid borildi.

Eksperimentning nazariy-qidiruv bosqichida tadqiqot mavzusi bo'yicha darslar kuzatildi, tahlil qilindi. Xiva Pedagogika kasb-hunar kollejida "Pedagogika" va "Kuni uzaytirilgan guruhlarida ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi" fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda keys-stadi texnologiyasi qo'llanildi va tahlil qilindi.

Yangibozor Pedagogika va Sport kollejida "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi o'qitilishi" fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanildi.

Bu jarayon 2012-yil noyabr-dekabr oylarida amalga oshirildi. Yuqorida nomlari ko'rsatilgan o'qituvchilarning faoliyati, darslarga tayyorgarlik ko'rishi, darslarni rejalashtirishi, amalga oshirish jihatlari, o'quvchilarning faolligi, shuningdek, darslarida tadqiqotlar texnologiyasi mezonlarining aks etishi, pedagogik faoliyatni loyihalash, o'quvchilarni faollashtirish usullari tahlil qilindi.

Faoliyatni o'rganish davomida bir qator muammolar aniqlandi:

1. Pedagogik fanlarni o'qitishda asosan reproduktiv o'qitish uslublaridan

foydalanilmoqda..

2. Pedagogik fanlarni o'qitish bo'yicha mashg'ulotlarning texnologik xaritasini yaratishda umumiylikka yo'l qo'yilmoqda.
3. Aksariyat o'qituvchilarning pedagogik fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda "Klasterlar", "Venn diagrammasi" "BBB" ta'lim vositalari qo'proq foydalanishlari va bunda texnologik jarayon to'liq amalga oshirilmayotgani ma'lum bo'ldi.
4. Pedagogik fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda keys-stadi texnologiyasidan umuman foydalanilmaydi va bu borada o'qituvchilar o'qituvchilarning malakalari to'liq shakllangan emas.

Bu esa o'z navbatida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash bo'yicha amaliy izlanishlar etarli darajada olib borilmaganligi, zarur ko'rsatmalar ishlab chiqilmaganligi va bu borada seminar-treninglar tashkil qilinmaganligi bilan izohlanadi.

Eksperimentning umumlashtiruvchi ikkinchi bosqichida nazorat va eksperimental guruhlarda pedagogik fanlarni o'qitishda biz tomonimizdan taklif qilingan dars ishlanmalari va ularni faoliyatda qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar asosida ish olib borildi.

Pedagogika fanidan keys-stadi texnologiyasi qo'llashda " Shaxsning o'sishi, shakllanishi va tarbiyasi " va " O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olish va baholash tizimi" mavzulari asos qilib olindi.

Yuqoridagi mavzular asosida dars ishlanmalari tuzildi. "Shaxsning o'sishi, shakllanishi va tarbiyasi" mavzusida tashkil qilingan o'quv jarayonida "Keys – stadi" texnologiyasi qo'llanildi. Samarali natijalarga erishish maqsadida talabalarning mashg'ulot oldi faoliyati tashkil qilinadi. Talabalar manbalarni o'rganish, suhbat, kuzatish, interviyu, anketa so'rovnomalar kabi ilmiy-pedagogik tadqiqot uslublaridan samarali foydalangan holda ilmiy-nazariy hamda amaliy manbalarni, maktab o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganadilar, ota-onalar, tayanch maktab murabbiylari, o'quvchilar o'rtasida

so'rovnomalar o'tkazadilar, natijalarni tahlil qiladilar va vaziyatning yechimi bo'yicha qaror qabul qiladilar. Talabalar Prezidentimiz I.A. Karimovning "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi..." degan fikrlarini chuqur tahlil qildilar.

Pedagogika fanni o'qitishda keys –stadi texnologiyasini qo'llashning asosiy maqsadi: Talabalar jamosida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsning o'sishi, shakllanishi va tarbiyasida zarur bo'lgan omillarni tahlil qilish, tarbiyaning o'ziga xos usullarini o'rgatishdan iboratdir. Keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali talabalarda quydagi bilim, ko'nikma, malakalar rivojlanadi.

O'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar

1. Talabalar kasbiy jarayonda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish bo'yicha eng to'g'ri va ta'sirchan qarorlarni qabul qilishni o'rganadilar.
2. Talabalarning kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammolarini har tomonlama chuqur o'rganish, asosli xulosalar qilish malakalari rivojlanadi.
3. Ularda muammoni hal qilishga ilmiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi.
4. Talabalar turli manbalar ustida mustaqil tahliliy faoliyatlarni tashkil qilishni o'rganadilar. Manbalar tahlili davomida o'zlarining shaxsiy fikr va xulosalarini shakllantiradilar.
5. Muammoni keng qamrovda, unga ta'sir qiluvchi barcha omillarini e'tiborga olib, atroflicha o'rganish lozimligini bilib oladilar.
6. Talabalarning sodir bo'lgan vaziyat oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha malakalari tarkib topadi.
7. Talabalarning hamkorlikda sermahsul faoliyat yuritish malakalari, istiqbolli natijalar yo'lida aqliy-intellektual imkoniyatlarini birlashtirish, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, muloqatchanlik, moslashuvchanlik, pedagogik mas'uliyat kabi sifatlari tarbiyalanadi.

8. Talabalar keng mantiqiy fikrlashni o'rganadilar, ularning dunyoqarashi kengayadi, kasbiy axloq meyorlari to'g'risidagi tushunchalari tarkib topadi, bo'lg'usi kasbiy faoliyatlarni to'g'ri tashkil qilishni o'rganadilar.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar quydagi bilim ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Talaba bilishi kerak: o'quvchilar jamoasi, jamoa ichida ishni tashkil qilish, o'qituvchining pedagogik muloqat uslublari, sinf rahbarining ish uslublari, otalar bilan hamkorlik uslublarini.

Talaba amalga oshirish kerak: mavzuni mustaqil o'rganadi, muammoning mohiyatini aniq tushunib oladi, uning kasbiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatlilik jihatlarini belgilab oladi, o'z shaxsiy tanqidiy fikrlarga ega bo'lib, mantiqiy xulosalar qilishi, ilmiy-nazariy hamda amaliy manbalar ustida mustaqil ishlashi va natijalarini umumlashtirishi lozim.

Talaba ega bo'lmog'i kerak: muloqatchanlik, hamkorlikda ijodiy ishlash, mustaqil tadqiqot vazifalarni bajarish, hisobot, prezentasiyalarni tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Turi va manbalaridan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi: Keys ta'lim-tarbiya beruvchi keys turiga kiradi, keysning asosiy manbasi pedagoglarning ish tajribasi davomida yuz bergan muammolar. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgan. Bu syujetli, prognostik, ko'p sub'ektki keys bo'lib, muammoli vaziyat asosida tuzilgan. Keys jamoa orqali munozarani tashkil qilishga mo'ljallangan bo'lib, didaktik maqsadlarga ko'ra mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Ushbu keysdan pedagogika fani bo'yicha amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Dars jarayonida quyidagi muammoli vazifatdan foydalanish tavsiya qilinadi. Muammoli vaziyatda shaxsning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli hil muhitlar ko'rsatilgan. Talabalar vaziyatni yechish orqali shaxs ta'lim-tarbiyasida

nimalarga e'tibor berish lozimligini tahlil qiladilar va yakuniy yechimlarni ishlab chiqadilar.

Vaziyat

Sinf rahbari tarbiyasi qiyin bolaning ota-onasi bilan suhbat olib bormoqda. O'quvchi ko'p vaqtlarda maktabga darslarni tayyorlamasdan keladi, qo'pol, o'yinqoroq. Maktab intizomini mensimaydi. Masalan, dars paytida maktab oshxonasida yuradi. So'rmasdan darslardan ketib qoladi. Chorak oxirida reyting kundaligi haftada almashadi, baholari past chiqiyapti.

Uning otasi fan doktori, professor, rahbar, onasi vrach. Pedagogning gaplariga quyidagicha javob beradi:

-Tushunsangizchi, biz Davlat ishlari bilan juda band odamlarmiz. Mening ishim juda ham mas'uliyatli ish! O'g'lim bilan shug'ullanishga mening hech vaqtim yo'q. Onasining ham ishlari ko'p. Biz maktabga yuborayapmiz. Maktab uchun kerakli narsalarni olib berayapmiz, maktab vaqtiga sizlar javob berasiz, tarbiyalaysizlar ! Bu sizning vazifangiz emasmi?

Pedagog, oila bilan maktab hamkorligida ish olib borsagina tarbiya samara berishi mumkinligini uqtirganda, u yana e'tiroz bildirdi:

- Nima ish qilish kerak bo'lsa, oilaga bo'g'liq bo'lgan ishlarning hammasini qilyapman. Uyda kompyuter bor, internetga ulab qo'ydim, kutubxonamiz mavjud, ingliz tili, rus-tillaridagi o'quv kassetalar kolleksiyasi bor.

Ota tarbiyadagi o'z ishtirokiga oid elementlarni uzoq sanadi. Bularni eng asosiy deb hisobladi, ammo o'g'lining xulqi haqidagi sinf rahbari tomonidan bildirilayotgan tashvishli xabarga e'tibor qilmadi.

(O'. Asqarova.“ Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar”)

Pedagogika faninida keys-stadi texnologiyasini qo'llashda talabalarni quyidagi uslubiy ko'rsatmalar bilan tanishtirish lozim.

Keys-stadi texnologiyasida vaziyatni hal qilishda, talabalar vaziyatni tashkil qilish bosqichlarini navbatma-navbat bosib o'tishlari lozim va ularga quyidagi ko'rsatmalar beriladi.

1. Keys bilan tanishish:

- a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
- b) Keysni kichik jamoangizda "sabab-oqibat" nuqtai-nazaridan tahlil qiling.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:

- a) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o'qib chiqing.
- b) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
- c) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko'rsatib qo'ying.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish jarayonida ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi

- 1. Vaziyat qachon, qanday holatda sodir bo'ldi?
- 2. Sinf rahbari harakat motivlarini tahlil qilish?
- 3. O'quvchi harakat motivlarini tahlil qiling ?
- 4. Ota-onaning harakat motivlarini tahlil qiling?
- 5. Muammoni asosiy keltirib chiqaruvchi sabablar nimada deb hisoblaysiz ?
- 6. Qanday qilib keskin pedagogik vaziyatni oldini olish mumkin edi ?
- 7. Voqeallarni keying rivojlanishi qanday bo'lishi mumkin ?
- 8. Vaziyatning yechimini taklif qiling ?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash uchun talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar.

- a) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirish;
- b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qilish;
- c) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlash;

"Shaxsning o'sishi, shakllanishi va tarbiyasi" mavzusida o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash talabalarda darsga bo'lgan qiziqish uyg'otadi, ularni

ijodiy fikrlashga, qarorlar qabul qilishga, mavzu yuzasidan bilimlarni boyitishga, amaliy jarayonda mustaqil qo'llashga o'rgatadi.

Dars ishlanmasi (2- ilovada) keltirigan

“O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olish va baholash tizimi” mavzusida tayyorlangan dars ishlanmasi (3-ilovada) keltirilgan.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan “Maktab, oila va mahalla hamkorligi” mavzusi asosida keys-stadi texnologiyasini qo'llash.

Rezyume

O'quv jarayonida “Keys-stadi” texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Keysning asosiy maqsadi talabalarga maktab, oila, mahala hamkorligi, tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini vaziyat asosida ko'rsatib berish, shuningdek ta'lim- tarbiya jarayoning to'g'ri tashkil qilinishida, sinf rahbar va ota-onalar hamkorligi zarurligini ko'rsatib berish. Ta'lim- tarbiya jarayoni bir tomonlama olib boriladigan jarayon emasligini, unda ijtimoiy muhitning barcha qatlamlari ishtirok qilsa samara berishini talaba ongiga sindirishdam iborat.

Keys-stadi texnologiyasini qo'llashda mavzuga tegishli quyidagi muammoli vaziyat qo'llaniladi.

Vaziyat

6-sinf ota-onalar majlisida o'qituvchi har qaysi ota-onani o'z farzandi o'tiradigan partada o'tirishini taklif qildi. U har qaysi ota-onaning oldiga o'z bolasining daftari va buklangan qog'ozni partaga qo'yib chiqdi. Buklangan qog'ozda faqatgina ota-onaga tegishli yozuv bor edi. Masalan:

“Dilnozada ancha o'zgarishlar bor, yaxshi o'qiyapti, biroq matematikadan biroz qiynaliyapti. Shu fandan qo'shimcha darsga borsin. Iltimos, dushanba kuni soat 13;00 da kelsangiz matematika fani o'qituvchisi bilan maslahatlashib olasiz”.

“Mohira parishonxotir, hamma narsaga e’tiborsiz, fanlarni o’zlashtirishga harakat qilyapti. Suhbatlashish uchun qolishingizni so’rayman”.

“Sevara juda harakatchan, lekin so’zlab berishda qiynaladi. Fikrlashiga, nutqiga e’tibor berish kerak”.

“Anvarning o’qishlari pasayib ketdi, musiqaga qiziqadi, qizlarga qarab faqat qo’shiq aytadi. Iste’dodi haqida o’ylab ko’rish kerak”.

O’qituvchi ota-onalarning har biriga farzandlarining xulq-atvori yozilgan qog’ozlarni berib chiqdi. Sinfidagi ko’pchilik o’quvchilarida yuqoridagi kabi ta’limiy-tarbiyaviy kamchilik bor edi.

(O‘. Asqarova.“ Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar”)

Talabalar vaziyat bilan tanishtirilgandan keyin ularga quyidagi uslubiy ko’rsatmalar beriladi.

1. Keys bilan tanishish:

- a) Keys mazmunini diqqat bilan o’qib chiqing.
- b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:

- a) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o’qib chiqing.
- b) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
- s) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko’rsatib qo’ying.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Talabalar muammoli vaziyatni o’rganish davomida quyidagi savollarga javob topadilar.

- 1. Sinf rahbariga bildirilayotgan e’tirozlar nima sababdan yuzaga kelgan?
- 2. Sizningcha sinf rahbarining bu kabi yozuvlariga qanday qaraysiz?
- 3. O’qituvchi bu usulni nima maqsadda ishlatdi?
- 4. Bu usulni siz ham pedagogik faolliyatingizda qo’llarmidingiz?
- 5. Ota-onalar o’rnida nima qilardingiz?
- 6. O’quvchilarda yuzaga keluvchi muammolarni qanday hal qilsa bo’ladi?

7. Ota-onalar yig'ilishlarining ta'lim –tarbiya tizimida ahamiyati hozirda qanday yo'lga qo'yilmoqda.

8. O'quvchilarda ko'rsatilgan muammolarni qanday hal qilish mumkin

9. Voqeallarni keying rivojlanishi qanday bo'lishi mumkin ?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslashda talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar.

a) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirish.

b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganish va muqobil variyatlarni tahlil qilish.

c) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

O'quvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiya olishida ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlik ishlari juda muhimdir. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy maqsad va vazifalaridan biri ham shundadir, ota-onalar bilan o'tkaziladigan yig'ilishlar, individual suhbatlar, turli -hil tadbirlar, ularni maktab bilan bilan bog'lab turadi. Bunda sinf rahbar faoliyati juda muhimdir. Keysda ko'rsatilgan muammoli vaziyat orqali yuqoridagi vazifalar tahlil qilindi.

Dars ishlanmasi (4- ilovada) keltirgan

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan "Sinf jamoasini tashkil qilishva uni tarbiyalash metodikasi" mavzusisi asosida keys-stadi texnologiyasi.

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Keysning asosiy maqsadi sinf jamoasini shakllantirishda sinf rahbarining o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalar bilan hamkorlik aloqalari, tashkilotchilik

qobiliyatlari juda muhimdir, talabalarda bu kabi xislatlarni tarkib toptirish va talabalarga sinf jamoasini tashkil qilish va jamoani tarbiyalash jarayoni haqida ma'lumotlar berish, ularni sinf jamoalarini tashkil qilishga o'rgatish, oldindan yuzaga keladigan vaziyatlarga tayyorlashdan iborat.

Yuqoridagi mavzu asosida quyidagi vaziyat talabalarga taqdim qilinadi.

Vaziyat

6-sinf o'quvchisi kundaligini yo'qotib qo'ydi. Unda ikki nafar fan o'qituvchisining va unga nisbatan sinf rahbarining quydagicha so'zlari bor edi: "Darsda juda yomon o'tirganligi, xulqi uchun yomon baho qo'yildi, o'rtoqlarining dars tinglashiga xalqit berdi. O'qituvchiga gap qaytardi, tartibga chaqirib qo'ying". "Sinf rahbarini va sinf jamoasini hurmat qilmaydi va tan olmaydi. Yaqin o'rtoqlar orasiga sovuqchilik soladi. Chora ko'rishingizni so'rayman!"

1. Vaziyatni baholang:

a) Sinf rahbari va o'quvchi tomonidan kundaligiga o'sha yozuv yozilgan 6-sinf o'quvchisi nuqtai nazaridan;

b) O'qituvchilar nuqtai nazaridan;

d) Sinf rahbari nuqtai nazaridan;

e) O'quvchi ota-onasi nuqtai nazaridan;

2. Sinf rahbari ota-onalar tomonidan ko'riladigan qanday choralarga umid bog'layapti?

3. O'quvchi kundaligining vazifasi nimada deb bilasiz?

4. O'quvchini jamoani faol a'zosiga aylantirishi uchun nimalar qilish kerak?

5. Sizningcha jamoa o'zi avvaldan yaxshi tashkil qilinganmi?

(O'. Asqarova. "Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar")

Talabalar vaziyat bilan tanishtirilgandan keyin ularga quyidagi uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

1. Keys bilan tanishish:

- a) Keys mazmunini diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
- d) Ma’lumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish davomida talabalar quyidagi savollarga javob topadilar.
- 1. O‘qituvchilar bildirilayotgan e’tirozlar nima sababdan yuzaga kelgan?
 - 2. Sizningcha namunaviy o‘quvchi qiyofasi qanday bo‘lishi lozim va siz uni qanday tasavvur qilasiz?
 - 3. Bu tariqa o‘qituvchilarning noroziligini asosli va to‘g‘ri deb bilasizmi? ta’lim me’yorlariga to‘g‘ri keladimi?
- 1. Sizningcha nima qilsa o‘quvchilarning xulq-atvori, ozodaligi, muloqat madaniyati ijobiy tomonga o‘zgaradi?
5. Kundalik daftarining vazifasi nimadan iborat
6. Voqeallarni keyingi rivojlanishi qanday bo‘lishi mumkin ?
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslashda talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar.
- a) Vaziyat yechimini topish maqsadida “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirish.
 - b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o‘rganing, muqobil variyatlarni tahlil qilish.
 - c) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlash.

O‘quvchilar jamoasini tashkil qilishda doimo qiyinchiliklar yuzaga keladi, ularni namunali jamoaga aylantirishda o‘qituvchining o‘rni benihoya kattadir. Har qanday vaziyatda to‘g‘ri qarorlarni qabul qila olish, jamoani birlashtira olish, o‘ziga xos qadriyatlarni yuzaga keltira olish lozim. Yuqoridagi muammoli vaziyat orqali sinf jamoasi, hamkorlik tushunchalari to‘liq tahlil qilinadi.

Dars ishlanmasi (5- ilovada) keltirilgan

Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi fanidan "O'quvchilarni madaniy hulq-atvor ko'nikmalari bilan tanishtiruvchi mashg'ulotlar" mavzusi asosida keys-stadi texnologiyasini qo'llash.

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Keysning asosiy maqsadi O'quvchilarga odob-axloq haqida tushuncha berish, madaniy hulq-atvor ko'nikmalari bilan tanishtirish va mashg'ulot orqali o'quvchilarda salomlashish, so'zlashish odobi, ota-ona, aka-uka, opa-singillarga, birodarlariga muloqat qilish odobini o'rgatish. Dasturxon atrofida o'zini tutish ko'nikmalarini tarkib toptirish. Orastalik insoniy fazilat ekanligi, odamlarning kiyimi, sochi, umuman tashqi qiyofasi, har tomonlama tartibli kiyinish, o'zini tutish, tartibli olib yurish, uy-joylarni, maktab, sinf xonalarini, o'quv qurollarini saranjom-sarishta tutish malakalarini singdirish. O'quvchilarda madaniy hulq-atvor ko'nikmalarini tarkib toptirishda xalq ijodining mahsuli afsona, ertak, maqol, rivoyat va hikoyatlardan unumli foydalanishdan iborat.

Talabalarga mavzu yuzasidan quydagi vaziyat taqdim qilinadi.

Vaziyat

Sharifa opa 7 "a" sinf rahbari hozirda uni o'quvchilarining odob-axloqi juda tashvishlantiriyapti. Sinf jamoasi aslida ahil-inoq ko'rinadi, ammo yaqindan tanishsagiz sinfdan norozi holatda chiqasiz. Kecha Sharifa opa kasbdoshlaridan o'quvchilari haqida salbiy fikrlar eshitdi. Sharifa opa o'ylanganicha kechagi gaplarni hayolidan o'tkazardi:

- Nodiringiz bilmayman qanday bola, koridorda uchratib qolsangiz salom berishga aqlli yetmaydi. Hechnima bilmagan, ko'rmaganday yoningdan o'tib

ketaveradi. Kiyimlariga onasi qaramasmikan hamisha kir, g'ijim bo'lib yuradi.- dedi o'quvchidan nolib adabiyot o'qituvchisi Sojida.

- Ey Nodirni qo'ying,-deb gapga aralashdi biologiya o'qituvchisi Munira-Jamolchi na o'qituvchilarni hurmat qiladi, na sinfdoshlarini, darsda qachon qarama bir nimalarni muhokamaga qo'yib janjal chiqaradi.Gapirganda baqirib gapiradi, shovqinidan boshing og'rib ketadi, sening “qo'y o'tir, shovqin solma” degan gaping qulog'iga ham yetib bormaydi.

- Sharifa opa xafa bo'lmang-u qizlaringiz axloq-odob, madaniyat nimaligini bilishmaydi. Darsda saqis shamillatib yuzinga tik qarab o'tirishadi, ko'plari telefon o'ynab darsga halaqit berishadi, bizni davrimizda qizlar, og'il bolalardan uyalishardi, bularda na uyat bor, na tortinish, tavba, tavba...-deya matematika o'qituvchisi Manzura opa norozi holda gapirardi.

Sharifa opa mum tishlagancha o'qituvchilarning sinfi haqidagi salbiy fikrlarni eshitdi. Ayni paytda nima qilsam ekan degan savol uni o'ylantirardi. “Sinfim bilan muloqatga kirishish o'zim uchun muammo bo'lib turganda, bu e'tirozlar ham kelib qo'shildi” deya muammolarni bartaraf qilish yo'llarini izlardi.

(Hayotiy voqea)

Talabalar mavzu yuzasidan vaziyat bilan tanishtirilgan so'ng, ularga quyidagi ko'rsatmalar beriladi.

1.Keys bilan tanishish:

- a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
- b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:

- d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o'qib chiqing.
- e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
- f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko'rsatib qo'ying.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Talabalar muammoli vaziyatni o'rganish davomida quyidagi savollarga javob topadilar.

1. Sinf rahbariga bildirilayotgan e'tirozlar nima sababdan yuzaga kelgan?
 2. Sizningcha namunaviy o'quvchi qiyofasi qanday bo'lishi lozim va siz uni qanday tasavvur qilasiz?
 3. Bu tariqa o'qituvchilarning noroziligini asosli va to'g'ri deb bilasizmi? ta'lim me'yorlariga to'g'ri keladimi?
 4. Sizningcha nima qilsa o'quvchilarning xulq-atvori, ozodaligi, muloqat madaniyati ijobiy tomonga o'zgaradi?
 5. Agar siz shu sinfning sinf rahbari bo'lib qolsangiz nima qilardingiz yoki fan o'qituvchilari?
 6. Nafosat tarbiyasi deganda nimani tushunasiz va qanday qilib buni o'quvchilar ongida rivojlantirasiz?
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash jarayonida talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar.
- a) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirish.
 - b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qilish.
 - s) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlash.

Xulq-atvor normalarini shakllantirish, har bir shaxsni ma'naviy yetuk inson qiyofasida tarbiyalash, ularda ijobiy sifatlarni kamol toptirish kabi vazifalarni bajarishda o'qituvchining burchi ikki hissa ko'proqdir. Negaki maktab oldida turgan vazifa faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi. Ta'lim va tarbiya uzluksiz jarayondir, yuqoridagi vaziyat orqali ushbu jarayonlar tahlil qilinadi va muqobil yechimlar ishlab chiqiladi.

Dars ishlanmasi (6- ilovada) keltirigan.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi fanidan "KUG larda sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari" mavzusi asosida keys-stadi texnologiyasini asosida dars ishlanmasi (7-ilovada) keltirilgan

Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanidan "Boshlang'ich tashkilot yetakchisi va uning faoliyati" mavzusi asosida keys stadi-texnologiyasini qo'llash.

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Keysning asosiy maqsadi : Yetakchi va yetakchilik faoliyatining mazmuni bilan talabalarni tanishtirish, yetakchi jamoaning manfaatlarini birlashtira oladigan, boshqalarni ma'lum maqsadga yetaklay olgan hamda buning natijasida jamoa ishonchiga muvaffaq bo'lgan shaxsdir, shundan kelib chiqib talabalarda yetakchiga xos boshqaruv ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni faol, tashabbuskor yoshlarga aylantirishdan iborat. Shuningdek jamoani boshqarishda maqsadni aniqlash va maqsadga ko'ra boshqarish usullarini to'g'ri tanlashga o'rgatish, yoshlarda o'ziga nisbatan ishonch tuyg'ularini shakllantirish, mamlakatimiz istiqboli uchun kurashadigan avlodni tarbiyalashdir.

Talabalarga mavzu yuzasidan quyidagi vaziyat taqdim qilinadi.

Vaziyat

Shahar markazidagi 15-sonli maktabining o'quvchilari o'zlarining bilimli, iqtidorligi va faol, tashabbuskorligi bilan boshqa maktab jamoalaridan ajralib turadilar. Eng yangi g'oyalar, ommani birlashtiruvchi tadbirlar, loyihalar odatda ulardan chiqardi. Maktab "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining

boshlang'inch tashkiloti maktab yetakchisi maktab o'quvchilarni doimo o'z atrofida birlashtira olar edi va boshqaruv usullariga amaliy faoliyatida juda katta e'tibor berardi. U maktab o'quvchilari bilan tadbir yoki uchrashuvlar o'tkazganida hamma o'z iqtidorini namoyish qilishga, tadbirning faol ishtirokchisiga aylanishga harakat qilardi.

Maktab Boshlang'inch tashkilot yetakchisining lavozimi o'zgarib boshqarishga o'tib ketgandan keyin maktabga yangi yetakchi saylandi. Yangi yetakchi iqtidorli, davlat stipendiyati sovrindori, o'z sohasining bilimdoni, yangiliklarni sevadigan faol yoshlardan. Shunday bo'lishiga qaramasdan maktab jamoasi faollik, tashabbuskorlikni qo'ldan boy berib qo'yishdi. Ularda avvalgidek yonib turgan yurakning issiq harorati sezilmasdi. Bir so'z bilan aytganda maktab jamoasi uxlab qolganga o'xshardi.

(A.Sh.Bozorov, H.A.Usmonov, A.R.Bo'stonov.

”Yoshlar yetakchilari uchun qo'llanma”)

Vaziyat bilan ishlashda talabalarga quyidagi uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
 - d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o'qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko'rsatib qo'ying.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o'rganish davomida talabalar quyidagi savollarga javob beradilar.

1. Boshlang'inch tashkiloti yetakchisi faoliyati nimalardan iborat?
2. Yetakchi deganda sizda qanday tasavvur paydo bo'ladi?
3. Yetakchi o'zida qanday xususiyatlarni o'zida shakllantirishi lozim?

4. Maktab o'quvchilarning faolligidagi sustkashlikga nima sabab deb o'ylaysiz?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslashda talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar.

a) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirish.

b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qilish.

c) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlash.

Yoshlar hayotida, ularning faolligini ta'minlashda boshlang'inch tashkilotlarining o'rni kattadir, yetakchi ma'suliyati, uning qobiliyatlari, tashkilotchiligi, tashabbuskorligi jarayoni uyushtirishda zarurdir. Yuqorida keltirilgan vaziyatda yetakchi faoliyatidagi sustkashliklar va bu o'quvchilar faoliyatida ta'siri keltirilgan. Vaziyatni yechish davomida talabalar o'zlarining muqobil yechimlarini keltiradilar.

Dars ishlanmasi (8- ilovada) keltirilgan.

Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanidan " Boshlang'ich tashkilot faollari tomonidan voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida huquq buzarliliklarning oldini olish ishlarini olib borish" mavzusi asosida keys-stadi texnologiyasidan dars ishlanmasi (9-ilovada) keltirilgan.

Biz yuqorida pedagogika, tarbiyaviy ishlar metodikasi, kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi metodikasi, yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanlarining o'quv dasturida keltirilgan mavzulari asosida, keys-stadi texnologiyasini qo'llagan holda dars ishlanmalarini keltirib o'tdik. Dars jarayonida keys-stadi texnologiyasidan foydalanish o'quv samaradorligini oshiradi.

Talabalarda ta'limiy faoliyat natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalari darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlandi:

1.Talabalarda pedagogik fanlar bo'yicha ilmiy-nazariy tushunchalarning shakllanganligi

2. Talabalar tafakkurida vaziyatlarga nisbatan muqobil yechimlar topish ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, jamoaviy birdamlik tushunchalari, oldindan kasbiy malakalarining shakllanganligi

3.Talabalarda manbalar ustida mustaqil ishlash, tadqiqotchilik faoliyat ko'nikmalarining shakllanganligi

4.Talabalarda mustaqil fikr va ijodiy-izlanuvchanlik ko'nikmalarining shakllanganligi

Eksperiment bosqichlari	Topshiriqlar	Nazorat guruxlari	Eksperimental guruxlar
Qayd etuvchi eksperiment	I	24%	23%
	II	22%	20%
	III	12%	13%
	IV	7%	6%
Tajriba umumlashtiruvchi eksperiment	I	25%	26%
	II	24%	28%
	III	12%	18%
	IV	6%	19%

Ko'rinib turibdiki, pedagogik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash natijasida talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya oshdi, ularda mustaqil fikrlash, kasbiy faoliyatda uchraydigan vaziyatlarga nisbatan oldindan yechimlar topish malakalari shakllandi, mustaqil fikr va kreativlik (ijodkorlik) ko'nikma va malakalari rivojlandi, pedagogik fanlarni o'qitishda amaliy vaziyatlarni qo'llash orqali kasbiy mahoratlarini mustahkamlandi va ongli egallashlari uchun muayyan

pedagogik-psixologik sharoitlar yaratildi. Olingan natijalarning statistik tahlili shuni ko'rsatdigi, ta'lim samaradorligi eksperimental guruhlarda nazorat guruhlariga nisbatan 23% oshdi.

Xulosa

Pedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv samaradorligini oshiradi, talabalarning bilim ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi.

III-bobda pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasining ahamiyati ochib berilgan, bobning birinchi rejasida o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarning qo'llashning ahamiyati, sabablari keltirilgan. Shuningdek birinchi reja asosida pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi fanlar: pedagogika, tarbiyaviy ishlar metodikasi, kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi, yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanlari, o'quv reja, o'quv dastur, ishi dastur talablari asosida o'rganilgan, ular uchun ajratilgan soatlar ko'rsatib o'tilgan. Pedagogik fanlarni o'qitishda dastur talablariga binoan talabalar bilishi va egalashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar tahlil qilingan.

III-bobning ikkinchi rejasida tajriba –sinov ishlari keltirilgan. Pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash bo'yicha Xiva pedagogika kolleji hamda Yangibozor Pedagogika va Sport kollejida tajriba sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari ikkala kollejning "Boshlang'inch ta'lim" yo'nalishi II-bosqich talablari o'quv guruhleri bilan o'tkazildi, guruhlar nazorat va eksperimental guruhlariga ajratildi.

Tajriba - sinov ishlarida pedagogik fanlarni o'qitishda qo'llaniluvchi usul va uslublar kuzatildi, tahlil qilindi. O'quv guruhlarida dars o'tish jarayonida

yuzaga keluvchi muammolar o'rganilgan va pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llagan holda amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi.

Tajriba sinov natijalariga ko'ra keys-stadi texnologiyasi qo'llagan holda o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar dars samaradorligini oshirgan va talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan ko'nikmalar rivojlangan.

XULOSA

Ta'lim tizimida o'quv samaradorligini oshirish, bilim oluvchilarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Aynan pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiruvchi keys-stadi bugungi ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilib uni jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etish davom etmoqda. Shu kungacha ta'lim tizimida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, unga oid o'quv adabiyotlarni tayyorlash va amaliyotga tadbiq qilish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiya ishi mavzusi yuqoridagi talablar asosida shakllantirildi. kasb-hunar kollejlarida pedagogik fanlarda keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali talabalarni bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish ishining asosiy maqsadi qilib olindi. Tezkor axborotlar almashuvi zamonasida yashayotgan har inson, amaliy, kasbiy faoliyatida bir muncha muammoli vaziyatlarga duch keladi, shunday paytda oldindan yechimi izlab topilgan vaziyatlardagi muqobil yechimlar qo'l keladi.

Dissertatsiya ishi 3 bob, 6 band asosida shakllantirildi, ishning ilova qismida keys-stadi texnologiyasi asosida tuzilgan dars ishlanmalari, foydalangan adabiyotlar ro'yxati keltirildi.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida keys-stadi texnologiyasining tarixiy rivojlanishi, o'rganilganlik darajasi, bugungi kundagi amaliy tadbiqi tahlil qilindi, zarur manbalar keltirilib o'tildi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobida keys-stadi texnologiyasining ta'limiy imkoniyatlari tahlil qilindi, texnologiyaning xususiyatlari, turlari, vaziyatni tahlil qilish, jarayoni tashkil qilish bosqichlari, o'qituvchining o'rnini va ahamiyati to'liq ochib berildi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasi qo'llashning pedagogik asoslari tahlil qilindi. Pedagogik fanlar bo'yicha DTS, o'quv reja, o'quv dastur mezonlari o'rganildi. O'quv dastur mavzulari asosida pedagogika, tarbiyaviy ishlar metodikasi, kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi, yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi fanlaridan keys-stadi texnologiyasini qo'llagan holda dars ishlanmalari tuzildi.

Tajriba-sinovlari Xiva Pedagogika kasb-hunar kolleji va Yangibozor Pedagogika va sport kollejlariida o'tkazildi.

Bugungi kunda keys-stadi texnologiyasi barcha fanlarni o'qitishda keng qo'llanilib kelmoqda. Texnologiya o'zining maqsad, vazifalari, tarkibi qismlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek keys-stadi texnologiyasi tashkil qilishda ma'lum bir oldindan tayyorlangan bosqichlarga amal qilindi va faoliyatda o'qituvchining ham benihoya o'rnini kattadir. Bu jarayonda o'qituvchi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda faoliyat olib boradi, u boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tasdiqlovchi, baho beruvchi vazifalarni bajaradi.

O'rta maxsus kasb –hunar kollejlariida pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llash orqali talabalar kasbiy amaliy jarayonga tayyorlanadilar.

O'rta maxsus, kasb-hunarkollejlarda pedagogik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanishdan maqsad o'quvchilarning bilimlarini ongli, faol va yuqori o'zlashlashtirilishlarga erish va ularni mustaqil ilmiy-ijodiy

izlanuvchanlik faoliyatga tayyorlash, kasbkor ko'nikmalarini shakllantirish, ularda ijtimoiy-siyosiy onglilik, vatanparvarlik, ma'suliyatlilik sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

Keys-stadi texnologiyasi asosida o'qituvchi faoliyati tashkil qilish davomida o'qituvchi o'quvchilarga o'quv materialini shunchaki yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularni birga fikrlashga, mushohada qilishga undaydi, faollashtiradi, o'quv-bilish faoliyatlarini maqsadli tashkil qiladi. Nazariy ma'lumotlarning real jarayonlarga qay darajada to'g'ri kelishini isbotlash maqsadida o'quvchilar hamkorlikda faol izlanishlar olib boradilar, muammo yechimining turli variantlarini ishlab chiqadilar va eng maqbul usul va vositalarni tanlaydilar, natijalarni amaliy tadbqiq qilishni o'rganadilar.

Keyslarda keltirilgan vaziyatlarni tahlil qilish davomida o'quvchilar birgalikda faol izlanadilar, vaziyatning yechimini qidiradilar, masalani hal qilishning turli variantlarini ilgari suradilar, tahlil qiladilar va eng maqbul variantlarini ilgari suradilar, tahlil qiladilar. Ularda shaxsiy tanqidiy munosabatlar tarkib topadi, mulohazalari asosililigini isbotlash uchun muayyan izlanishlar olib boradilar, bir qator ilmiy konsepsiyalar orasidan eng maqbulini tanlaydilar, qo'lga kiritilgan natijalarni taqqoslaydilar, fikrlarni umumlashtirib, aniq xulosalarga kelinadi va faoliyat samarasini ta'minlashga xizmat qiladigan qarorlarni taxmin qilinadi va imkoniyat darajasida amalda qo'llab ko'riladi.

Bu jarayonda o'quvchi bo'lg'usi mutaxassis sifatida jarayoni keng tahlil qiladi, o'quv axborotida keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan ma'lum nuqtai-nazarni shakllantiradi, aniq dalillar asosida bahs-munozara yuritadi, dalillarning asosli yoki asosli emasligini haqida o'ylab ko'radi, o'z faoliyatini iadiy tashkil qilishni o'rganadi. Axborotlarni chuqur va keng qamrovli tahli qilish asosida o'quvchining ilmiy tafakkuri rivojlanadi, mantiqiy izchilikda fikr yuritishni qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Birinchi o'rinda o'quvchi muammo texnologiyasi, uning boshqa ta'lim texnologiyalaridan farqi, ta'limiy vazifalari, o'quv didaktik masalalarini hal

qilishdagi hamda bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy yuksalishidagi o'rni kabi savollarga javob topishi kerak.

Ikkinchidan biz bilamizki, Pedagogika kollejlarda pedagogik fanlar tarkibiga kiruvchi fanlar "Pedagogika," "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi", "Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi" fanlari o'qitilib keladi, aynan mana shu fanlarni chuqur egallashlari talabalar faoliyatida juda muhim. Shuning uchun ham yuqoridagi fanlarni o'qitishda samarali texnologiyalarni qo'llash, tadbqiq qilish lozim.

Yosh pedagog jamoada, guruhda bir so'z bilan amaliy jarayonda ko'pgina muammolarga duch keladi, aynan shu muammoli vaziyatlarda u hamisha chora va imkon izlaydi. Shu o'rinda keys-stadi texnologiyasining ahamiyati seziladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor, Prezidentimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yoshlar bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar maqtasa arzigulikdir. Aynan bu jarayonda dars sifatini, yoshlar bilimini oshirish, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, har qanday muammoning yechimini izlab topa oladigan avlodni tarbiyalash ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Aynan shu maqsadlarni bajarishda keys-stadi texnologiyasining ahamiyati, o'rni kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" - T., "Sharq", 1997 yil, 20-29 betlar
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»" to'g'risidagi Qonuni. "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" -T., "Sharq", 1997 yil, 31-61 betlar
3. O'rta maxsus kasb-hunarta'limining Davlat Ta'lim standartlari. T., 20 b.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar

Mahkamasining qarorlari:

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" 25 sonli qarori J. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami -T., 2006- №2 -13 10-11b.
5. "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi" to'g'risidagi Prezident Farmoni "Ta'lim taraqqiyoti"J. 2004, 3 son, 26 b.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari:

6. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” -T., “Ma’naviyat”, 2008 y, 173 b.
7. Karimov I.A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” - T., “O‘zbekiston”, 1997 y, 62 b.
8. Karimov. I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” -T., “O‘zbekiston” , 1992y, 78 b.
9. Karimov I.A. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”-T., “O‘zbekiston”, 1994y, 299 b.

IV. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

10. Asqarova O‘. “Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar” - T., “Istiqlol”, 2008, 111b.
11. Azizxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” –T., “Adabiyot”, 2006, 158 b.
12. Azizxo‘jayeva N.N. “Педагогические технологии в подготовке учителя” - T., “Adabiyot”, 2010. 210 b.
13. Беспалко В.Р. “Слагаемые педагогической технологии ”– М., 1989, 192 b.
14. Bent Flyvbjerg, Norman K, Denzin and Yvonna. S Lineoln, eds, «Case Study» 2011y, 318 b.
15. Bozorov A.Sh, Usmonov H.A, Bo‘stonov A.R. (“Yoshlar yetakchilari uchun qo‘llanma”) 2009, 220 b.
16. Farberman B. “Ilg‘or pedagogik texnogogiyalar” -T., “O‘qituvchi”, 2001y, 217 b.
17. Farberman L.B, Musina R.G, Jumaboeva F.A. “Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari” - T., “O‘qituvchi”, 2002 y, 228 b.
18. Давлетшин М.Г. Davletshin “Модульная технология обучения” -T., “ТППУ”, 200 b.
19. Декач А.М. “Кейс –метод в обучении органической химии: составление и испольное образование” 2010 й. 145 b.

20. Декач А.М. “Кейс-метод в обучении” Специалист 2010 й №4
21. Долгоруков А. “Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения”- М., “Владос”, 2008 й, 22 б
22. Farberman B. “Ilg’or pedagogik texnologiyalar” -T., “O’qituvchi”, 2001y, 217 b.
23. Farberman L.B, Musina R.G, Jumaboeva F.A. “Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari”- T., “O’qituvchi”, 2002 y, 228 b.
24. Fozilov I, Sultonov R, Saidov X. “O’qituvchi ma’naviyatini shakllantirish” -T., “Sharq”, 2000 y, 118 b.
25. GaryThomos. “How todayour Case Study” Thousand Oaks: Sage 1998, 521b.
26. Harvard Business Publishers for educators resurs Garvard keysov 2001, 217b.
27. Ismoilova Sh.Q. “Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llashning shartlar” –Ur., “Urganch”, 2011y, 176 b.
28. Ishmuhamedov. R, Abduqodirov.A, Pardayev.A “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”- T., 2010y, 180 b.
29. Komenskiy Ya.A. “Buyuk didaktika” -T., “O’qituvchi” 1975 y, 318 b.
30. Козина И. “Casestudy: некоторые методические проблемы” Рубеж. 1997, 189 b.
31. Mavlonova R.A. “Pedagogika”. - T., “O’qituvchi”, 2000 y, 382 b.
32. Mavlonova R, Voxidova N, Raxmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi texnologiyasi” -T., “Fan”, 2010 y, 463 b.
33. Mahmutov M. “Maktabda problemali ta’limni tashkil qilish” - T., “O’qituvchi”, 1981y , 126 b.

34. Madumarov T, Kamoldinov M. “Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim –tarbiya jarayonida qo’llash” -T., “Talqin”, 2012 y, 176 b.
35. Omonov N.T. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” -T., “Iqtisod-moliya”, 2009 y, 240 b.
36. Raymond. “Case Method Teaching Harvard Business School” 1998, 317 b.
37. Rahmonqulova K.O. “Pedagogika nazariyasi va tarixi”-T., “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” , 2010y, 209 b.
38. Saydahmedov N “Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va zamonaviy loyihasi” T., “Ta’lim markazi”, 1999 y, 96 b.
39. Saydahmedov N “ Yangi pedagogik texnologiyalar” T., “Moliya”, 2003 y, 170 b.
40. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” -T., “O’qituvchi”, 1991, 376 b.
41. Tolipov O`, M. Usmonboeva. “Pedagogik texnologiya» nazariya va Amaliyoti” - T., “Fan” 2005 y, 206 b.
42. Xodiyev B, Golish L. “Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo’llash” –T., “Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti” 2009 y, 54 b.
43. Xodiyev B, Golish L “Keys-stadi texnologiyasi iqtisodiy oliy o’quv yurtlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo’llash”-T., “Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti” 2009 y, 32 b.
44. Yo’ldosheva S. “Interfaol usullar” -T., O`zMU “OPI”. 2008 yil, 129 b.
45. Yo’ldosheva S. va boshq. “Kasbiy malaka va pedagogik mahorat asoslari”. -T., O`zMU. 2009 yil, 206 b.
46. Yo’ldosheva S. “Kasb-hunarta’lim muassasalarida pedagogik Texnologiyalar”- T., OPI,. 2009 yil, 226 b.
47. Yo’ldoshev R. Xusainova U, “Ta’limning inerfaol metodlari” -“Urganch” 2011y, 98 b.

48. Ziyomuhammadov B. “Pedagogika texnologiya ” -T., “Tib -kitob” 2009y, 179 b.

V. Ilmiy jurnallardagi maqollar:

49. Alimov X.M. “Aqliy hujum”. Ta’lim va tarbiya. J.-Toshkent:2006-yil, 2-soni.

50. Ashurova D, Yuldo’shev Z. “Ta’lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo’llash – zamon talabi” “Xalq ta’limi” J. – Toshkent: 2006, - № 1. – B. 16-17.

51. Bayboeva A. “Mustaqil ta’lim olish texnologiyasi va kasbga yo’naltirilganlik” “Kasb-hunarta’limi” J. 2005-yil 5-soni.

52. Gerring, John. “Case Study Research, New York Cambredge University” Press

53. George, Alexander L. and Bennett, Andrew. “Case Studies and theory development in the social scienees London MII pres” 2005 y

Internet saytlar:

1. www.pedagog.uz

2. www.ziyonet.uz.

3. www.metodiki.ru

4. www.ta’lim.uz

5. www.pedagog.uz

.

Ilovalar

(1-ilova)

O'qituvchilar uchun so'rovnoma varaqasi.

1. Kasbiy faoliyatingizda tarbiyasi qiyin o'quvchilarga duch kelganmisiz?
2. Agar o'quvchingiz sizning darsingizda shovqin qilsa, darsga halaqit bersa nima qilasiz?
3. Agar o'quvchingiz darsga kech qolip kelsa yoki uy vazifasini tayyorlamasa qanday chora ko'rasiz?
4. Qaysi vaziyatlarda o'quvchingiz bilan munosabatlar o'rtatishda qiynalasiz?
5. Sizningcha o'quvchilar qanday xulq-atvorga ega bo'lishlari kerak deb o'ylaysiz?
6. Sizning xotirangizda qolgan eng yomon o'quvchingiz bormi?

O'quvchilar uchun so'rovnoma varaqasi.

1. Sizningcha eng yaxshi o'qituvchi qanday qiyofada bo'lish kerak?

2. O'qituvchilaringizni qaysi xususiyatlari sizga yoqmaydi?
3. Sizning sevimli o'qituvchingiz kim?
4. O'qituvchingiz bilan orangizda muammo kelib chiqishiga sabab nima bo'ladi?
5. Tez-tez dars qoldirasizmi?
6. Yomon baho olsangiz aybdor kim deb o'ylaysiz?
7. O'qituvchingiz bilan janjallashib qolsangiz aybingizni yuvishga harakat qilasizmi?

Pedagogik fanlar takibiga kiruvchi “Pedagogika”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi”, “Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi” fanlaridan dars ishlanmalari

Mavzu: Shaxsning o'sishi, shakllanishi va tarbiyasi (2-ilova)

(Pedagogika fani misolida)

Rezyume

O'quv jarayonida “Keys –stadi” texnologiyasi qo'llanildi. Samarali natijalarga erishish maqsadida talabalarning mashg'ulot oldi faoliyati tashkil qilinadi. Talabalar manbalarni o'rganish, suhbat, kuzatish, interviyu, anketa

so‘rovnomalar kabi ilmiy-pedagogik tadqiqot uslublaridan samarali foydalangan holda ilmiy-nazariy hamda amaliy manbalarni, maktab o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganadilar, ota-onalar, tayanch maktab murabbiylari, o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazadilar, natijalarni tahlil qiladilar va vaziyatning yechimi bo‘yicha qaror qabul qiladilar.

Kun hikmati:

“Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e‘tibor berilmasa, kelajak boy beriladi...”

I.A. Karimov

Shaxsning o‘sishi, shakllanishi va tarbiyasi

Keys-stadi texnologiyasi asosida.

Pedagogik annotatsiya

O‘quv predmenti: Pedagogika

Ta‘lim shakli: amaliy mashg‘ulot

Ishtirokchilar:

Talabalar soni:

Keysning asosiy maqsadi: Talabalar jamosida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsning o‘sishi, shakllanishi va tarbiyasida zarur bo‘lgan omillarni tahlil qilish, tarbiyaning o‘ziga xos usullarini o‘rgatish.

Keys turi: Ta‘lim- tarbiya beruvchi

O‘quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar

Kutilayotgan natijalar:

1. Talabalar kasbiy jarayonda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish bo'yicha eng to'g'ri va ta'sirchan qarorlarni qabul qilishni o'rganadilar.

2. Talabalarning kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammolarini har tomonlama chuqur o'rganish, asosli xulosalar qilish malakalari rivojlanadi.

3. Ularda muammoni hal qilishga ilmiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi.

4. Talabalar turli manbalar ustida mustaqil tahliliy faoliyatlarni tashkil qilishni o'rganadilar. Manbalar tahlili davomida o'zlarining shaxsiy fikr va xulosalarini shakllantiradilar.

5. Muammoni keng qamrovda, unga ta'sir qiluvchi barcha omillarini e'tiborga olib, atroflicha o'rganish lozimligini bilib oladilar.

6. Talabalarning sodir bo'lgan vaziyat oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha malakalari tarkib topadi.

7. Talabalarning hamkorlikda sermahsul faoliyat yuritish malakalari, istiqbolli natijalar yo'lida aqliy-intellektual imkoniyatlarini birlashtirish, mas'uliyatlilik, ijtimoiy faollik, muloqatchanlik, moslashuvchanlik, pedagogik mas'uliyat kabi sifatlari tarbiyalanadi.

8. Talabalar keng mantiqiy fikrlashni o'rganadilar, ularning dunyoqarashi kengayadi, kasbiy axloq meyorlari to'g'risidagi tushunchalari tarkib topadi, bo'lg'usi kasbiy faoliyatlarni to'g'ri tashkil qilishni o'rganadilar.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar quydagi bilim ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Talaba bilishi kerak: o'quvchilar jamoasi, jamoa ichida ishni tashkil qilish, o'qituvchining pedagogik muloqat uslublari, sinf rahbarining ish uslublari, otalar bilan hamkorlik uslublarini.

Talaba amalga oshirish kerak: mavzuni mustaqil o'rganadi, muammoning mohiyatini aniq tushunib oladi, uning kasbiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatlilik jihatlarini belgilab oladi, o'z shaxsiy tanqidiy fikrlarga ega bo'lib, mantiqiy xulosalar qilishi, ilmiy-nazariy hamda amaliy manbalar ustida mustaqil ishlashi va natijalarini umumlashtirishi lozim.

Talaba ega bo'lmog'i kerak: muloqatchanlik, hamkorlikda ijodiy ishlash, mustaqil tadqiqot vazifalarni bajarish, hisobot, prezentasiyalarni tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Turi va manbalaridan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Keys ta'lim-tarbiya beruvchi keys turiga kiradi, keysning asosiy manbasi pedagoglarning ish tajribasi davomida yuz bergan muammolar. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgan. Bu syujetli, prognostik, ko'p sub'ektkli keys bo'lib, muammoli vaziyat asosida tuzilgan. Keys jamoa orqali munozarani tashkil qilishga mo'ljallangan bo'lib, didaktik maqsadlarga ko'ra mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Ushbu keysdan pedagogika fani bo'yicha amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Vaziyat

Sinf rahbari tarbiyasi qiyin bolaning ota-onasi bilan suhbat olib bormoqda.

O'quvchi ko'p vaqtlarda maktabga darslarni tayyorlamasdan keladi, qo'pol, o'yinqoroq. Maktab intizomini mensimaydi. Masalan, dars paytida maktab oshxonasida yuradi. So'rmasdan darslardan ketib qoladi. Chorak oxirida reyting kundaligi haftada almashadi, baholari past chiqiyapti.

Uning otasi fan doktori, professor, rahbar, onasi vrach. Pedagogning gaplariga quyidagicha javob beradi:

-Tushunsangizchi, biz Davlat ishlari bilan juda band odamlarmiz. Mening ishim juda ham mas'uliyatli ish! O'g'lim bilan shug'ullanishga mening hech vaqtim yo'q. Onasining ham ishlari ko'p. Biz maktabga yuborayapmiz. Maktab uchun kerakli narsalarni olib berayapmiz, maktab vaqtiga sizlar javob berasiz, tarbiyalaysizlar ! Bu sizning vazifangiz emasmi?

Pedagog, oila bilan maktab hamkorligida ish olib borsagina tarbiya samara berishi mumkinligini uqtirganda, u yana e'tiroz bildirdi:

- Nima ish qilish kerak bo'lsa, oilaga bo'g'liq bo'lgan ishlarning hammasini qilyapman. Uyda kompyuter bor, internetga ulab qo'ydim, kutubxonamiz mavjud, ingliz tili, rus-tillaridagi o'quv kassetalar kolleksiyasi bor.

Ota tarbiyadagi o'z ishtirokiga oid elementlarni uzoq sanadi. Bularni eng asosiy deb hisobladi, ammo o'g'lining xulqi haqidagi sinf rahbari tomonidan bildirilayotgan tashvishli xabarga e'tibor qilmadi.

(O' . Asqarova.“ Pedagogikadan
amaliy mashqlar va masalalar”)

Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Talabalar vaziyat bilan tanishgandan keyin o'qituvchi ularga ishni to'g'ri tashkil qilishlari uchun ko'rsatmalar beradi. Keys-stadi texnologiyasida vaziyatni hal qilishda, talabalar vaziyatni tashkil qilish bosqichlarini navbatma-navbat bosib o'tadilar.

Ishni tashkil qilish bosqichlariva maslahat va tavsiyalar:

5. Keys bilan tanishish:

- c) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
- d) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.

6. Berilgan vaziyat bilan tanishish:

- d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.
- e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
- f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.

7. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o‘rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

- 9. Vaziyat qachon, qanday holatda sodir bo‘ldi?
- 10. Sinf rahbari harakat motivlarini tahlil qilish?
- 11. O‘quvchi harakat motivlarini tahlil qiling ?
- 12. Ota-onaning harakat motivlarini tahlil qiling?
- 13. Muammoni asosiy keltirib chiqaruvchi sabablar nimada deb hisoblaysiz ?
- 14. Qanday qilib keskin pedagogik vaziyatni oldini olish mumkin edi ?
- 15. Voqeallarni keying rivojlanishi qanday bo‘lishi mumkin ?
- 16. Vaziyatning yechimini taklif qiling ?

8. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

- d) Vaziyat yechimini topish maqsadida “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring.
- e) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o‘rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.
- f) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Muammoli vaziyatning yechimi
O‘quvchining tarbiyasi qiyin o‘quvchiga	O‘quvchini tarbiyasi bilan vaqtida shug‘ullanmaganlik	Tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish kerak

aylanishi		
Ota-onaning farzandi tarbiyasiga befarqligi , o'z mas'liyatli vazifasini bajarmasligi	Ota-ona bolasiga e'tiborsizligi	Ota-onaning majburiyatlarini to'g'ri tushuntirish lozim
Bolaning oilaviy muhitda nazoratsiz qolganligi	Bolaning o'qishga qiziqishining yo'qligi	Bola qiziqadigan fanlarga e'tiborini oshirish
O'qituvchining o'quvchi bilan hamkorlikni tashkil qila olmaganligi	Bolaning psixologik holatlariga e'tibor bermaslik	O'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganish

(3-ilova)

Mavzu: O`quvchilarning bilim, ko`nikma, malakalarini hisobga olish va baholash tizimi

(Pedagogika fani misolida)

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys –stadi" texnologiyasi qo'llanildi. Keysni qo'llashdan oldin uning tashkiliy qismiga tayyorgarlik ko'riladi. Mavzu asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari baholash usullari, baholash meyorlari, baholashda pedagogik- psixologik iqlimning mavjudligi o'rganiladi. O'quv jarayoni keys-stadi texnologiyasi asosida o'tkaziladi, keysdagi vaziyatni tahlil qilish orqali talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari, ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi. O'quvchilarning bilimlarini baholashda qo'llaniladigan metodlar, baholash jarayonidagi o'qituvchilarning tajribalari tahlil qilinadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olish va baholash tizimi

Keys-stadi texnologiyasi asosida.

Pedagogik annotatsiya

O'quv predmenti: Pedagogika

Ta'lim shakli: amaliy mashg'ulot

Ishtirokchilar:

Talabalar soni:

Keysning asosiy maqsadi: Talabalar jamosida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning bilim ko'nikma, malakalarini baholash tizimi haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish, talabalarga odilona baholash usullarini o'rgatish.

Keys turi: Ta'lim- tarbiya beruvchi

O'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar

Kutilayotgan natijalar:

1. Talabalar kasbiy jarayonda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish bo'yicha eng to'g'ri va ta'sirchan qarorlarni qabul qilishni o'rganadilar.
2. Talabalarning kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammolarini har tomonlama chuqur o'rganish, asosli xulosalar qilish malakalari rivojlanadi.
3. Ularda muammoni hal qilishga ilmiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi.

4. Talabalar turli manbalar ustida mustaqil tahliliy faoliyatlarni tashkil qilishni o'rganadilar. Manbalar tahlili davomida o'zlarining shaxsiy fikr va xulosalarini shakllantiradilar.

5. O'quvchilar bilimini baholashda yuzaga keluvchi muammolarni oldindan hal qilishni talabalar o'rganadilar.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar quydagi bilim ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Talaba bilishi kerak: o'quvchilar jamoasi, jamoa ichida ishni tashkil qilishni, bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish yo'llarini, baholash tizimi va me'yorlarini, o'quvchilarni bilim savyasiga qarab rag'batlantirish usullarini

Talaba amalga oshirish kerak: mavzuni mustaqil o'rganadi, muammoning mohiyatini aniq tushunib oladi, uning kasbiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatlilik jihatlarini belgilab oladi, o'z shaxsiy tanqidiy fikrlarga ega bo'lib, mantiqiy xulosalar qilishi, ilmiy-nazariy hamda amaliy manbalar ustida mustaqil ishlashi va natijalarini umumlashtirishi lozim.

Talaba ega bo'lmog'i kerak: muloqatchanlik, hamkorlikda ijodiy ishlash, mustaqil tadqiqot vazifalarni bajarish, hisobat, prezentasiyalarni tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lmog'i kerak.

Turi va manbalaridan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Keys ta'lim-tarbiya beruvchi keys turiga kiradi, keysning asosiy manbasi pedagoglarning ish tajribasi davomida yuz bergan muammolar. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgan. Bu syujetli, prognostik, ko'p sub'ektki keys bo'lib, muammoli vaziyat asosida tuzilgan. Keys jamoa orqali munozarani tashkil qilishga mo'ljalangan bo'lib, didaktik maqsadlarga ko'ra mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Ushbu keysdan pedagogika fani bo'yicha amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Vaziyat

Darsning bir qismi bilan tarnishing.

- Qani, Sohibga qanday baho qo'yamiz? Nodir sening fikring.
- Unga "to'rt" qo'ysa bo'ladi.
- Nima uchun? Uning javobida qanday yaxshi tomonlar va qanday kamchiliklar bor? Nimaga asosan sen unga "to'rt" qo'yish kerak deb hisoblaysan?
- U masalani to'g'ri yechdi, ammo qo'shimcha savolga javob bermadi.
- Bu jiddiy kamchilikmi yoki kechirsa bo'ladimi?
- Eruvchanlikning nima ekanligini bilish kerak albatta.
- Odil, javobga sening qanday e'tirozing bor?
- Sohib masalani birdan yechmadi. U tutilib qoldi va tashqaridan yordam kutdi, chunki proporsiya tuza olmadi.
- Sen Sohibga necha baho qo'yishni tavsiya qilasan?
- Bugun unga "uch" baho qo'ysa bo'ladi, deb o'ylayman.
- Ha, unga "uch" baho qo'ysamiz. Shuni ta'kidlaymizki, kimyodan bilimlar sifati ko'p jihatdan matematik malakalarga bo'g'liq. Har ikki fanni sinchkovlik bilan o'rganish kerak.

(O'. Asqarova. " Pedagogikadan
amaliy mashqlar va masalalar")

Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

2. Keys bilan tanishish:

a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.

b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.

3. Berilgan vaziyat bilan tanishish:

g) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.

h) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.

i) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.

4. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o‘rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. O‘qituvchi qo‘yiladigan bahoning munozarasiga o‘quvchilarni jalb qilish bilan qanday tarbiyaviy, didaktik masalani o‘rtaga tashlayapti?

2. O‘qituvchi baholash jarayonida qanday usuldan foydalaniyapti? Nima uchun bu usulni qo‘llab, ongli holda ortiqcha vaqt saralayapti?

3. Bu uslubda baholash ta’lim me’yorlariga to‘g‘ri keladimi?

4. Baholashdagi bu jarayoni qaysi sinfdan boshlab doimiy tarzda qo‘llashni tavsiya qilar edingiz? Nima sababdan?

5. O‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalarini yana qanday usullarda baholash mumkin?

6. Voqeallarni keying rivojlanishi qanday bo‘lishi mumkin ?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

g) Vaziyat yechimini topish maqsadida “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring.

h) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o‘rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.

i) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo‘llari va

		sizning harakatlaringiz.
O'qituvchi qo'yiladigan bahoning munozarasiga o'quvchilarni jalb qilishi	O'qituvchining holati	O'qituvchini baholash metodini to'g'ri olib borildi. Chunki o'quvchiga sinfdoshlarinig fikri tezroq ta'sir qiladi
O'quvchining psixologik xususiyatlari	O'quvchilarning holati	Baholash jarayonida o'quvchining ichki holatlarini e'tiborga olish lozim
O'quvchilarning teshdoshlarga munosabati	Guruhdagi psixologik iqlim	Guruhda jamoaviy birdamlik tushunchalarini shakllantirish
Baholash jarayoni	O'quvchilarning baholash jarayoniga aralashuvi	Demokratik tamoyillarni baholash jarayonida qo'llash lozim

(4-ilova)

Mavzu: Maktab, oila va mahalla hamkorligi

(Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani)

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda

kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Maqsad talabalarga maktab, oila, mahalla hamkorligi, tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini vaziyat asosida ko'rsatib berish, shuningdek ta'lim- tarbiya jarayoning to'g'ri tashkil qilinishida, sinf rahbar va ota-onalar hamkorligi zarurligini ko'rsatib berish. Ta'lim- tarbiya jarayoni bir tomonlama olib boriladigan jarayon emasligini, unda ijtimoiy muhitning barcha qatlamlari ishtirok qilsa samara berishini talaba ongiga sindirishdam iborat.

Mashg'ulotning turi: amaliy

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : “Aqliy hujum”

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Tayanch tushunchalar: maktab, mahalla, oila, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, o'qituvchi va ota-ona hamkorligi, ijtimoiy muhit.

Tayanch o'quv materiali:

O'quv topshirig'i:

1. Ushbu vaziyatni o'qib chiqing.
2. Vaziyatni tahlil qiling va unda ko'rsatilgan muammoga nisbatan o'z fikrlaringizni bildiring.
3. Muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rsating.
4. Uni bartaraf qilish bo'yicha o'z takliflaringizni bildiring.

Vaziyat

6-sinf ota-onalar majlisida o'qituvchi har qaysi ota-onani o'z farzandi o'tiradigan partada o'tirishini taklif qildi. U har qaysi ota-onaning oldiga o'z bolasining daftari va buklangan qog'ozni partaga qo'yib chiqdi. Buklangan qog'ozda faqatgina ota-onaga tegishli yozuv bor edi. Masalan:

“Dilnozada ancha o'zgarishlar bor, yaxshi o'qiyapti, biroq matematikadan biroz qiynaliyapti. Shu fandan qo'shimcha darsga borsin. Iltimos, dushanba kuni soat 13;00 da kelsangiz matematika fani o'qituvchisi bilan maslahatlashib olasiz”.

“Mohira parishonxotir, hamma narsaga e'tiborsiz, fanlarni o'zlashtirishga harakat qiliyapti. Suhbatlashish uchun qolishingizni so'rayman”.

“Sevara juda harakatchan, lekin so’zlab berishda qiynaladi. Fikrlashiga, nutqiga e’tibor berish kerak”.

“Anvarning o’qishlari pasayib ketdi, musiqaga qiziqadi, qizlarga qarab faqat qo’shiq aytadi. Iste’dodi haqida o’ylab ko’rish kerak”.

O’qituvchi ota-onalarning har biriga farzandlarining xulq-atvori yozilgan qog’ozlarni berib chiqdi. Sinfidagi ko’pchilik o’quvchilarida yuqoridagi kabi ta’limiy-tarbiyaviy kamchilik bor edi.

(O’. Asqarova. “ Pedagogikadan
amaliy mashqlar va masalalar”)

Mashg’ulotning borishi

Ish bosqichlari va mazmunini	O’qituvchining faoliyati	Talabalar faoliyati	Kutilayotgan natijalar
1-bosqich 10 daqiqa Tayyorl	Talabalar 4-6 kishidan iborat kichik jamoalarga birlashadilar. Jamoa ichida har bir talabaning	Talabalar mashg’ulot mavzusini hamda bosqichlari, qoidalari kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar.	Talabalarda mashg’ulotga nisbatan kuchli qiziqish shakllanadi, ular hamkorligida ta’limiy faoliyatga tayyor

ov	Faoliyati tashkil qilinadi, ya'ni lider va guruhning boshqa a'zolarini vazifalari belgilab olinadi, kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, faoliyat uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi. O'qituvchi talabalarga fikrlarini qayd qilib borishlari uchun vatman qog'ozi, markerlarni tarqatadi. Talabalar orasidan ikki kishidan iborat ekspertlar guruhi belgilanadi.	Kichik jamoa ichida faoliyatlarini muvofiqlashtiradilar.	bo'ladilar
2-bosqich 10 daqiqa Kirish	Har bir kichik jamoaga vaziyatlarning yozma variyatlari tarqatiladi. O'qituvchi tahlil qilinishi kutilayotgan vaziyat mazmuni bilan jamoa a'zolarini batafsil tanishtiradi, uning muammolilik jihatlariga talabalar	Talabalar mashg'ulotda tahlil qilinishi kerak bo'lgan vaziyatlarning yozma matnlarini qabul qilib oladilar, uning mazmuni bilan tanishadilar, tushunmovchiliklar yuzaga kelsa o'qituvchiga savollar berib, aniqlashtirib	Talabalar mavzuning dolzarbligini, amaliy ahamiyatini tushunib etadilar. Ular ilmiy mushohada yuritishni, muammoni keng qamrovda mantiqiy jihatdan tahlil qilishni o'rganadilar. Masalaga nisbatan shaxsiy fikr tarkib topadi.

	e'tiborini qaratadi masalaning ijtimoiy ahamiyatlilik darajasini yoritib beradi, o'quv topshirig'ini batafsil tushuntiradi. O'qituvchi vaziyat tahlili bo'yicha ishni boshlash to'g'risida buyruq beradi.	oladilar.	
3-bosqich. Vaziyat tahlili 25 daqiqa	Talabalar faoliyatini kuzatadi, barchaning ta'limiy jarayoniga jalb qilinganligiga e'tibor qaratadi, zarur hollarda talabalarga yordam keladi.	Talabalar muammoli vaziyatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni ko'rsatadilar, oqibatini tahlil qiladilar, pedagogik vaziyatda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlaydilar. O'z xulosalarni aniq ilmiy va amaliy dalillar bilan asoslaydilar. Talabalar o'zlari chiqargan xulosalarini tahlil qilib eng to'g'ri deb topganlarini vatman qog'oziga yozib oladilar.	Talabalarda mashg'ulotda muhokamaga qo'yilgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat yuzaga keladi, ular nazariy darslarda o'rgangan bilimlari, shuningdek, ilmiy-nazariy manbalarni, hamda amaliy faoliyat jarayonini mustaqil tahlil qilish davomida to'plangan ma'lumotlari asosida mantiqiy fikrlaydilar, ularda pedagogik muloqat madaniyati, pedagogik odob, o'qituvchining obro'si va uni shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, o'quvchi kelajagi uchun

			ma`suliyat,uning shaxsini xurmat qilish,ta`lim jarayonida insonparvarlik, o`quvchi shaxsini shakllantiradi ijobiylikka tayanish kabi tushunchalar tarkib topadi.
4-bosqich. 25 daqiqa. muhokama.	O`qituvchi o`quv topshirig`ining bajarilganligini tekshirish uchun har jamoadan bittadan vakilni o`rtaga taklif qiladi.	Talabalar jamoalarida o`z nuqtai-nazarlarini asoslaydilar. Buning uchun ular ilmiy-nazariy va amaliy ma`lumotlarni keltiradilar, pedagogik jarayon haqida fikrlarini bildiradilar. Ular otanonalar bilan o`qituvchi o`rtasidagi bo`g`lanishlarni chuqur tahlil qiladilar. Nima uchun tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda oila, mahalla, maktab hamkorliklari zarurligini asoslab beradilar. Shuningdek vaziyatni muvaffaqiyatini ta`minlash uchun ijobiy yechimlarni keltiradilar.	Talabalarning pedagogik keskinliklarni oldini olish, vaziyatni aniq tashkil qilish ko`nikmalari, dars va uning ta`limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari to`g`risidagi tushunchalari kengayadi. Keltirilgan manbalar orqali ma`lumot to`plash, tahlil qilish va shu asosda o`z nuqtai-nazarini shakllantirish, fikrlarni aniq dalillar bilan asoslashni o`rganadilar. Ta`rbiyaviy ishlarni tashkil qilish haqidagi bilimlari amaliy jihatdan mustahkamlanadi.

5-bosqich. Yakun	O'qituvchi talabalar faoliyatini baholaydi, xato kamchiliklar, shuningdek, qo'lga kiritilgan yutuqlar to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi, noaniqliklarni tushuntiradi. Talabalarga o'z-o'zini baholash uchun imkoniyat yaratadi	Talabalar bir-birlarining yutuq va kamchiliklarini xolisona ko'rsatadilar. Mashg'ulotning tashkil qilinishi bo'yicha taklif va xulosalarini bildiradilar.	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari mustahkamlanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda maktab, oila, maxalla hamkorliklarini mazmun mohiyatini tushunadilar, natijada nazariya amaliyot bilan bog'lanadi.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz.
O'quvchilar ta'lim-tarbiyasida yuzaga keluvchi kamchiliklar	Dilnozaning matematika fanini o'zlashtirishda qiynalayotganligi, Mohiraning parishanxotirligi, Sevarada muloqatchanlik ko'nikmalarini rivojlanmaganligi	Matematika fanni bo'yicha individual darslar tashkil qilish, bilish jarayonlarini rivojlantirish,

O'qituvchining jarayoni tashkil qilishda qo'llagan uslubi	Ota-onalarning o'quv jarayondagi ahamiyati	O'quvchilar ta'lim-tarbiyasida doimo ota-onalarni jalb qilish
Ota-onalar yig'ishlarining ahamiyati	Ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazishda no'anaviylik	O'qituvchi ota-onalar yig'lishida yangicha uslubni to'g'ri tashkil qilgan va ota-onalarga farzandlari haqida ma'lumot bergan.
O'quvchilarning psixologik holati	O'quvchilarning ruhiy holatining o'quv jarayonga ta'siri	Har qanday jarayonda o'quvchilarning ruhiy holatini e'tiborga olish lozim.

(5-ilova)

Mavzu: Sinf jamoasini tashkil qilish va uni tarbiyalash metodikasi

(Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani)

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Maqsad: sinf jamoasini shakllantirishda sinf rahbarining o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalar bilan hamkorlik aloqalari, tashkilotchilik qobiliyatlari juda muhimdir, talabalarda bu kabi xislatlarni tarkib toptirish va talabalarga sinf jamoasini tashkil qilish va jamoani tarbiyalash jarayoni haqida ma'lumotlar berish, ularni sinf jamoalarini tashkil qilishga o'rgatish, oldindan yuzaga keladigan vaziyatlarga tayyorlashdan iborat.

Mashg'ulotning turi: amaliy

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : “Aqliy hujum”

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Tayanch tushunchalar: sinf jamoasi, sinf rahbar, tashkilotchilik, ota-onalar bilan hamkorlik.

Vaziyat

6-sinf o'quvchisi kundaligini yo'qotib qo'ydi. Unda ikki nafar fan o'qituvchisining va unga nisbatan sinf rahbarining quydagicha so'zlari bor edi:

“Darsda juda yomon o'tirganligi, xulqi uchun yomon baho qo'yildi, o'rtoqlarining dars tinglashiga xalqit berdi. O'qituvchiga gap qaytardi, tartibga chaqirib qo'ying”. “Sinf rahbarini va sinf jamoasini hurmat qilmaydi va tan olmaydi. Yaqin o'rtoqlar orasiga sovuqchilik solidi. Chora ko'rishingizni so'rayman!”

1.Vaziyatni baholang:

a) Sinf rahbari va o'quvchi tomonidan kundaligiga o'sha yozuv yozilgan 6-sinf o'quvchisi tomonidan turib;

b) O'qituvchilar tomonidan turib;

d) Sinf rahbari tomonidan turib;

e) O'quvchi ota-onasi tomonidan turib;

2. Sinf rahbari ota-onalar tomonidan ko'riladigan qanday choralarga umid bog'layapti?

3. O'quvchi kundaligining vazifasi nimada deb bilasiz?

4. O'quvchini jamoani faol a'zosiga aylantirishi uchun nimalar qilish kerak?

5. Sizningcha jamoa o'zi avvaldan yaxshi tashkil qilinganmi?

(O'. Asqarova. "Pedagogika amaliy mashqlar va masalalar")

Mashg'ulotning borishi

Ish bos- qichlari va maz- muni	O'qituvchining faoliyati	Talabalar faoliyati	Kutilayotgan natijalar
1- bosqich 10 daqqa Tayyorl ov	Talabalar 4-6 kishidan iborat kichik jamoalarga birlashadilar. Jamoa ichida har bir talabaning Faoliyati tashkil qilinadi, ya'ni lider va guruhning boshqa a'zolarini vazifalari belgilab olinadi, kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, faoliyat uchun ajratilgan vaqt hajmini	Talabalar mashg'ulot mavzusini hamda bosqichlari, qoidalari kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Kichik jamoa ichida faoliyatlarini muvofiglashtiradilar.	Talabalarda mashg'ulotga nisbatan kuchli qiziqish shakllanadi, ular hamkorligida ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar

	aniqlaydi. O'qituvchi talabalarga fikrlarini qayd qilib borishlari uchun vatman qog'ozi, markerlarni tarqatadi. Talabalar orasidan ikki kishidan iborat ekspertlar guruhi belgilanadi.		
2- bosqich 10 daqiqa Kirish	Har bir kichik jamoaga vaziyatlarning yozma variyatlari tarqatiladi. O'qituvchi tahlil qilinishi kutilayotgan vaziyat mazmuni bilan jamoa a'zolarini batafsil tanishtiradi, uning muammolilik jihatlariga talabalar e'tiborini qaratadi masalaning ijtimoiy ahamiyatlilik	Talabalar mashg'ulotda tahlil qilinishi kerak bo'lgan vaziyatlarning yozma matnlarini qabul qilib oladilar, uning mazmuni bilan tanishadilar, tushunmovchiliklar yuzaga kelsa o'qituvchiga savollar berib, aniqlashtirib oladilar.	Talabalar mavzuning dolzarbligini, amaliy ahamiyatini tushunib etadilar. Ular ilmiy mushohada yuritishni, muammoni keng qamrovda mantiqiy jihatdan tahlil qilishni o'rganadilar. Masalaga nisbatan shaxsiy fikr tarkib topadi.

	darajasini yoritib beradi, o'quv topshirig'ini batafsil tushuntiradi. O'qituvchi vaziyat tahlili bo'yicha ishni boshlash to'g'risida buyruq beradi.		
3-bosqich. Vaziyat tahlili 25 daqiqa	Talabalar faoliyatini kuzatadi, barchaning ta'limiy jarayoniga jalb qilinganligiga e'tibor qaratadi, zarur hollarda talabalarga yordam keladi.	Talabalar muammoli vaziyatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni ko'rsatadilar, oqibatini tahlil qiladilar, pedagogik vaziyatda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlaydilar. O'z xulosalarni aniq ilmiy va amaliy dalillar bilan asoslaydilar. Talabalar o'zlari chiqargan xulosalarini tahlil qilib eng to'g'ri deb topganlarini vatman qog'oziga yozib	Talabalarda mashg'ulotda muhokamaga qo'yilgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat yuzaga keladi, ular nazariy darslarda o'rgangan bilimlari, shuningdek, ilmiy-nazariy manbalarni, hamda amaliy faoliyat jarayonini mustaqil tahlil qilish davomida to'plangan ma'lumotlari asosida mantiqiy fikrlaydilar, ularda pedagogik muloqat madaniyati, pedagogik

		oladilar.	odob,o`qituvchining obro`si va uni shakllanishiga ta`sir qiluvchi omillar,o`quvchi kelajagi uchun ma`suliyat,uning shaxsini xurmat qilish,ta`lim jarayonida insonparvarlik, o`quvchi shaxsini shakllantiradi ijobiylikka tayanish kabi tushunchalar tarkib topadi.
4- bosqich. 25 daqiqa. muhoka ma.	O`qituvchi o`quv topshirig`ining bajarilganligini tekshirish uchun har jamoadan bittadan vakilni o`rtaga taklif qiladi.	Talabalar jamoalarida o`z nuqtai-nazarlarini asoslaydilar. Buning uchun ular ilmiy-nazariy va amaliy ma'lumotlarni keltiradilar, vaziyat haqida fikrlarini bildiradilar. Ular sinf jamoasini, o`quvchi xulq atvorini, sinf rahbari faoliyatini	Talabalarning pedagogik keskinliklarni oldini olish, vaziyatni aniq tashkil qilish ko`nikmalari, dars va uning ta`limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari to`g`risidagi tushunchalari kengayadi.

		tahlil qiladilar. Nima uchun tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda sinf jamoasi, sinf rahbar faoliyati to'g'ri tashkil qilish kerakligini asoslab beradilar. Shuningdek vaziyatni muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ijobiy yechimlarni keltiradilar.	Keltirilgan manbalar orqali ma'lumot to'plash, tahlil qilish va shu asosda o'z nuqtai-nazarini shakllantirish, fikrlarni aniq dalillar bilan asoslashni o'rganadilar. Ta'rbiyaviy ishlarni tashkil qilish haqidagi bilimlari amaliy jihatdan mustahkamlanadi.
5- bosqich. Yakun	O'qituvchi talabalar faoliyatini baholaydi, xato kamchiliklar, shuningdek, qo'lga kiritilgan yutuqlar to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi, noaniqliklarni tushuntiradi. Talabalarga o'z-o'zini baholash uchun imkoniyat	Talabalar bir-birlarining yutuq va kamchiliklarini xolisona ko'rsatadilar. Mashg'ulotning tashkil qilinishi bo'yicha taklif va xulosalarini bildiradilar.	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari mustahkamlanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda maktab, oila, maxalla hamkorliklarini mazmun mohiyatini tushunadilar, natijada nazariya amaliyot bilan bog'lanadi.

	yaratadi		
--	----------	--	--

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo`llari va sizning harakatlaringiz.
O'quvchilar jamoasi	O'quvchilar jamoasi kelishmovchiliklar, jamoadoshlarni mensimaslik	O'quvchilar jamoasini ijobiy tomonga o'zgartirish, jamoaviy birdamlik tushunchalarini shakllantirish.
Sinf rahbariga bildirilayotgan e'tirozlar	O'qituvchilarning, o'quvchilar bilan munosabati shakllanmaganligi.	O'qituvchilar jamoasi o'quvchilarni o'z fanlariga nisbatan ijobiy munosabati uyg'otishi lozim
O'quvchilarning psixologik holati	O'quvchilarda yosh xusiyatlaridagi o'zgarishlar	O'qituvchilar o'quvchilarning psixologik holatlarini e'tiborga olishi kerak

(6-ilova)

Mavzu: O`quvchilarni madaniy hulq-atvor ko`nikmalari bilan tanishtiruvchi mashg`ulotlar

(Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi fani)

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Maqsad: O'quvchilarga odob-axloq haqida tushuncha berish, madaniy hulq-atvor ko'nikmalari bilan tanishtirish va mashg'ulot orqali o'quvchilarda salomlashish, so'zlashish odobi, ota-ona, aka-uka, opa-singillarga, birodarlariga muloqat qilish odobini o'rgatish. Dasturxon atrofida o'zini tutish ko'nikmalarini tarkib toptirish. Orastalik insoniy fazilat ekanligi, odamlarning kiyimi, sochi, umuman tashqi qiyofasi, har tomonlama tartibli kiyinish, o'zini tutish, tartibli olib yurish, uy-joylarni, maktab, sinf xonalarini, o'quv qurollarini saranjom-sarishta tutish malakalarini singdirish. O'quvchilarda madaniy hulq-atvor ko'nikmalarini tarkib toptirishda xalq ijodining mahsuli afsona, ertak, maqol, rivoyat va hikoyatlardan unumli foydalanishdan iborat.

Mashg'ulotning turi: amaliy

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : Keys-stadi

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Tayanch tushunchalar: odob-axloq haqida tushuncha, madaniy hulq-atvor, orastalik.

Tayanch o'quv material:

O'quv topshirig'i:

1. Ushbu vaziyatni o'qib chiqing.

2. Vaziyatni tahlil qiling va unda ko'rsatilgan muammoga nisbatan o'z fikrlaringizni bildiring.
3. Muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rsating.
4. Uni bartaraf qilish bo'yicha o'z takliflaringizni bildiring

Vaziyat

Sharifa opa 7 "a" sinf rahbari hozirda uni o'quvchilarining odob-axloqi juda tashvishlantiriyapti. Sinf jamoasi aslida ahil-inoq ko'rinadi, ammo yaqindan tanishsagiz sinfdan norozi holatda chiqasiz. Kecha Sharifa opa kasbdoshlaridan o'quvchilari haqida salbiy fikrlar eshitdi. Sharifa opa o'ylanganicha kechagi gaplarni hayolidan o'tkazardi:

-Nodiringiz bilmayman qanday bola, koridorda uchratib qolsangiz salom berishga aqlli yetmaydi. Hechnima bilmagan, ko'rmaganday yoningdan o'tib ketaveradi. Kiyimlariga onasi qaramasmikan hamisha kir, g'ijim bo'lib yuradi.- dedi o'quvchidan nolib adabiyot o'qituvchisi Sojida.

- Ey Nodirni qo'ying,-deb gapga aralashdi biologiya o'qituvchisi Munira-Jamolchi na o'qituvchilarni hurmat qiladi, na sinfdoshlarini, darsda qachon qarama bir nimalarni muhokamaga qo'yib janjal chiqaradi. Gapirganda baqirib gapiradi, shovqinidan boshing og'rib ketadi, sening "qo'y o'tir, shovqin solma" degan gapi qulog'iga ham yetib bormaydi.

- Sharifa opa xafa bo'lmang-u qizlaringiz axloq-odob, madaniyat nimaligini bilishmaydi. Darsda saqis shamillatib yuzinga tik qarab o'tirishadi, ko'plari telefon o'ynab darsga halaqit berishadi, bizni davrlarimizda qizlar, og'il bolalardan uyalishardi, bularda na uyat bor, na tortinish, tavba, tavba...-deya matematika o'qituvchisi Manzura opa norozi holda gapirardi.

Sharifa opa mum tishlagancha o'qituvchilarning sinfi haqidagi salbiy fikrlarni eshitdi. Ayni paytda nima qilsam ekan degan savol uni o'ylantirardi.

“Sinfim bilan muloqatga kirishish o‘zim uchun muammo bo‘lib turganda, bu e’tirozlar ham kelib qo‘shildi” deya muammolarni bartaraf qilish yo‘llarini izlardi.

(Hayotiy voqea)

Talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar

Ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
 - d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o‘rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. Sinf rahbariga bildirilayotgan e’tirozlar nima sababdan yuzaga kelgan?
 2. Sizningcha namunaviy o‘quvchi qiyofasi qanday bo‘lishi lozim va siz uni qanday tasavvur qilasiz?
 3. Bu tariqa o‘qituvchilarning noroziligini asosli va to‘g‘ri deb bilasizmi?
- ta’lim me’yorlariga to‘g‘ri keladimi?

4.Sizningcha nima qilsa o'quvchilarning xulq-atvori, ozodaligi, muloqat madaniyati ijobiy tomonga o'zgaradi?

5.Agar siz shu sinfning sinf rahbari bo'lib qolsangiz nima qilardingiz yoki fan o'qituvchilari?

6.Nafosat tarbiyasi deganda nimani tushunasiz va qanday qilib buni o'quvchilar ongida rivojlantirasiz?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

d) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring.

e) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.

f) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz.
O'quvchilar tarbiyasidagi holatlar	O'quvchilar hulq atvorida axloq normalarining buzilishi	O'quvchilar hulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish
Sinf rahbariga bildirilayotgan e'tirozlar	O'qituvchilarning, o'quvchilar bilan munosabati shakllanmaganligi.	O'qituvchilar jamoasi o'quvchilarni o'z fanlariga nisbatan ijobiy munosabati uyg'otishi lozim
O'quvchilarning psixologik holati	O'quvchilarda yosh xusiyatlaridagi o'zgarishlar	O'qituvchilar o'quvchilarning psixologik holatlarini e'tiborga olishi kerak

--	--	--

(7-ilova)

Mavzu :KUG larda sport-sog`lomashtirish mashg`ulotlari

(Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta`lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi fani)

Rezyume

O`quv jarayonida “Keys-stadi” texnologiyasi qo`llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo`lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o`rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo`yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo`yadilar.

Maqsad: Jismoniy sog`lomashtirish ishlari va uning barkamol shaxs tarbiyasidagi o`rnini, O`zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy tarbiya va sport ishlarining ommaviyligini oshirish haqidagi ko`rsatmalarini, sinf va maktabdan tashqari jismoniy sog`lomashtirish faoliyatini, maktab, oila, jamoa tashkilotlari va tarbiyaviy joyda aloqasi bo`lgan barcha shaxslarning hamjihatlikda ishlash tizimini tashkil etish jarayonlaridan kelib chiqib o`quvchilarning dars soatlari, mashg`ulotlarida salomatlik daqiqalari (soati), harakat uchun tanaffus, sayr qilish, salomatlik va sport kunlari, jismoniy tarbiya bayramlari, sog`lomashtirish lagerlari, turistik sayohat, bolalar dam olish bog`ida, yashab turgan hududida, sport seksiyalarida tashkil qilishga o`rgatish, ularni bu faoliyatlar bilan tanishtirish.

Shuningdek bo`lg`usi mutaxassislariga Vatanimiz sha`nini munosib himoya qila oladigan sog`lom, baquvvat, irodali, chiniqqan yosh avlodni tarbiyalashda harakatli o`yinlar, sport musobaqalari va yozgi sog`lomashtirish ishlarini o`rni katta ekanligini tushuntirish, faoliyatlarida qo`llashga o`rgatish.

Mashg`ulotda qo`llaniladigan innovatsion texnologiya : Keys-stadi

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Tayanch tushunchalar: jismoniy tarbiya bayramlari, sog'lomlashtirish lagerlari, turistik sayohat, sport seksiyalari.

Tayanch o'quv material:

O'quv topshirig'i:

1. Ushbu vaziyatni o'qib chiqing.
2. Vaziyatni tahlil qiling va unda ko'rsatilgan muammoga nisbatan o'z fikrlaringizni bildiring.
3. Muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rsating.
4. Uni bartaraf qilish bo'yicha o'z takliflaringizni bildiring

Vaziyat

Bahor kelib havo harorati o'zgardi, o'quvchilar ham bahor havosidanmi ancha tetiklashish o'rniga erinchoq, o'ychan bo'lib qolishdi. Kunlar ham uzayganidanmi ko'pchilik o'quvchilarning bo'sh vaqtlari ko'payib qoldi.

Anvar va uning sinfdoshlarining o'zlashtirishlari ancha pasaygandi, ular o'zlarini majburlasalarda ko'ngildagidek dars tayyorlashmayaptilar, o'zlarini behol, charchagan his qilishayapti. Fan o'qituvchilarining ham shashti past, maktab jamoasi tushkun bir kayfiyatda yurardilar. Maktab psixologining aytishicha sinf o'quvchilari aniq fanlar o'qib to'liqishgan bundan esa miya faoliyati charchagan. Psixolog o'quvchilar faoliyatni o'zgartirishni maslahat berdi.

(Hayotiy voqea)

Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
 - d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o‘rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. Bahor fasli kirib kelganida insonlar organizmida qanday fiziologik o‘zgarishlar yuz beradi?
2. Nima uchun sinf o‘quvchilarning fanlarga nisbatan qiziqishini susaygan dep o‘ylaysiz?
3. Maktab psixologining tashxis natijalari haqida fikr bildiring?
6. Voqealarni keying rivojlanishi qanday bo‘lishi mumkin ?
7. Jamoadoshlaringiz bilan sinfni holati o‘zgartirish rejasini tuzib chiqing?
8. Aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat bog‘liqligi nimada?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:
 - a) Vaziyat yechimini topish maqsadida “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring.

b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.

s) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz.
Sinfdan tashqari mashg'ulotlar	Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tashkil qilmaganligi	O'quvchilar bilan birgalikda dam olish kunlari, bayramlarni maroqli o'tkazish rejalarini tuzish
O'quvchilarning tushkun kayfiyatining o'quv jarayoniga ta'siri	O'quvchilar jamosining ruhan tushkunligi	O'quvchilar bilan turli davra suhbatlari o'tkazish, maktab psixologi bilan uchrashuvlar tashkil qilish
O'quvchilarning psixologik holati	Charchash, toliqish, bir jarayondan zerikish holatlarining yuzaga kelishi	Aqli va jismoniy mehnatni teng olib borish
Turli madaniy-marifiy tadbirlarning kamligi	Maktab jamoasi tomonidan ko'ngil ochar tadbirlarning tashkil qilinmaganligi.	Turli-hil madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish

(8-ilova)

Mavzu: Boshlang'ich tashkilot yetakchisi va uning faoliyati

(Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi)

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Maqsad: Yetakchi va yetakchilik faoliyatining mazmuni bilan talabalarni tanishtirish, yetakchi jamoaning manfaatlarini birlashtira oladigan, boshqalarni ma'lum maqsadga yetaklay bilgan hamda buning natijasida jamoa ishonchiga muvaffaq bo'lgan shaxsdir, shundan kelib chiqib talabalarda yetakchiga xos boshqaruv ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni faol, tashabbuskor yoshlarga aylantirishdan iborat. Shuningdek jamoani boshqarishda maqsadni aniqlash va maqsadga ko'ra boshqarish usullarini to'g'ri tanlashga o'rgatish, yoshlarda o'ziga nisbatan ishonch tuyg'ularini shakllantirish, mamlakatimiz istiqboli uchun kurashadigan avlodni tarbiyalashdir.

Mashg'ulotning turi: amaliy

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : keys-stadi

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Tayanch tushunchalar: Yetakchi, yetakchilik faoliyati, ma'muriy boshqarish, iqtisodiy boshqarish, ijtimoiy – psixologik boshqarish, faollik, tashabbuskorlik.

Vaziyat

Shahar markazidagi 15-sonli maktabining o'quvchilari o'zlarining bilimli, iqtidorligi va faol, tashabbuskorligi bilan boshqa maktab jamoalaridan ajralib turardilar. Eng yangi g'oyalar, ommani birlashtiruvchi tadbirlar, loyihalar odatda ulardan chiqardi. Maktab "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining boshlang'inch tashkiloti maktab yetakchisi maktab o'quvchilarni doimo o'z atrofida birlashtira olar edi va boshqaruv usullariga amaliy faoliyatida juda katta e'tibor berardi. U maktab o'quvchilari bilan tadbir yoki uchrashuvlar o'tkazganida hamma o'z iqtidorini namoyish qilishga, tadbirning faol ishtirokchisiga aylanishga harakat qilardi.

Maktab Boshlang'inch tashkilot yetakchisining lavozimi o'zgarib boshqa ishga o'tib ketgandan keyin maktabga yangi yetakchi saylandi. Yangi yetakchi iqtidorli, davlat stipendiyati sovrindori, o'z sohasining bilimdoni, yangiliklarni sevadigan faol yoshlardan. Shunday bo'lishiga qaramasdan maktab jamoasi faollik, tashabbuskorlikni qo'ldan boy berib qo'yishdi. Ularda avvalgidek yonib turgan yurakning issiq harorati sezilmasdi. Bir so'z bilan aytganda maktab jamoasi uxlab qolganga o'xshardi.

(A.Sh.Bozorov, H.A.Usmonov, A.R.Bo'stonov.

"Yoshlar yetakchilari uchun qo'llanma")

Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o'qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda "sabab-oqibat" nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:

- d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.
- e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
- f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o‘rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

- 5. Boshlang‘inch tashkiloti yetakchisi faoliyati nimalardan iborat?
- 6. Yetakchi deganda sizda qanday tasavvur paydo bo‘ladi?
- 7. Yetakchi o‘zida qanday xususiyatlarni o‘zida shakllantirishi lozim?
- 8. Maktab o‘quvchilarning faolliyatidagi sustkashlikga nima sabab deb o‘ylaysiz?
- 9. Maktabning sobiq va yangi Boshlang‘inch tashkiloti yetakchilari nimasidan bir –biridan farq qiladi? (yutuqlari yoki kamchiliklari)
- 10. Yetakchi qanday boshqarish usullariga amal qilishi kerak?
- 11. Faollik va tashabbuskorlikning yetakchi faoliyatida ahamiyati?

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

- d) Vaziyat yechimini topish maqsadida “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring.
- e) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o‘rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.
- f) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz.
Yetakchi faoliyatida	Yetakchi faoliyatidagi sustkashliklar	Yetakchi o'z vazifalarini to'g'ri anglay olishi va yo'lga qo'yishi
O'quvchilar jamoasining uyushqoqligi	O'quvchilar jamoasining faolligining sustligi	Yetakchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish
Maktab jamoasida boshlang'inch tashkilotlarning ahamiyati	Maktab jamoasida boshlang'inch tashkilotlar o'z vazifalarini bajara olmayotgani	Maktab jamoasida boshlang'inch tashkilotlar faoliyatini yaxshilash uchun istiqboli rejalar tuzish
O'quvchilarning psixologik holati	O'quvchilarning yangi yetakchiga moslasha olmayotgani	O'quvchilar va yangi yetakchi bilan uchrashuv tashkil qilish

(9-ilova)

Mavzu: Boshlang'ich tashkilot faollari tomonidan voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarini olib borish.

(Yoshlar tashkilotlari va ular bilan ishlash metodikasi)

Rezyume

O'quv jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalar kichik jamoalarda kasbiy jarayonda sodir bo'lgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, uning kelib chiqish sabablarini o'rganadilar. Talabalar vaziyatning yechimi

bo'yicha aniq va asosli xulosalarni kiritadilar va ushbu takliflarni maqbullik jihatlarini muhokamaga qo'yadilar.

Maqsad: Boshlang'inch tashkilotining faol a'zolari ko'magida Voyaga yetmaganlar ishlari norozigini profilaktik hisobda turgan va tarbiyasi og'ir yoshlarning sharoitini o'rganish va ularni to'g'ri yo'lga boshlash, faollikka chorlash, muammolarini birgalikda bartaraf etish imkoniyatini yaratish;

- yoshlarni foydali ishlarga jalb qilish, ota-onalar mas'liyatini oshirish, o'smirlarning bo'sh vaqtlarni mazmunli tashkil etish, jamiyatdagi mavjud zararli illatlardan ogohlantirish va saqlash, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, axloqan ijobiy tomonga o'zgartirish;

- IIB profilaktik hisobida turganlarni hisobdan chiqarish hamda ularning qayta jinoyat va qabohat yo'liga kirib ketishining oldini olish.

Mashg'ulotning turi: amaliy

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya : keys-stadi

Mashg'ulot jihozi: kompyuter, slaydlar, tarqatma matnlar, markerlar, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat natijalari.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa

Tayanch tushunchalar: voyaga yetmagan yoshlar, ota-onalar mas'liyatini, bo'sh vaqtlarni mazmunli tashkil etish

Tayanch o'quv material:

O'quv topshirig'i:

1. Ushbu vaziyatni o'qib chiqing.
2. Vaziyatni tahlil qiling va unda ko'rsatilgan muammoga nisbatan o'z fikrlaringizni bildiring.
3. Muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rsating.

Uni bartaraf qilish bo'yicha o'z takliflaringizni bildiring

Vaziyat

Voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlarining sodir etilayotganligi va buning oqibatida ularning voyaga yetmaganlar nozirligi hisobiga tushib qolishi achinarli holdir. Hammamizga ma'lumki voyaga yetmaganlar nozirligi hisobida turgan yoshlarning ko'pchiligi o'smirlardir.

O'smirlik davrining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- mustaqil inson bo'lishga intilish;
- kattalar nazoratidan chiqishga harakat qilish;
- o'z tengdoshlariga taqlid qilishga moyillik.

O'smir yoshlar bilan bo'lgan munosabatlarda ushbu xususiyatlarning inobatga olinmayotganligi, ularga kattalar tomonidan ishonchning sustligi, bo'sh vaqtlarining mazmunli tashkil etilmayotganligi, oiladagi nosog'lom muhitning mavjudligi sababli ularning jamoadan ajrab qolishi, turli noqonuniy guruhlarining ta'siriga tushishi turli huquqbuzarliklarning sodir etilishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, o'quv muassasasi yotoqxonalarida zarur sharoitlarning yetarli emasligi, o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishning to'g'ri tashkil etilmaganligi (turli xildagi to'garaklar tashkil etilmaganligi kabilar) ham sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi muammolarning kelib chiqishi sabablarini aniqlash va uning oldini olish hamda bartaraf qilish uchun yangi g'oyalar, loyihalar ishlab chiqish juda zarurdir.

(A.Sh.Bozorov, H.A.Usmonov, A.R.Bo'stonov.

Talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar

Ishni tashkil qilish bosqichlari va maslahat va tavsiyalar:

1. Keys bilan tanishish:
 - a) Keys mazmunini diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - b) Keysni kichik jamoangizda “sabab-oqibat” nuqtai-nazaridan tahlil qiling.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:
 - d) Malumotlarni yana bir diqqat bilan o‘qib chiqing.
 - e) Vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillarni belgilab oling.
 - f) Vaziyatda muhim joylarni qalam bilan chizib, alohida ko‘rsatib qo‘ying.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish:

Muammoli vaziyatni o‘rganish davomida quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. Sizningcha huquqbuzarlik holatlarining kelib chiqishiga nimalar sabab bo‘ladi?
2. Farzand tarbiyasida ota-ona va maktab jamoasining o‘rni nimalardan iborat?
3. O‘smirlik davrining xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Yoshlarning sog‘lom turmush kechirishida Boshlang‘inch tashkilotlarning o‘rni va ahamiyati.
5. Huquqbuzarlik holatlarini sodir etishga moyil o‘smirlarni qanday aniqlash mumkin?

6. O'quvchilar orasida quyidagi so'rovnomalarni o'tkazishga siz qanday qaraysiz va muammoni yechimini topishda uning natijalariga e'tibor qarating?

SO'ROVNOMA

Yoshingiz_____

Jinsingiz_____

1. Bandligingiz:

- 1) O'qiyman
- 2) Ishlayman
- 3) Vaqtincha ishsizman

2. Moddiy tarafdin o'zingizni mustaqilman deb hisoblaysizmi?

- 1) Mehnatimga ish haqi olaman
- 2) Ota-onam to'la ta'minlaydi
- 3) O'zim izlab imkoniyatimni topaman
- 4) Do'stlarim (dugonalarim) yordam beradi

3. O'qishdan bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?

- 1) Asosan uy ishlarini bilan band bo'laman
- 2) Do'stlarim (dugonalarim) bilan birga bo'laman
- 3) Internet klublarida o'yinlar o'ynayman
- 4) Kutubxona (Internet)da ma'lumotlar bilan ishlayman

4. Siz kimga o'xshashni orzu qilasiz?

- 1)Yaqin do'stim (dugonam)ga
- 2) Otam (onamga)ga
- 3) O'qituvchi (rahbarimga)

4) Boshqa _____ (yozib ko'rsating)

5. O'z muammolaringizni hal qilishda kimlar maslahatlashasiz?

1) Aka-uka (opa-singil)larim bilan

2) Yaqin o'stim (dugonam) bilan

3) Boshqalar bilan _____ (kimligini yozib ko'rsating)

4) Otam (onam) bilan

5) Umuman hechkim bilan maslahatlashmayman

4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarni tanlash hamda asoslash:

a) Vaziyat yechimini topish maqsadida "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring.

b) Muammoni yechish uchun barcha holatlarni o'rganing, muqobil variyatlarni tahlil qiling.

s) Keys bilan ishlash natijalarini taqdimot yoki yozma axborot shaklida tayyorlang.

Muammoli vaziyat jadvali

Vaziyat turlari.	Vaziyatning kelib chiqish sabablari.	Vaziyatni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz.
Huquqbuzarlik holatlarining kelib chiqishi	Huquqbuzarlik holatlarining kelib chiqishdagi e'tiborsizliklar	Yoshlar bilan doimiy ravishda shug'ullanib borish

Farzand tarbiyasida ota-ona va maktab jamoasining o‘rni	Farzand tarbiyasida ota-ona va maktab jamoasining o‘rni to‘g‘ri tashkil qilinmagan	Farzand tarbiyasida ota-ona va maktab jamoasining o‘rni atrofdagilarga to‘g‘ri tushuntirish
O‘smirlik davrining xususiyatlari	O‘smirlik davrining xususiyatlari inobatga olinmasligi	O‘smirlar bilan psixologik ishlar olib borish
Huquqbuzarlik holatlarini sodir etishga moyil o‘smirlar	Huquqbuzarlik holatlarini sodir etishga moyil o‘smirlar bilan vaqtida koreksion ishlar olib borilmaganligi	Huquqbuzarlik holatlarini sodir etishga moyil o‘smirlarni vaqtida aniqlash, tegishli choralar ko‘rish.